

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

N.X.ERMATOV, A.I.ABDIRAZAKOV, O.Q.IBOTOV

**QUDUQLARNI TA'MIRLASH VA XIZMAT KO'RSATISH
FANIDAN**

5311900-“Neft va gaz ishi (Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish)” bakalavr ta`lim yo`nalishi talabalari uchun o’quv qo’lanma sifatida tavsiya etilgan



Qarshi – 2022 y

N.X.Ermatov, A.I.Abdirazako, O.Q.Ibotov, Quduqlarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish.

O'quv qo'llanma. –T. 221 bet.

O'quv qo'llanmada neft quduqlarini ishlatishda yuzaga keladigan asosiy asoratlar, gaz va gazzondensat quduqlarini ishlatishda yuzaga keladigan asosiy asoratlar, quduqlardagi asoratlar bilan kurashish maqsadida bajariladigan yer osti ta'miri ishlari, quduqlarni kapital va yer osti ta'mirlashda ishlatiladigan asbob uskunalar, quduqlarda qum tinqiniga qarshi kurashish texnologiyasi va texnikasi, quduq tubiga ta'sir etishda yer osti ta'miri ishlari, quduq tanasi va tubi devorini mustahkamlash texnologiyalari, quduqlardagi avariyalarni bartaraf etish va ikkinchi stvol ochishda ishlatiladigan asbob uskunalar amalga oshiriladigan ishlar haqida nazariy ma'lumotlar qisqacha bayon etilgan.

O'quv qo'llanmada neft va gaz fakultetining 5311900-“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” bakalavr ta`lim y o'nalishining talabalari uchun mo'ljallangan.

36 jadval, 90 ta rasm, adabiyotlar – 14 nomda.

В учебнике освещаются основные осложнения при эксплуатации нефтяных скважин, основные осложнения при эксплуатации газовых и газоконденсатных скважин, подземные ремонты для борьбы с осложнениями в скважинах, оборудование, используемое для капитального и подземного ремонта скважин, скважин. Теоретическая информация о технике и методах борьбы с засорением песка, подземных ремонтных работах по воздействию на забой скважины, технологии укрепления корпуса скважины и нижней стенки, оборудования, используемого для предотвращения аварий в скважинах и вскрытия второго ствола данный

Учебник предназначен для студентов ВУЗов по направлению 5311900-«Разработка и эксплуатация нефтяных и газовых месторождений».

36 таблиц, 90 рис, список литератур – 14 наименований

The textbook covers the main complications of the operation of oil wells, the main complications of the operation of gas and gas condensate wells, underground repairs to combat complications in wells, equipment used for capital and underground repairs of wells, wells. Theoretical information on the technology and techniques of combating sand clogging, underground repair work on the impact of the bottom of the well, technology of strengthening the body of the well and the bottom wall, the equipment used to prevent accidents in wells and open the second shaft given

The textbook is designed for university students in the direction of 5311900- "Development and operation of oil and gas fields."

36 tables, 90 fig., list of literatures - 14 items

Taqrizchilar:

Eshev S.S –t.f.d.”GTI va NSF” kafedrasi mudiri,
Abdulxaev.A.A. – “Gissarneftgaz” MChJ “ Neft gaz qazib
chiqarish konlarini ishlatish” bo’lim boshlig’i.

SO`Z BOSHI

O`quv qo'llanmada neft quduqlarini ishlatishda yuzaga keladigan asosiy asoratlar, gaz va gazkondensat quduqlarini ishlatishda yuzaga keladigan asosiy asoratlar, quduqlardagi asoratlar bilan kurashish maqsadida bajariladigan yer osti ta'miri ishlari, quduqlarni kapital va yer osti ta'mirlashda ishlatiladigan asbob uskunalar, quduqlarda qum tiqiniga qarshi kurashish texnologiyasi va texnikasi, quduq tubiga ta'sir etishda yer osti ta'miri ishlari, quduq tanasi va tubi devorini mustahkamlash texnologiyalari, quduqlardagi avariyalarni bartaraf etish va ikkinchi stvol ochishda ishlatiladigan asbob uskunalarini amalga oshiriladigan ishlar haqida nazariy ma'lumotlar qisqacha bayon etilgan.

O`quv qo'llanmada neft va gaz fakultetining 5311900-“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” bakalavr ta'lim y o`nalishining talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, O`quv qo'llanmadan neft va gaz sohasida ishlaydigan mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Kirish

Neft va gaz kundalik hayotimizning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Shu vaqtga qadar insoniyat tarixida jamiyatning hayoti bilan chambarchas bog'liq bunday foydali qazilma boyliklari bo'lган emas.

Odamlarning neft va gazga birinchi marotaba duch kelgan vaqtini aytish qiyin. Ammo inson o'zi uchun foydali bo'lган narsalarini sinash usuli va yo'l qo'yish usuli orqali qidirgan sivilizatsiyaning dastlabki davrlarida yuz bergen bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda neft va gaz energiyasini iste'mol qilish darajasi u yoki bu davlat rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu esa hozirgi zamonning obyektiv manzarasining ifodalaydi, chunki hozir energetikasiz sanoat, transport, qishloq xo'jaligi rivojlanishining birorta ham masalasini yechib bo'lmaydi. Hozirgi vaqtda jahon bo'yicha iste'mol qilinayotgan energiyasining 39,38%-neft, 25,84%-gaz, 24,77%-ko'mir, 8,98% - atom energiyasi va 1,03% -gidroelektr energiyasini tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgach neft-gaz sanoatini rivojlantira borib o'zini neft va gazga bo'lган ehtiyojini to'la qondira oladigan va ayni vaqtda har yili 8 mldr.m³ hajmdagi gazni chet elga eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lган jahondagi uncha ko'p bo'lмаган mamlakatlardan biriga aylandi.

Hozirgi kunda Respublika neft-gaz sanoati xalq xo'jaligining ustuvor tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bizning xalq xo'jaligimizning energetika bazasiga ega bo'lishi uchun Prezidentimiz qo'yidagi asosiy strategik vazifalarni belgilab beradi: neft va gaz kondensatni qazib olishni ko'paytirish: neft va gazni qayta ishlash texnologik jarayonlarini chuqurlashtirish yangi konlarni ochish orqali uglevodorod zahiralarini, eng avvalo uning suyuq zahiralarini ko'paytirishga erishish va shu kabi bir qator masalalar.

Neft va gaz konlarini samarali ishlatish har bir kondagi quduqlarni ishlatishning texnologik rejimi va ulardan olinadigan mahsulot miqdorining meyorini asoslab berish va nazorat qilish bilan bog'liq. Neft va gaz konlaridan

qazib olinadigan mahsulot miqdori ko'p jihatdan quduqlarning ishlatalish usuliga ham bog'liq.

Shuningdek, neft va gazni qazib olish mobaynida quduqlar har xil asoratlarga uchraydi: quduqlarni suv bosadi; quduqlarda qum tiqini hosil bo'ladi; quduq devorini mustahkamligini yoqoladi; gips quduq devorlariga yopishib qoladi; parafin quduq devorni va quduq tubiga keladigan qatlamning o'tkazuvchanligiga ta'sir etadi va boshqalar.

Konlarda mahsuldor qatlamga va alohida quduq tubiga ta'sir etish uchun ham turli mashina va mexanizmlardan foydalilanadi. "Quduqlarni kapital ta'mirlash" fanidan tayyorlangan ushbu qo'llanma davlat ta'lim standartlariga mos holda, fan dasturiga muvofiq bo'lib, talabalarning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda mustahkamlashda asos bo'ladi. Mazkur qo'llanma fan dasturiga muvofiq alohida mavzularga bo'lingan. Talabalar mavzuning mazmuni bilan tanishib, amaliy ishlar va laboratoriya mashg'ulotlarini o'rGANADILAR. Ishni bajarishda tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanadilar. Bunda har bir mavzuning asosiy qismini ajrata bilishi va har bir jarayonning masalan: quduqlarni ta'mirlash jarayonining murakkabligi, yer osti kapital ta'mir uskunalari, qum tiqinini paydo bo'lish sabablari, qum tiqiniga qarshi kurash, qatlamni gidravlik yorish, qum tiqinini oqimli nasoslar yordamida yuvish, qum tiini gidrobur yordamida tozalash, quduq tubiga turli usullarda ishlov berish (xlorid kislota, termokimyoiy, elektr issiqqlik), quduq tubini mustahkamlash (farmaldegid samolasi bilan, sementli qum aralashmasi bilan) va yer osti ta'miridagi hisoblashlarning asosiy mohiyatini mustaqil aniqlashlari kerak bo'ladi.

Tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha talabalarni har bir bobda o'rGANILGAN nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida amaliy mashg'ulotlarda yechiladigan masalalar va ularni yechim uslubi hamda adabiyotlar ro'yxati ham berilgan.

Qo'llanma o'n bobdan iborat bo'lib, unda neft quduqlarini ishlatalishda yuzaga keladigan asosiy asoratlar; gaz va gaz kondensat quduqlarini ishlatalishda

yuzaga keladigan asosiy asoratlar; quduqlardagi asoratlar bilan kurashishi maqsadida bajariladigan yer osti ta'miri ishlari; statsionar minorali quduqlarda yer osti ta'miri uskunalar; minorasiz ishlatiadigan quduqlarda yer osti ta'miri uskunalar; qum tiqiniga qarshi kurashishi texnologiyasi va texnikasi; quduq tubiga ta'sir etishda yer osti ta'mir ishlar; quduq tubi devorini mustahkamlash texnologiyalari yer osti ta'miridagi hisoblashlar; parafin va gipsga qarshi kurashishida yer osti ta'miri ishlarining bajarilishi bayon etilgan. Ma'lumotlar to'liq bo'lishi uchun qo'llanma rasm va jadvallar bilan boyitildi.

I-BOB. NEFT, GAZ VA GAZKONDAYENSAT QUDUQLARINI ISHLATISHDA YUZAGA KELADIGAN ASOSIY ASORATLAR

1.1.Quduqda yer osti va kapital ta'mirlash ishlari turlari va tasniflari

Ta'mirlash ishlarining turi Quduq ichki jihozlarini har xil nosozliklardan tuzatish, geologik-texnik tadbirlar, quduq tubi mahsuldor qatlama o'tkaziladigan ishlarga yer osti ta'mirlash ishlari deyiladi.

Yer osti ta'mirlash ishlari ishlarning murakkabligiga bog'liq holda, joriy va kapital ta'mirga bo'linadi.

Quduqning yer osti joriy ta'mirlash ishlariga quyidagilar mansubdir.
nasos shtangasini uzilgan va buralgan joylarini ta'mirlash;
nasos kompressor quvurlarini yoki shtangini almashtirish;
chuqurlik nasoslarini almashtirish;
nasos jihozlarini osilish chuqurligini o'zgartirish (ETSN, SHGN);
elektrdvigateli almashtirish;
kabelni almashtirish;
qumli yakorni almashtirish;
quduqni qumtiqinlari va parafindan tozalash;
nasos-kompressor quvurlarini devorlaridagi tuzlarni va parafinni tozalash;
quduqda tadqiqot ishlarini olib borish uchun nasos jihozlarini tushirish va ko'tarish;

favvora quduqlarida sinib ketgan qirg'ichlarni, chuqurlik manometrlarini, chuqurlik harorat o'lchagichlarini tozalash uchun NKQni ko'tarish.

Bunday ishlar maxsus brigada yordamida amalga oshiriladi, brigada esa yer osti ta'miri uchun ikki va uch smenada ishlaydi.

Quduq ustunida murakkab operatsiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lган ishlarga **kapital ta'mirlash deyiladi**.

Avariyanı bartaraf etish bilan bog'liq bo'lган (quvur tushub ketishiga, shtanga nasoslarni, MaYEN, quvurni parafinsizlashtirish);
bekitish ishlariga bog'liq bo'lган ishlar;

ishlatish tizmasining shikastlangan joyini tuzatish;
 quduqni bir obyektdan ikkinchi obyektga ishlatish uchun o'tkazish;
 gidroyorish, teshikli yuksizlantirish, quduq tubi zonasini oksilid, kislotali ishlov
 va boshqa;
 ishlatish tizmasini frezerlash (metallar tushib ketganda, qistirmada);
 kabellarni ta'mirlash;
 sement stakanlarini burg'ilash.

Quduqlarni joriy ta'mirlash ishlari turlari

Shifr	Quduqlarni joriy ta'mirlash ishlari turlari
TR1	Quduqlarni ishga tushirish (burg'ilashda, o'zalashtirishda xarakatsiz, konservatsiya) quduq jihozlari bilan jihozlash.
TR1-1	Favorali quduqni ishga tushirish
TR1-3	Gazliftli quduqni ishga tushirish
TR1-4	ESN bilan jihozlangan quduqni ishga tushirish
TR2	<i>Quduqlarni ishlatishni boshqa usuliga o'tkazish</i>
TR2-1	Favoralidan—Gazliftliga o'tish
TR2-2	Favoralidan—SHGN
TR2-3	Favoralidan—ESN ga
TR2-4	Gazliftlidan – SHGN ga
TR2-5	Gazliftlidan – ESN ga
TR2-6	SHGN—ESN ga
TR2-7	ESN—SHGN ga
TR2-8	SHGN—ORE ga
TR2-9	ESN —ORE (ore-odnovremiya razdelnaya ekspulatsiya)
TR2-10	O'tkazishning boshqa turlari
TR3	<i>Ishlatish tizmini optimallashtirish</i>
TR3-1	Podviska chuqurligini o'zgartirish, SHGN ning o'lchamlarini o'zgartirish

TR3-2	Podviska chuzurligini o'zgartirish, ESN ning o'lchamlarini o'zgartirish
TR4	<i>SHGN bilan jihozlangan quduqlarni ta'mirlash</i>
TR4-1	Reviziya nasosini almashtirish
TR4-2	Shtanga uzilishini bartaraf etish
TR4-5	Polirovkali shtokni almashtirish
TR4-6	Germitik bo'limgan NKT ni almashtirish
TR4-7	NKTni tozalash va bug'lantirish
TR4-8	Quduq usti jihozlarini almashtirish, reviziya qilish
TR5	<i>ESN bilan jihozlangan quduqlarini ta'mirlash</i>
TR5-1	Nasosni reviziya qilish va almashtirish
TR5-2	Eliktir devigitilni almashtirish
TR5-3	Zararlangan kabilni almashtirish
TR5-4	Germitik bo'magan NKTni reviziya qilish, almashtirish
TR5-5	NKTni tozalash va bug'lantirish
TR5-6	Quduq usti jihozlarini reviziya qilish
TR6	<i>Favvora quduqlarini ta'mirlash</i>
TR6-1	Germitik bo'limgan NKTni reviziya qilish almashtirish opirsovka qilish.
TR6-2	NKTni tozalash va bug'lantirish
TR6-3	Quduq usti jihozlarini reviziya qilish va almashtirish
TR7	<i>Gazlift quduqlarini ta'mirlash</i>
TR7-1	Germitik bolmagan NKTni reviziya qilish, almashtirish, opirsovka qilish.
TR7-2	NKTni tozalash va bug'lantirish
TR7-3	Gazlift klaponlari reviziya qilish va almashtirish
TR7-4	Gazlift quduqlarining usti jihozlarini reviziya qilish va almashtirish
TR8	<i>Artizan va yutuvchi Quduq jihozlarini reviziya qilish va</i>

	<i>almashtirish.</i>
TR9	<i>Quduq tubini tozalash va yuvish</i>
TR9-1	SFM (PAV) qo'shilgan issiq neft va suv bilan yuvish.
TR9-2	Kimyoviy reagintlar (TGXV, CKO, GKO va x/k) bilan quduq tubini qayta tozalash.
TR10	Yanigi turdag'i er osti jihozlarini sinash bo'yicha malakali ishlar
TR11	<i>Boshqa turdag'i ishlar</i>

Quduqlarni kapital ta'mirlash ishlari

Shifr	Quduqlarni kapital ta'mirlash ishlari
KR1	<i>Ta'mirlash- himoyalsh ishlari</i>
KR1-1	Qatlamning suvlangan alohida qisimlarini o'chirish
KR1-2	Alohida qatlamlarni o'chirish
KR1-3	Sement xalqasining germitik bo'limgan qismlarini to'ldirish
KR1-4	Ishlatish oraliq kolonna va konduktor orti sement xalqasini to'ldirish
KR2	Ishlatish kolonnasining germitik bo'limgan qismlarini to'ldirish bartaraf etish
KR2-1	Germitik bo'limgan qismlarini tomponlash yo'li orqali bartaraf etish
KR2-2	Germitik bo'limgan qismlarini plastir o'rnatish orqali bartaraf etish
KR2-3	Germitik bo'limgan qismlarini qo'shimcha deametiri kichik bo'lgan mustahkamlovchi quvurni tushurib bartaraf qilish
KR3	Ishlatish yoki ta'mirlash jarayoni yo'l qo'yilgan xolokatlarni bartaraf qilish
KR3-1	Ishlatish jarayonida yo'l qo'yilgan xalokatdan so'ng quduqdan jixozlarni olib chiqish
KR3-2	Ishlatish kollonasi bilan halokatni likvidatsiya qilish
KR3-3	Quduq tubini metal jismlardan tozalash
KR3-4	Quduqlarni ishlatish bo'yicha yo'l qo'yilgan halokatlarni likvidatsiya qilish bo'yicha boshqa ishlar

KR3-5	Quduqlarni ta'mirlash jarayonida yo'l qo'yilgan halokatlarni likvidatsiya qilish
KR4	Boshqa garizontlarga o'tish va qatlamlarni bir biridan ajratish
KR4-1	Boshqa garizontlarga o'tish
KR4-2	Qatlamlarni bir biridan ajratish
KR5	ORE, ORZ Paker-otsekatelm turdag'i qurulmalarni yo'lga qo'yish va ta'mirlash
KR6	<i>Burg'ilash bilan bog'liq bo'lgan yer osti ishlari majmuasi</i>
KR6-1	Quduqlarning yangi o'qlarini burg'ilash
KR6-2	Sement stakanini burg'ilash
KR6-3	Tog' jinsida quduq o'qini chuqurlashtirish bilan kollona boshmog'ini frezerlanadi
KR6-4	Shurf va artizan quduqlarini burg'ilash va jihozlash
KR7	Quduq tubi zonasini qayta ishlash
KR7-1	Quduq tubini kislota bilan ishlov berish
KR7-2	GRP o'tkazish
KR7-3	GPP o'tkazish
KR7-4	Quduq tubi zonasini vibratsiya bilan ishlatish
KR7-5	Quduq tubi zonasini issiqlik bilan ishlatish
KR7-6	Erituvchilar bilan quduq tubi zonasini yuvish
KR7-7	SFM bilan quduq tubi zonasini yuvish
KR7-8	Termokimyoviy usullar (TGXV, PGD va b) bilan ishlash
KR7-9	Quduq tubi zonasini ishlatishning boshqa turlari
KR7-10	Xaydovchi quduqlarning qabul qiluvchi profelini to'g'irlash
KR7-11	Avval otilgan oraliqlarni qo'shimcha perfaratsiyalash va tarpedalash
KR8	<i>Quduqlarni tekshirish</i>
KR8-1	To'yinganlik va mahsuldar qatlamning ishlaganlik xarakterini tekshirishquduq geologik qismini aniqlash

KR8-2	Quduqning texnik xolatini boxolash(quduqni tekshirish)
KR9	<i>Quduqni boshqa turga o'tkazib ishlatish</i>
KR9-1	Quduqni haydash qudug'i ostida o'zlashtirish
KR9-2	Quduqni texnik suv olishga o'tkazish
KR9-3	Quduqlarni nazorat pezometrik quduqlarga o'tkazish
KR9-4	Quduqni issiqlik yoki xavo xaydovchi quduqga o'tkazish
KR10	Haydovchi quduqlarni ishlatish va ta'mirlash
KR10-1	Bug' va havo haydovchi quduqlarni qumga qarshi jihozlar bilan jihozlash
KR10-2	Bug' va havo haydovchi quduqlardagi qum tiqinlarni yuvish
KR11	<i>Quduqlarni konservatsiya qilish va undan chiqarish</i>
KR12	<i>Boshqa turdag'i ishlar</i>

Qatalamga mahsulot berishini oshirish uchun qatlamga ta'sir etish

PNP -Povisheniye Nefteotdachi Plastov

Shifr	<i>Vidi i podvidi rabot</i>	Berishga bo'lgan texnik-texnologik talablar
ПНП1	Hoshiyani hosil qilish:	Rejalashtirilgan ish hajmini bajarish
ПНП1-1	Erituvchi	Rejalashtirilgan ish hajmini bajarish
ПНП1-2	SFMni eritmasi	--//--
ПНП1-3	Polimer eritmasi	--//--
ПНП1-4	Kislota	--//--
ПНП1-5	Ishqor	--//--
ПНП1-6	Issiq suv	--//--
ПНП1-7	Bug'	--//--
ПНП1-8	Gazsimon suyuq aralashma	--//--
ПНП1-9	Faol gil	--//--
ПНП1-9	Gaz	--//--
ПНП1-10	Bug' gaz aralashma	--//--

ПНП1-11	Bug' gaz aralashma	--//--
ПНП1-12	Misellyar eritama	--//--
ПНП1-13	Boshqa eritmalar	--//--

1.2.Neft quduqlarini ishlatalishda yuzaga keladigan asosiy asoratlar

Hozirgi vaqtida Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari va Buxoro-Xiva o'lkalaridagi konlarda neft qazib chiqarish chuqurlik-nasoslari yordamida amalga oshiriladi.

Chuqurlik-nasoslari yordamida ishlataladigan quduqlarning katta hajmli asoratlashgan sharoitda ishlatilmoqda.

Bulardan:

- qatlamdan quduqqa, neft bilan katta miqdorda erkin gazning o'tishi;
- qatlamdan qum chiqishi;
- nasos va quvurlarda parafin to'planishi;
- quduq tanasi qiyshayishini ta'kidlash mumkin.

1.2.1. Muddatdan oldin suvlanishning sabablari

Suv bosimi tazyiqi tizimida mahsulot olinadigan quduqlarning suvlanishi-uyumning ilgari neft bilan to'yingan qismi ichiga suv-neft tutash yuzasining harakati natijasida yuzaga keladigan tabiiy jarayon.

Neft oluvchi quduqlarga suv yorib o'tishi bilan neft olishni kuzatish mumkin. Suv yorib o'tishining sabablari qo'yidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- 1). Uyumning o'tkazuvchanligini mintaqalanish (maydon bo'yicha) va qatlamning (qatlam qalinligi) turli jinsliligi, siqib chiqarishning qovushqoqlik va gravitatsion noustivorligi, mahsulot olinuvchi va suv haydovchi quduqlarni joylashtirish xususiyati;
- 2). Ostki suvlarning yotishi, qatlam qiyaligi, siqib chiqarish frontining yoyilishi.

3). Yuqori o'tkazuvchanlikka ega kanal va yoriqlarning mavjudligi, ayniqsa yoriq-g'ovakli kollektorlarda;

4). Ishlatish quvurlar birikmasining va sement halqasining nogermetikligi.

Asosan muddatdan oldin suvlanish qo'yidagilar natijasida yuzaga keladi:

a) uyumning bir jinsli bo'limgan mintaqlanish maydoni bo'ylab haydaladigan suvda "tip" hosil bo'lishi (maydon bo'ylab suv bosishi);

b) ostki suvlarning konussimon shakl olishi;

v) bir jinsli bo'limgan qatlama, o'tkazuvchanligi katta bo'lgan qatlamchalar suv harakatini ildamlashtirilishi (qatlam qalinligi bo'ylab suv bosish);

g) yuqori o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan yoriqlardan suv yorib o'tishining tezlashishi;

d) quvurlar birikmasi va sementli xalqning nogermetikligi tufayli yuqori, o'rta va ostki suv qatlamlaridan suvning o'tishi.

Qatlam va quduqlarning muddatdan oldin suvlanishi joriy neft qazib olishning va so'nggi davrdagi neft bera olishlikning pasayishi, katta iqtisodiy yoqotishlarga, katta suv miqdorini yer yuziga chiqarish, tayyorlash va qayta qatlamga haydashga; neft tanqisligini oldini olish uchun yangi konlarni ishga tushirish zaruriyatini olib keladi. Qatlam va quduqlarning suvlanishiga qarshi muammosi yanada dolzarb bo'lib qolmoqda.

1.2.2. Quduqlarda qum tiqinlarining hosil bo'lishi

Qum tiqinlariga qarshi kurash-neft sanoatidagi qadimiy muammolardan biri hisoblanadi. Qumning quduq tanasi odatda bo'shliq bo'sh sementlangan jisnlarning buzilishi natijasida, ma'lum bir sizilish tezligi yoki bosim gradiyentida sizilish bosimi ta'siri ostida chiqishi kuzatiladi.

Qatlamdan qumning chiqishi quduq tubi zonasi jisnlarning mustahkamligini buzilishi, qatlam jisnlarini yemirilishi va buning oqibatida ishlatish quvurlar birikmasining deformatsiyalanishiga sabab bo'ladi, ba'zan quduqni ishdan chiqish holatlariga olib keladi. Qatlamdan quduq ichiga

kelayotgan qum, quduq tubiga cho'kib tiqin hosil qiladi, bu esa odatda quduqni joriy mahsul miqdorini kamaytiradi. Quduq tubidagi tiqinni bartaraflash uchun sermehnat ta'mirlov ishlari talab etiladi va bu neft qazib olishda cheklab bo'lmas yo'qotishlar bilan bog'liq. Qatlamdan chiqariladigan qum, ishlatish uskunasining qattiq yemirilishiga olib keladi.

1.2.3. Quduq tubi zonasida va nasos-kompressor quvurlari devorlarida parafin yig'ilishi

Neft harakat yo'nalishi davomida harakat va bosim kamayadi, gaz ajratiladi, oqim sovutiladi, neftning eruvchanlik xususiyatlari pasayadi, qattiq parafin, asfalten va smola (mum) ajralib chiqadi. Bularning cho'kindilari quduq tubi zonasida, ko'tarish quvurlarida, shlayferda, yig'ish quvurlari va rezervuarlarda bo'lishi mumkin. Parafin ko'proq ko'tarish quvurlarida ajraladi. Ishlatiladigan parafin qatlamining qalinligi noldan 900-300 metr chuqurlikda, maksimumgacha 200-50 metr chuqurlikda oshadi, so'ng esa yotqiziqlarni oqim yuvishi natijasida kamayadi. Parafin yotqiziqlari olimning gidravlik qarshiliklarini ortishiga olib keladi va mahsulot miqdorining kamayishiga sabab bo'ladi. Neft qazib olishda haroratning kamayishiga sabab bo'ladi. Neft qazib olishda haroratning pasayishi natijasida parafin aralashmasini bartaraf etib bo'lmaydi. Paraffining kristallanishi (qotishi) neftning mexanik aralashmalarida va uskuna devorlarida sodir bo'ladi.

Hajm ichida ajralgan parafin yotqiziq hosil qilishda deyarli ishtirok etmaydi. Bunday kristallar asosan rezervuarlar tubida cho'kadi. Shuning uchun paraffining uskuna devorida emas, balki hajm ichida ajratishga erishish maqsadga muvofiq bo'lardi.

1.2.4. Quduqlarni ishlatishda tuz yotqiziqlari hosil bo'lishi

Tuz yotqiziqlari-qatlamda, quduqda, quvur uzatmalarida va neft tayyorlash uskunasi jihozlarida suv harakatining deyarli butun yo'nalishi davomida hosil bo'lishi mumkin.

Asosan tuz yotqiziqlari kontur ichra suv bostirishda hamda chuchuk suvlari bilan suv bostirishda kuzatiladi, chunki haydalgan suv qoldiq suvlari bilan tutashganda sulfatlarga to'yinishi va minerallarning erishi kuzatiladi:

- a) turli xil gorizontlardan yoki qatlamchalardan quduqqa kelayotgan suvlarning kimyoviy nomutanosibligi.
- b) termodinamik sharoitning o'zgarishida suv-tuzli tizimning o'ta to'yinishi.

Tuz yotqiziqlari neft qazib olish sur'atining pasayishiga, quduq ishida ta'mirlash aro davrlarining qisqarishiga olib keladi. Tuzlarning asosiy komponentlari bo'lib, gips yoki kalsiy karbonatlari va magniy karbonatlari hisoblanadi. Uning tarkibiga shu bilan birgalikda kremniy dioksidi, temirning oksidli birikmalari, organik jinslar (parafin, asfaltenlar, mumlar) va hokozolar kiradi.

Cho'kindilar zich yoki bo'shoq bo'lishi mumkin, metall bilan tutashmasining mustahkamligi qatlam chuqurligiga qarab ortadi.

Yotqiziqlar tarkibining va tarkibining va tuzilishining har xilligi ularga qarshi kurashda har bir konda xususiy yondoshishni talab etadi.

1.3. Gaz va gazkondensat quduqlarini ishlatishda yuzaga keladigan asosiy asoratlar

Respublikamizda tabiiy gaz va gaz kondensati asosan Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida joylashgan konlarda qazib olinadi. Bu yerda hozirgi 15 dan ortiq kon ishlatilmoqda, bular orasida yirik konlar: Sho'rtan, Zevarda, Pomuq, Alan, Kultak, Shimoliy O'rtabuloq, Dengizko'l, Ko'kdumaloq va boshqalar hisoblanadi.

Gaz zahirasi bo'yicha yirik bo'lgan Gazli koni, deyarli ishlatib bo'lingan va u yer osti gaz ombori sifatida qo'llanilmoqda.

Gaz va gazkondensat quduqlarini ishlatishda qo'yidagi asoratlar uchraydi:

- quvurlar birikmalari aro gaz o'tishi;
- ostki va konturdan tashqari qatlam suvlari bilan suvlanish;

-quduq tubida tomchi suyuqlikning (bug' namligi va gaz kondensati) yig'ilishi;

-quduq uskunasining oltingugurtli va karbon kislotali ta'sirlarda yemirilishi.

1.3.1. Quvurlar birikmasi aro gaz o'tishi

Gaz quduqlarini ishlatishda birikmalari aro gaz o'tishi muammosi, ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarinig e'tibor markazida turadi. Quvurlar birikmalari aro bosim mavjudligi, quduq ishlab tizimining normalligi buzilishiga hamda grifon hosil bo'lishi va mustahkamlovchi quvurlar birikmasining uzilishi bilan bog'liq bo'lgan halokatli halokatlarni yuzaga keltirib chiqaradi.

Quvurlar birikmalari orasida gaz o'tishining paydo bo'lish sabablari gazning quvurlar birikmasi ortidagi bo'shliqlarga:

-mustahkamlovchi quvurlar birikmasining kertikli birikmalari;

-quduq usti quvurlar kallagidagi mustaxkamlovchi quvurlarni bog'lashdagi salnikli zichlash halqasi;

-ishlatish quvurlar birikmasi ortidagi sement xalqaning nogermetitkligi orqali o'tishi sabab bo'ladi.

Gazning oqib o'tishi, uning ishlatish va texnik quvurlar birikmasi orasidagi halqali bo'shliq orqali yuqoriga chiqishiga, nomahsuldor (gorizontga) qatlamga boshqarilmas gaz oqimining ketishiga, quduq ustida kritik bosim paydo bo'lishiga olib keladi.

1.3.2. Qatlam osti va kontur tashqi suvlari bilan mahsulotning suvlanishi

Gaz, gazkondensat va neft konlarining yer osti suvlari uchta katta guruhga bo'linadi:

- 1). Qatlam suvlari: chegaraviy, ostki va oraliq suvlar;
- 2). Begona suvlar: ustki, pastki va aralash;
- 3). Tektonik suvlar.

Chegaraviy suvlar mahsuldor uyumning pastlashgan qavatlarida yotadi va gazlilik chegarasi tomonidan uni siqib turadi. Ostki suvlar uyumning ostki

qismida tuzilma bo'ylab yotadi. Oraliq suvlar, gazli qatlamda yotuvchi suvli qatlamlardan tashkil topadi. Ustki begona suvlar, gazlilik qatlamidan yuqorida joylashgan qatlamlardan mahsuldor uyumga o'tishi mumkin. Pastki begona suvlar, uyumga qaysi bir qatlamdan oqib o'tishidan qat'iy nazar, mahsuldor qatlamdan pastda joylashadi. Aralash begona suvlar, gazlilik qatlamiga bir necha ustki yoki pastki joylashgan suvli gorizontlardan oqib o'tishi mumkin.

Tektonik suvlar, gaz uyumiga, yuqori bosimli suvlarga ega bo'lgan turli xil qatlamlarning tektonik yoriqlaridan oqib o'tadi. Yuqori harakatga ega bo'lgan yer osti qatlam suvlarining ko'rsatilgan asosiy turlaridan tashqari, sekin harakatga ega bo'lgan, tabiiy gaz tarkibida yoki uyumning g'ovaklik bo'shlig'ida mavjud bo'lgan yer osti suvlarini ajratiladi. Qoldiq suv-erkin yoki bog'liq ko'rinishda bo'lib, tog' jinsi kollektori g'ovaklarida neft yoki gaz bilan to'yinishdan oldin saqlanib qolgan.

Kondensatsion suv-qatlam gazi tarkibida suv bug'lari ko'rinishida bo'ladi, bu esa o'z navbatida bosim, harorat va gaz tarkibidagi komponentlarga bog'liq bo'ladi. Qatlam gazida uglevodorodlarning og'ir fraksiyalarini mavjud bo'lishi, gazning suv bug'lariga yuqori to'yinishiga olib keladi. Qatlam bosimi va harorati yuqori bo'lgan gazokondensat uyumlarida kondensatsion suv miqdori yuqori ko'rsatgich (15 gramm/m^3) ko'rsatadi va uyumni ishlatish jarayoni davomida bu ko'rsatkich oshib boradi. Yuqorida qayd etilganlarning dinamik ko'rsatkichlari asosida yer osti suvlarining 2 turini ajratamiz: erkin suvlar va bog'liq suvlar.

Erkin suvning asosiy tasniflariga: genetik gazogidrokimyoviy, mikrobiologik va dinamik tasniflar kiradi. Bog'liq suv-jismonan bog'langan yer osti suvlarini, og'irlik kuchi va kapillyar kuchlardan ortiq bo'lgan elektro molekulyar kuchlar natijasida tog' jinslari g'ovaklari devorlarida saqlanib turadi. Bog'liq suv erkin suvdek asosiy tasnifga ega emas va g'ovaklik devori yuzasidan $105-100^\circ\text{S}$ da quritish yoki $300-500 \text{ kg/sm}^2$ bosim ostida siqib chiqarish natijasida olish mumkin.

Bog'liq suvlar uch turga bo'linadi:

- 1). Tog' jinsi minerallari bilan kimyoviy bog'liqligi;
- 2). Qavat qalinligi bir necha molekulani tashkil qilgan tog' jinsi bilan adsorbsiyalashgan;
- 3). Kapilyar bog'liq suv.

Mahsuldor uyumga qatlama suvlarining oqib kelishi natijasida yuzaga keladigan asoratlarga: gaz quduqlarining suvlanishi, bu esa o'z navbatida gaz oqib chiqish suratini pasayishiga, sanoatdagi gaz yig'ish kommunikatsiyalari va gaz tayyorlash uskunasini ishlatish sharoitini yomonlashishiga olib keladi. Gaz bilan birga qazib olinadigan yuqori minerallashgan suv, quduq va gaz sanoatidagi uskunalar uchun katta xavf tug'diradi. Qatlama suvini gaz qudug'iga oqib kelishini oldini olish uchun, qatlamning suvlangan oraliqlarini sement aralashmasi yordamida berkitish zarur.

Gaz bilan birga kondensasion suvni qazib olish jarayoni kondensat qazib olish kabi oddiy jarayondan iborat. Uyumda qatlama bosimining pasayishida, gaz olishning izotermik jarayonida, qazib olinayotgan gazning namligi pardali va kapillyar suvlarning bug'lanishi natijasida ortadi. Gaz tarkibidan kondensatsion suvning ajralishi past haroratli separatsion uskunada, gazni quritish uchun kimyoviy reagentlarni qo'llashda amalga oshiriladi.

1.3.3. Quduq tubida tomchi suyuqliklarning paydo bo'lishi

Gaz yoki gazzkondensat konidagi konidagi g'ovak bo'shliqlar karbonsuvchil flyuidlari va suvga to'la bo'ladi. Gaz zahirasini hisoblashda g'ovakli bo'shliqdagi bog'liq suv gazga to'yinganlilik koeffitsiyenti bilan baholanadi, uning qiymati 75-85% ni tashkil etadi, ya'ni alohida olingan qatlama g'ovakligida 75-85% namli gaz va 25-15% suv tashkil etadi. Gazzkondensat konlarini ishlashda kondensatning qatlamdag'i qatlamdag'i yoqotishlar kuzatiladi, ya'ni, qatlama bosimi pasaygani sari qazib olinayotgan gaz tarkibining kondensat saqlash xususiyati pasayib boradi. Kondensat bera oluvchanlik kaoeffitsiyenti qatlamdag'i yoqotishlar hisobiga balans zahirasining 70-80% ni tashkil etadi. Shu vaqtda bosimining pasayishi hisobiga, qatlama g'ovakligida tashkil topgan

bog’liq, suvning bug’lanishi ro’y beradi. Shunday qilib gazkondensat konini ishlash jarayonida ikkita bir – biriga qarama – qarshi bo’lgan jarayonlarning yuz berishi belgilanadi: karbonsuvchilli kondensatning teskari kondensatsiyalanishi va g’ovak bog’liq suvning bug’lanishi. Bu jarayonlar natijasida quduq tubida va quduq tubi atrofidagi maydonda suyuqlik, bug’ namligi, gaz kondensati yig’ilishi yuz beradi. Qatlam bosimini pasaytirish jarayonida kondensatning qatlamdagи yoqotilishi oshadi va qazib olinayotgan gazning namligi oshadi. Ishlashning so’nggi bosqichida va ishchi mahsul miqdorining pasayishi bilan bog’liq holda nasos – kompressor quvurlari boshmog’idagi gaz oqimining tezligi quduq, tubidagi suyuqliknı olib chiqish uchun yetarli bo’lmay qoladi.

Quduq tubida yig’iladigan suyuqlik perforatsiya oraliqlarini qisman yopadi va gaz miqdorini pasayishiga va ba’zan, alohida hollarda quduqni o’z – o’zidan o’chishiga olib keladi.

1.3.4. Mahsulot tarkibidagi oltingugurt va boshqa aggressiv komponentlar ta’sirida quduq uskunasining yemirilishi

Ishlatish quduqlarini asoratlashgan sharoiti oltingugurtli gaz konlarini ishlash natijasi deb hisoblanadi, chunki gaz tarkibida yemiruvchi komponentlar mavjud bo’ladi (H^2S va SO^2). Bu komponentlar quduqni ishlash jarayonida quduq uskunasi bilan kimyoviy reaksiyaga kirishadilar va uskunaning u yoki bu yemirilish jadalligini yuzaga keltiradi. Yemirilish jadalligi yemiriluvchi komponentlarning konsentratsiyasiga, atrof-muhitning bosimi va haroratiga, quduq mahsuloti tarkibidagi namlik miqdoriga, uning mineralizatsiyasi, quduq va yer usti uskunasi metallarning tuzilishi va tasnifi; kondensat tarkibi; gaz oqimini tezligi; quduq uskunasining yemirilishiga qarshi himoya uskunasiga bog’liq. Yemirilish jadalligini aniqlovchi ko’rsatkichlar qatoriga yemiruvchi komponentlarning konsentratsiyasi muhitning bosimi va harorati, gaz oqimining tezligi, suv minerallashi, quduq uskunasining texnik tasnifi kiradi. Karbon kislotali yemirilish jadalligi karbonat angidrid gazining parsial bosimi va haroratiga bog’liq (parsial bosim va harorat oshsa, yemirilish tezligi ham o’z –

o'zidan ortadi). Ishlash jarayonida karbonat angidrid gazining parsial bosimi kamayadi, suvli kondensat hajmi esa ortadi. Shu sababli karbon kislotali yemirilish jadalligi pasayadi.

Quduq uskunasining yemirish jadalligini yuzaga keltiruvchi, yuqori yemiruvchanlikga ega bo'lgan komponent – oltingugurtdir. Oltingugurtli yemirilishning tasnifiy holati bu – yorilish, darz ketishdan iborat. Oltingugurt metall bilan o'zaro ta'sirida namlikning mavjudligi, temir sulfidini va atomar vodorodni hosil qiladi, bu esa molekulalarga birikmasidan metall ichiga kiradi va uni bo'sh hamda mo'rt bo'lishiga olib keladi.

Karbon kislotali yemirilishdagi kabi, yemirish jadalligini asosiy ko'rsatkichi gaz tarkibidagi oltingugurtning parsial bosimi hisoblanadi. Haroratning oshishi bilan oltingugurtli yemirilishning tezligi ortadi. Yemirilish jadalligiga oltingugurtning ta'siri, karbonat angidrid gaziga nisbatan ko'proq. Metall yemirilishning asosiy sharoitlaridan biri – qazib olinayotgan mahsulotda namlik mavjudligidan iborat.

1.4. Quduqlardagi asoratlar bilan kurashish maqsadida bajariladigan yer osti ta'miri ishlari

Qatlamni va quduqlarni muddatdan oldin suvlanishining oldini olish uchun, ishslash jarayonida qo'yidagi boshqarish usullari qo'llaniladi. Quduqlar ishining texnologik tizimlarini optimallashtirish bilan suvlarning til va konus hosil qilishini kamaytirishga erishiladi, ko'p qatlamli konning yuqori o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan qatlamlaridagi suvning ildamlanish harakatini bartaraf etish uchun esa bir vaqtda – ajratib ishlatish usuli qo'llaniladi.

Neftni suv bilan siqib chiqarish sharoitida neft konlarini ishslashda qatlamdan qatlamdan olinayotgan suyuqlikning 98% suvlanishiga qadar kuzatiladi. Shuning uchun suv yo'lini berkitishdagi ta'mirlov ishlarini amalga oshirish faqatgina quduq muddatidan oldin suvlanish paytida maqsadga muvofiq. Ajratish – ta'mirlash ishlarining asosiy maqsadli loyihamiy neft bera

olvchanlik koeffitsiyentiga erishish uchun qatlamni ishlatalishni optimal sharoitini yaratishdan iborat.

Quduqlarning suvlanish yo'llarini ochiq – oydin tasavvur etish bilan ajratish ishlarining maqsadini, tanlangan usulni va uni amalgalash mumkin. Suvning kirib kelish yo'llarini o'rganishda kon geofizikasi tadqiqot usullari qo'llaniladi:

Mustahkamlanmagan quduqlarda esa radiaktiv indikator haydash usuli, termometriya, impulsli neytron – neytronli karotaj (INNK), azot va boshqa usullar qo'llaniladi.

Biroq bu usullar har doim ham ishonchli emas. Shuning uchun suv oqimi yo'lini ajratish bilan bog'liq masalalarni ajratish ishlarini natijalariga asoslangan holda sinalgan yo'l bilan hal etish kerak.

1.4.1. Qatlam suvlaridan muhofaza qilish – izolyatsiya ishlari

Barcha ajratish – ta'mirlash ishlarini maqsadga muvofiq holda uch ko'rinishda bajarish mmukin : mustahkamlovchi quvurlar birikmasini va sement halqasini nogermetikligini bartaraf etish; alohida qatlamlarni o'chirish; qatlamning alohida suvlangan oraliqlarini, qalinlik bo'yicha joylashish o'rni va suvlanish tavsifidan qat'iy nazar uchirish, shu bilan birga quduqlarda suv haydash hamda kesmasini boshqarish.

G'ovaklar, yoriqlar, g'ovaklar va boshqa turli o'lchamdag'i kanallar suv oqimining yo'llari bo'lishi mumkin. Oqimni ajratish usulini va suv qabul qilish kesmini boshqarishni texnologik nuqtai nazardan ajratuvchi materiallarning dispersiyalanish boschiqiga qarab qo'yidagi guruahlarga bo'lanadi:

- 1). Tamponlovchi eritmani qatlam g'ovaklariga sizilishi;
- 2). Ingichka – dispergatsiyali tamponlovchi materiallar suspenziyasi;
- 3). Donalangan tamponlovchi materiallar suspenziyasi;
- 4). Mexanik moslanmalar va qurilmalar.

Zarralarning g'ovaklarga kirishi g'ovak (d,) va zarralarning (d,) o'lchamlariga bog'liq. Agar d,>10d bo'lsa, bunda sochilgan (dispersiyali)

zarralar g'ovak kanallari bo'ylab erkin harakatlanadi. d,<3d da o'tish bo'lmaydi; 3< d,/ d,<10 bo'lganda d,/5d, ko'proq yuz beradigan suyuqliklar sizilishidagi kolmatatsiasi sodir bo'ladi. Agar yoriqning kengligi d zarra diametridan ikki barobar ortiq bo'lsa d >2d dan, zarralar yoriqlar bo'yicha erkin harakatlanadi deb hisoblanadi. Bundan ko'rinish turibdiki g'ovaklar uchun $3 >d/d>10$ yoriqlar uchun $1 < d/ d <2$ bo'lgan ingichka dispersli materiallar kiradi. Hozirgi vaqtida ko'pgina turli xil tamponlovchi materiallar taklif etilgan. Tamponlovchi to'siqlarni yaratish mexanizmini fizik hodisalar va kimyoviy reaksiyalarga asoslangan. Tamponlovchi materiallarini turli xil mumlar (SD-9, S-10) polimer eritmalar (gipan, SFM, metas, tampakril va hokazolar), organik birikmalar (qovushqoq gazsizlantirilgan neft; karbonsuvli erituvchilar, mazut, bitum va parafinga to'yintirilgan; neft empulsiyalari, neft oltingugurt kislotalari aralashmalari va hokazolar), kremniyli birikmalar (selikagel) va boshqa noorganik jismlar (natriy silikati, kalsiyangan soda va boshqalar) asosida yaratish mumkin.

Zarrali eritmalarни сочилish muhitni bo'lib, suvlar yoki karbon suvchillar asosidagi suyuqliklar va shular qatorida g'ovaklarda siziluvchi tamponlovchi materiallar ham xizmat qiladi. Dispersion faza sifatida sement, gil, parafin, yuqori oksidlangan mum, rubraksa, yong'oq po'chog'i poliolefinlar (polimerlar), magniy, yog'och qipig'i, teri, asbest, so'ndirilgan ohak, qum, graviy, burg'ilovchi eritmaning og'irlagichlari, rezina va neylon sharchalarni qo'llash taklif etiladi.

Mexanik moslamalar va uskunalarga quvurlar, xvostovik yoki kichik diametrli qo'shimcha quvurlar birikmasini misol qilish mumkin.

G'ovak muhitni jipslab berkitish mexanizmi bo'yicha bu usullar saralangan va saralanmagan usullarga bo'linadi. Saralab ajratish usuli ikki guruhga ajratiladi:

1). Suvda erimaydigan va neftda eriydigan, materialarning g'ovak bo'shlig'ini jipslab berkitishni hosil qiluvchi saralangan ajatuvchi rayegentlar;

2). Qatlam neftiga ta'sir etmaydigan va qatlam suvi bilan aralashganda materiallar g'ovak bo'shlig'ini jipslab berkitishni hosil qiluvchi saralangan ta'sirdagi ajratuvchi reagentlar.

Bir yoki bir necha ta'mirlov – ajratish ishlarini bajarganda, har bir ajratish usuli o'zining samarali qo'llash doirasiga ega. Uni mahsuldor qatlam yoki suvlantiruvchi qatlamning geologik – fizik xususiyatlariga, quduq konstruksiyasiga, gidrodinamik sharoitlarga, berilgan kondagi ta'mirlovchi ajratish ishlarini o'tkazish tajribasiga, materillar va texnika bilan jihozlanganligiga bog'liq holda tanlanadi. Juda keng ko'lamda sement suspenziyasi va SD-9 mum tarkibi qo'llaniladi.

1.4.2. Yoriqli va yoriq g'ovakli qatlamlarga suv oqib kelishini cheklash

Bunday qatlamlarni ishlatishda quduqlarning muddatdan oldin suvlanishi, yuqori o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan yoriqlarning suv yorib o'tishi bilan bog'liq. Hajmiy bog'liqliknini hosil qilmaydigan va siljishning past gradiyentiga ega bo'lgan, ya'ni quduqni ishlatish davomida yoriqlardan chiqarib tashlanadigan materialarni qo'llash bilan bog'liq ishlar kam samarali deb topiladi. Sementli va ko'pik sementli suspenzayalarni, SFM asosidagi qovushqoqli tarang tarkiblarni qo'llash ko'proq samarali deb hisoblanadi.

Donador tamponlovchi materialarni qo'llash yuqori samaraga ega. Ivanovo-Frankovsk neft va gaz institutida donadorlangan magniyni (0,5-1,06 mm) qo'lash bilan suv oqimini chegaralash texnologiyasi ishlab chiqilgan, magniy va uning oksidini qatlam suvi va xlorlashgan magniyning o'zaro ta'siri natijasida, magniy gidrooksidining cho'kindisi va magnezial sement hosil bo'lishiga asoslanadi. Magniyning qum bilan aralashmasida magniy massa miqdori 20% ni tashkil qilishi maqsadga muvofiq, bo'ladi. Qatlamni gidravlik yorish sxemasi bo'yicha qatlamda mavjud yoriqlar kengaytiriladi, magniy-qumli aralashma bilan to'ldiriladi va ajratish tuzilmasi hosil bo'lishi uchun quduq 48-60 soat berkitiladi. Neftga to'yingan oraliqlarga tushgan donalarni eritish va oqimni jadallashtirish uchun kislotali ishlov berish o'tkaziladi.

Quduqqa begona suvlarning kirib kelishi sabablari

Neft konlarida quduqlarni ishlatishda begona suvlar quduqni uzlashtirish davrida, burg'ilash ishlari tugallangandan keyin hamdaquduqni ishlatishni uzoq vaqt davrlarida kirib kelishi mumkin.

Begona suvlarning quduqqa kirib kelishi hamma vaqt ham ishlatishdan to'xtatishga olib kelgan. Begona suvlarning kirib kelishini asosiy sabablari quyidagilar: burg'ilash jarayonida ishlatish tizmalarini sifatsiz sementlanishi natijasida suv va neftlilik gorizontlari to'liq ajratilmaydi; quvur orasida sement xalqasining buzilishi va ishlatish tizmasining tubidagi sement stakanini buzilishi; xuddi shu gorizontdagi qo'shni quduqni ishlatish natijasida, metallni nuqsoni tufayli, qatlam suvlari ta'sirida (yoriqlar), tizmani o'zlashtirish davrida, kapital va quduq yer ostini ta'mirlash davrlarida suv paydo bo'lishi kuzatiladi.

Quduqlarni kapital ta'mirlash davrida suvlarning kirib kelishini oldini olish uchun quyidagi bekitish ishlari amalga oshiriladi: yuqori, pastki, quduq tubi va qatlam.

Yuqoridan keladigan suvlarning yo'lini bekitish. Bekitish ishlaridan keyin yuqoridan keladigan suvlarni, ya'ni ishlatish tizmasining nuqsonli joylari orqali keladigan suvlarni quyidagi usullarda bekitish mumkin:

- a) suvli asosli aralashmali tizmaning nuqsonli joyi orqali bosim ostida haydash va keyin sement stakanini burg'ilab olish;
- b) nosement aralashmasini quyish va keyin ortiqcha eritmani yuvib olish;
- v) qo'shimcha himoyalovchi tizmani tushirish va keyin sementlash;
- g) maxsus pakerlar tushirish.

Quvur orqasi fazasidan filtr teshiklari orqali keladigan yuqoridan keladigan suvlarni bekitish.

- a) filtr teshiklari orqali sement aralashmasini quyish keyin sement stakanini burg'ilab olish yoki ortiqcha sement eritmasini yuvib tashlash;
- b) filtr teshiklari orqali sement eritmasini quyish, keyinortiqchasini yuvib tashlash.

Yuqori suvlarni oqimini joyi va harakat yo'li tizmaning nuqson joyi orqali quduqqal kirib kelishi rezistivimetrik, manometr, elektro harorat o'lchagich hamda fotoelektron va gidro akustik usullar yordamida aniqlanadi.

Ishlatish qatlaming quduqdagi filtriga sement aralashmasining tushishini oldini olish uchun quduqda qum shibbalanadi, agarada kerak bo'lsa to'kma tiqin ustidan sement stakani qo'yiladi.

Kirib keladigan suvlarni yo'lini yopish uchun nuqson joyi orqali bosim ostida (haydovchi quvur yoki quvurorqali) sement haydaladi.

Suv asosli sement eritmasini tizmadagi harakat yo'lini kuzatish uchun unga radiaktiv izotoplar qo'shib haydaladi. Qotish muddati bo'lgandan so'ng quduq germetiklikka yuqori bosim ostida sinaladi. Undan keyin tizmadagi sement stakani burg'ilanadi, nuqsondan pastda yotgan qumli tiqin yuviladi, nuqsonli joyi esa germetiklikka yuqori bosim ostida yoki sathni pasaytirish yo'li bilan sinaladi va quduq yuviladi.

Agarda tizmada bir nechta nuqsonlar mavjud bo'lsa, ta'mirlash ishlari quyidagi tartibda o'tkaziladi: birinchidan yuqoridagi nuqsonli joy bartaraf qilinadi, undan keyin esa pastda joylashgan joy tuzatiladi.

Quduq tubiga quvur orqasidan kirib keladigan yuqori suvlarni bekitish uchun tizma filtr teshiklari orqali sementlanadi. Suvli-sementli eritma qo'llanilganda ishlatish obyektining quduq tubi zonasining ifloslanish ehtimolligi yuqori bo'ladi, past qatlam bosimi mavjudligi bilan harakterlanadi. Bunda neftli sement aralashmasi qo'llaniladi.

Yuqoridan keladigan suvlarni ishonchli bekitish ishlarini amalga oshirish uchun bosim bilan sement haydaladi va quduq tubidagi sement stakanini esa burg'ilab olinadi.

Tub suvlarning kirib kelishini bekitish. Sement stakani orqali kirib keladigan suvlarni bekitishda tubdagi suvlar quduqlarni ishlatish devoridagi sementning stakani orqali yoki sifatsiz sementlanganligi sababli kirib kelishi mumkin.

Yangi sement stakanini yaratish uchun buzilgan stakanni yuvish yoki mustahkam qatlamchani burg'ilab olish kerak.

Uncha chuqur bo'limgan quduqlarda sement aralashmasini ishlatish obyektlariga tushmasligi uchun "sifon" usulidan yoki tarnovlardan foydalanish, chuqur quduqlarda esa qo'yuvchi aregatlardan (bosimsiz) foydalaniladi.

Tubdagagi suvlar quduq tubi (zumpf) va ishlatish obyektlari orqali ham kirib keladi.

Bunday holatlarda nuqson ustidan 3-5 m balandlikda stakan o'rnatiladi.

Tub suvlarni bekitish texnologiyasi pastki suvlarni bekitish texnologiyasi kabitdir. Tamponaj neft sement aralashmasi bilan amalga oshiriladi. Bunda tub suvlari qum holatlarda quduqqa yoriqlar yoki qatlam kanallari, g'ovakliklar orqali kirib keladi.

Ko'p holatlarda suv-neft oraliqlari orqali teshik teshish va u orqali bosim bilan sement aralashmasini haydash kerak. Tub suvlarni yo'lini bekitish uchun sementlash oldidan qatlamda bosim ostida gidravlik yorish amalga oshiriladi.

Quvur orqa fazasi orqali kirib keladigan suvlarni bekitish. Bunda ham filtrning nuqsonlari orqali kirib keladigan suvlarning yo'li, yuqoridan kirib keladigan suvlar kabi aniqlanadi.

Mahsuldor qatlamni sementlash xavfi bo'lmasa, nuqsonlar orqali bosim ostida sement haydaladi.

Boshqa holatlarda ham sementsiz aralashmalar haydaladi.

Yondosh ishlatish quduqlari orqali kirib keladigan suvlarni bekitish.

Eski ishlatiladigan quduqlar orqali qatamlar orqali bir quduqdan ikkinchi quduqqa suvlarni kirib kelishi sodir bo'ladi. Odatda bunday holat quduqlar bir-biriga yaqin joylashganda, ko'p muddat davomida katta qiymatda suyuqliklar olinganda sodir bo'ladi.

Bunda suv qatlam yoriqlari, tektonik buzilishlar orqali harakatlanadi va quduqlarni biror suv bosgan bo'ladi.

Hozirgi paytda bunday quduqlar Toshli, G'arbiy Toshli, Sharqiyl Toshli, Ko'kdumaloq va hakozo ko'pgina konlarda uchramoqda. Suv yo'lini to'sish

uchun suvlantiruvchi quduqning filtr teshiklari yordamida suv yoki neft sement eritmasi yordamida bosim bilan sementlanadi.

Sementlash davrida, ulashish va qotish davrlarida qo'shni quduqda qarshi bosim hosil qilish kerak. Quduqning ichidan hamma yer osti jihozlari chiqariladi, chunki sementlash jarayonida sementlar oqim yo'llari orqali kirib borishi mumkin.

Sementlashdan keyin sement stakani burg'ilab olinadi va ishlatish obyekti filtri ochiladi.

1.4.3. Quduqqa qum kelishi oldini olish

Mahsulot miqdorini ma'lum bir ruxsat etilgan darajagacha pasaytirish bilan jinslarning buzilishini cheklash mumkin. Biroq tog' jinslari kuchsiz sementlangan sharoitdagi quduqlarni bunday rejimlarda ishlatish ko'p hollarida iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'ladi. Shuning uchun har xil quduq tubi sizgichlari qo'llaniladi yoki quduq tubi zonasida jinslarni qotirish amalga oshiriladi.

Tayyorlanish konstruksiyasi va texnologiyasiga ko'ra quvurli va shag'alli sizgichlar mavjud. Quvrli sizgichlarni quduqqa mustahkamlovchi quvurda yoki nasos-kompressor quvurlari yordamida mustahkamlovchi quvurlar birikmasi ichiga tushiriladi. Ularni oddiy (quvurda teshiklar 1,5-20 mm yoki tarqishlar 0,4-0,5 mm li o'lchamda), murakkab (simni o'rashdan hosil qilingan), metallokeramik presslangan kukunni vodorodli muhitda 1200°C da qizdirib biriktirishdan hosil qilingan turlarga ajratish mumkin.

Shag'alli sizgichlar yer yuzasida (shag'al fraksiyasining diametri 4-6 mm, ikkita perforatsiyalangan quvurlar orasidagi oraliq 20-25 mm) va quduq ichida (perforatsiyalangan quvur devori ortidagi zarralar qavati yuvilmasa) tayyorlanishi mumkin. Quduq tubi zonasining jinslarini mustahkamlash zarralarini o'zaro har xil jismlar bilan bog'lashdan iborat. Bunda sementli eritma, sement – qumli aralashmalarning eritmasi, fenolformaldegidli mum va hokazolar ishlatiladi. Usulning mazmuni, vazifasi jismlarni nasos-kompressor quvurlari orqali quduq tubi zonasiga haydashdan iborat. Qatlam qalinligi va

quduqning yutilish qobiliyatidan iborat. Qatlam qalinligi va quduqning yutilish qobiliyatiga bog'liq holda, haydash jarayoni bir yoki bir necha marta o'tkaziladi. Eritma tog' jinsidagi bo'shliqlarni to'ldiradi va qotishib qum zarralarini mustahkam holda bog'laydi biroq bunda o'tkazuvchanlik kamayadi. Mumning qotiruvchi sifatida 15-20% xlorid kislota eritmasi qo'llaniladi. Saxalin NIPI neft instituti xodimlarining taklifiga ko'ra mumga qo'shimcha qilib donador magniy qo'shiladi, u xlorid kislotali eritmaning bir qism bilan o'zaro reaksiyasi natijasida ajralib chiqaruvchi vodorod g'ovaklar hosil qilib, tubi zonasini o'tkazuvchanigini oshirishga yordam berish.

1.4.4. Tuz yotqiziqlari bilan kurashish

Tuz yotqiziqlari bilan kurashishning hamma usulini ikki guruhga bo'lish mumkin; tuz cho'kib qolishini bartaraf etish usuli va tuz yotqiziqlarini olib tashlash usuli.

Tuzlarni quduqlarda cho'kib qolishini bartaraf etishda ko'proq qabul qilingan usul kimyoviy reagentlarni qo'llash usulidir. Bu reagentlar qazib oluvchi quduqlarning quvur orti bo'shlig'iga va qatlamga bosim ostida davriy haydaladi. Ko'proq samarali deb polifosfatlar, organik fosfatlar, sulfokislota tuzlari, aril sulfonatlar, natriy tripolifosfati va ammofos samarali reagentlar hisoblanadi. SFM-13, DPF-1, inkredol-1, fosfonol, SNPX-5301 asosidagi ingibratorlarning 20 gr/m^3 miqdori tuz yotqiziqlarini to'liq bartaraf etiladi.

Tuz yotqiziqlari kimyoviy reagentlar yordamida olib tashlanadi yoki burg'i bilan burg'ilanadi.

Olib tashlashning kimyoviy usulida, gips cho'kindisini suvda eruvchi natriy (kaliy) sulfat tuziga yoki karbonat cho'kindisini kalsiy gidrooksidiaga aylantiriladi, bularni xlorid kislotali eritma yordamida eritib suv bilan yuviladi. O'zgartiruvchi regayegentlar sifatida natriy yoki kaliy karbonati va bikarbonati, shuningdek ishqorli materiallarning gidrooksidi samarali qo'llaniladi. Reagent yotqiziqlar oralig'iga kiritiladi va bosim ostida davriy haydaladi yoki uzilmas sirkulasiyasi amalga oshiriladi.

Xulosa

1-bobda neft va gaz quduqlarida yuzaga keladigan asosiy asoratlar turiga kiruvchi, muddatdan oldin suvlanishning sabablari, quduqlarda qum tiqinlarining hosil bo'lishi, quduq tubi zonasida va nasos-kompressor quvurlari devorlarida parafin yig'ilishi, quduqlarni ishlatishda tuz yotqiziqlari hosil bo'lishi, gaz va gazkondensat quduqlarini ishlatishda yuzaga keladigan asosiy asoratlar, quvurlar birikmasi aro gaz o'tishi, qatlam osti va kontur tashqi suvlari bilan mahsulotning suvlanishi, quduq tubida tomchi suyuqliklarning paydo bo'lishi, mahsulot tarkibidagi oltingugurt va boshqa aggressiv komponentlar ta'sirida quduq uskunasining yemirilishi, quduqlardagi asoratlar bilan kurashish maqsadida bajariladigan yer osti ta'miri ishlari, to'g'risida umumiylar berilgan. Ushbu bobdag'i qisqa yoritilgan kapital va er osti ta'mir ishlari keyingi boblarda batafsil berilgan.

Nazorat savollari

1. Muddatdan oldin suvlanishning sabablarini aytib bering?
2. Quduqlarda qum tiqinlarining hosil bo'lishi nima?
3. Quduq tubi zonasida va nasos-kompressor quvurlari devorlarida parafin yig'ilishi?
4. Quduqlarni ishlatishda tuz yotqiziqlari hosil bo'lishi aytib bering?
5. Quvurlar birikmasi aro gaz o'tishi aytib bering?
6. Qatlam osti va kontur tashqi suvlari bilan mahsulotning suvlanishi aytib bering?
7. Quduq tubida tomchi suyuqliklarning paydo bo'lishi aytib bering?
8. Mahsulot tarkibidagi oltingugurt va boshqa aggressiv komponentlar ta'sirida quduq uskunasining yemirilishi aytib bering?

II-BOB. QUDUQLARNI KAPITAL VA YER OSTI TA'MIRLASHDA ISHLATILADIGAN ASBOB USKUNALAR

2.1. Statsionar minorali quduqlarda yer osti ta'miri uskunalari

Quduqlarni yer osti ta'miri – neft va gaz qazib olishning eng qiyin jarayoni hisoblanadi.

Neft konlari va quduqlarini ishlatishning zamonaviy texnika va texnologiyasining asosiy vazifasi – ulardagi ta'mirlashlar oraliq vaqtini uzaytirishni ta'minlashdan iborat.

Yer osti ta'miri maxsus guruh tomonidan ochiq havoda istalgan vaqt va faslda amalga oshiriladi, odatda u og'ir iqlim va ob-havo sharoitiga to'g'ri keladi. Asosiy neft qazib olinuvchi regionlar geografiyasining o'zgarishi (janubdan shimolga ko'chganda) bu ishlarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Bir yilda bajariluvchi yer osti ta'mirlash ishlarining 90% dan ortiqrog'i shtangali chuqurlik nasosi quduqlarida amalga oshirilsa, 5% dan kamrog'i elektr nasoslari bilan jihozlangan quduqlarga to'g'ri keladi.

Bu quduqni ishlatishga bog'liq ravishda tanlangan qurilma va mexanizmlarga bog'liqligini aks ettiradi.


Yer osti ta'mirida qo'yidagi ishlar amalga oshiriladi:

- 1). Transport;
- 2). Tayyorlov;
- 3). Ko'tarib tushirish ishlari – bunda quduqdan nasos qurilmalari (quvur, shtanga, chuqurlik nasoslari, kabellar va hokazo.) ko'tarib olinadi va yangi yoki ta'minlangan qurilmalar tushiriladi;
- 4). Quduqni tozalash, qurilmalarni almashtirish, mayda avariyalarni bartaraf qilish kabi ishlar bajariladi;
- 5). Transportirovka qilishga qurilmalarni tayyorlash uchun ko'tarib-tushirish yoki boshqa ishlar bo'yicha o'tkaziladigan so'nggi yakunlovchi ishlar amalga oshiriladi.

Quduqni yer ostida ta'mirlashda amalga oshiriladigan ishlar ko'tarish va transport bazalaridan tashkil topgan turli qurilmalar majmuasi, qo'lida

bajariladigan ishlar uchun kerakli bo'lgan asboblar, turli mexanizatsiyalar, quduqni tozalash bo'yicha jihozlar va hokazolardan foydalaniladi. Ko'taruvchi qurilmalar minora (machta), tal tizimli lebyodka majmualaridan tashkil topgan. Ko'pincha bunga yana yer yuzasida joylashtirish uchun quvur va shtangalar uchun stellajlar ham kiradi. Yangi hududlarda neft qazib chiqarishda quduqlar "minorasiz" ishlatiladi, bu bilan metall va qurilmalarni sarfini kamaytirishga erishiladi. Qurilmalarni ko'tarish va tushirish harakatlanuvchi minora va stellaj, traktor lebyodkalari yoki bo'lmasa, agregatlar yordamida, ya'ni o'zi yurar gusenitsali yoki g'ildirakli transport mashinalari yordamida amalga oshiriladi. Quvur, shtanga, ESN kabelini ko'tarish-tushirishda qator ishlarni amalga oshirish uchun maxsus jihoz va mexanizmlar qo'llaniladi.

Ko'tarilayotgan quvur kolonnalari va shtangalar og'irliliklarining katta ekanligi og'ir yuklarni ko'taruvchi (50-100t) ko'tarish qurilmalaridan foydalanishni talab qiladi. Bu quduqni yer ostida ta'mirlashda qo'llaniladigan qurilmalarning og'irligini bildiradi, shuning uchun ham uni transporti, montaj va qayta ishlar murakkab va katta mehnat talab qiladi. Yer ostida ta'mirlashda qurilma konstruktorlarining asosiy e'tiborlari ko'tarib-tushirish ishlarni tezlashtirib yer ostida ta'mirlashni tezlashtirishga qaratilgan. Bu ishlarning tez bajarilishini "asosiy" ishni tezlashtirish orqali quduqdan quvur kolonna va shtangalarni ko'taribgina erishish mumkin. Buning uchun ko'targichlar kuchi uzluksiz oshirib boriladi, tarsmissiya tavsifi, lebyodka yaxshilanadi va hakozo. Bir vaqtning o'zida minora balandligi ham oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qurilmalarni transport qilish, ularni montajga layoqoti kabi masalalarga esa unchalik katta ahamiyat qaratilmaydi. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, qurilmalarni ko'tarib-tushirish ishlarida transport, montaj va qayta montaj ishlari vaqtining qisqarishi va og'ir mehnatni kamaytirishga alohida guruh ishlari emas, balki yer ostida ta'mirlashning butun sikli uchun ketgan vaqtida o'z aksini topgan. Yer osti ta'mirlashning vaqt balansi grafiklarda tavsiflanadi (II.1-rasm).



2.1-rasm. Yer osti ta'mirlash sikli uchun sarf qilinadigan nisbiy vaqt

T_1, T_2, T_3 -mos holda ayrim konlar bo'yicha jarayonning siklik davri; t'_1, t''_1, t'''_1 - transport ishlari uchun ketgan vaqt; t'_2, t''_2, t'''_2 - tayyorlov ishlari uchun ketgan vaqt; t'_3, t''_3, t'''_3 - quvurlarni ko'tarib-tushirish uchun ketgan vaqt; t'_4, t''_4, t'''_4 - shtangani ko'tarib-tushirish uchun ketgan vaqt; t'_5, t''_5, t'''_5 - yakunlovchi ishlari uchun ketgan vaqt.


Bu grafiklarda yer osti ta'mirlanayotgan hududga bog'liq ravishda har bir sanab o'tilgan guruh ishlari uchun ketgan nisbiy vaqt sarflari keltirilgan. Bundan ko'rish mumkinki, ko'tarib-tushirish ishlari uchun barcha hududlarda taxminan bir xil vaqt sarflangan. Tayyorlov ishlari uchun janubiy hududda eng kam vaqt sarflangan; muqobil ravishda transport ishlari uchun ketgan vaqt taqsimlanadi : shimoliy hudud uchun yangi qurilmaga nisbatan qurilmani qayta yig'ish uchun ketgan vaqt eng yuqori. Grafikdan ko'rinish turibdiki, asosiy neft qazib chiqaruvchi hududlarda transport ishlari uchun ketgan vaqt umumiy ketgan vaqtning 50% ni tashkil qilsa, tayyorlov ishlari uchun ketgan vaqt esa 20-30% ni tashkil etadi. Bundan ko'rish mumkinki bu hududlar, ayniqla markazdan ancha uzoqda joylashgan hududlarda ko'tarib-tushirish qurilmalarini transport qilish imkoniyati butun transport ishlari va qurilmalarni montaj qilishga ketadigan vaqtiga bog'liq ekan. Xuddi shu ishlarni tezlashtirish va og'ir mehnatni kamaytirishini ta'minlash bu qilinayotgan ishlarning asosini tashkil etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'targichlar quvvatini yanada oshirish nafaqat yer ostida ta'mirlash uchun ketadigan vaqtini, balki quduqda ko'tarib-tushirish ishlari uchun ketadigan vaqtini ham kamaytira olmas ekan. Tekshirishlar shuni

ko'rsatadiki, keng tarqalgan quduqdagi cho'kma nasos ishlatilganda (chuqurlikligi 1000-1500 m gacha) quvur kolonnalarini ko'tarishga ketgan vaqtga (T_1)nisbati (ya'ni, kuch va ko'targich tavsifi vaqt) butun ishga ketgan vaqtda (T_v) 0,15-0,18 dan oshmaydi (II.2-rasm).

Bundan ko'rinish turibdiki, ko'tarish quvvatini oshirgan bilan yer osti ta'mirlash ishlari uchun ketgan vaqt aytarli darajada kamaymaydi. Ko'tarib-tushirish ishlarini tezlashtirish quvur kolonnasi shtangalarini ko'tarib-tushirish ishlarni, birinchi navbatda bo'shatish va qotirish ishlarini oshirishda ekanligi ko'rsatilgan.

Quvurlar birikmasining uzunligi




2.2-rasm. $\eta = \frac{T_t}{T_v}$ bog'liqlik grafigi

T_t -quvur birikmasining ko'tarish uchun ketgan vaqt; T_v - quvur birikmalarini ko'tarib-tushirishning boshqa ishlari uchun ketgan vaqt. Bu jarayon amaliy jihatdan isbotlangan. Misol sifatida 3-rasmida diametri 73 mm bo'lgan quvurlarni tushirish uchun ketgan vaqt ko'rsatilgan.

Grafikdan ko'rinish turibdiki, bo'shatish operatsiyasini mexanizatsiyalashtirish 20-30% hisobiga tezlashtirish mumkin, bu ko'tarib – tushirish ishlarini bajarish uchun qilinadigan ishlardan, masalan ko'tarish quvvatini oshirishga nisbatan ancha samaralidir.

Svecha uzunligi oshirish esa ko'tarib – tushirish ishlari tezligini tezda so'ndiradi, qo'l mexanizatsiyasi darajasini oshirish esa unga juda kam vaqt ketishini ta'minlaydi.



2.3-rasm. $T_{ps} = f(n)$ bog'liqlik grafigi

T_{ps} - quvurni ko'tarish va tushirish ishalriga ketgan vaqt; f - svechadagi quvurlar soni (svecha uzunligi va minora balandligini ko'rsatadi); n - ishlarni bajarishning mexanizatsiyalanganlik darajasi va ulrani vaqt bo'yicha bajarilish darajasini tavsflovchi koeffitsiyent. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, ko'targich quvvatini, transmissiya va lebyodkalarni murakkablashtirish, ayniqsa minora balandiligini oshirish ko'tarib-tushirish ishlarini murakkablashtirish bilan birga ularga vaqtini oshishiga saba bo'ladi. Ko'tarib-tushirish qurilmalarning o'ta og'irligi vaqtning ko'p miqdorda sarflanishiga olib keladi. Bu ayniqsa ishlab chiqarish kuchiga salbiy ta'sir qiladi.

Bu tekshirishlar quduqlarni yer ostida ta'mirlashda yangi yo'naliishlarni ishlab chiqarishga turtki bo'ldi. Bu yo'naliish ish kuchini oshishi, ish sharoitini yengillashishiga va yaxshilanishiga olib keldi. Yangi yo'naliishlarning asosiy xususiyatlari qo'yidagicha :

- 1). Ko'tarib-tushirish ishlarining tezlashishi va yengillashishi ko'targich quvvati va minora balandligini oshishi hisobiga emas, balki qo'l ishalrini

mexanizatsiyalashtirish va avtomatzatsiyalashtirish, ayniqsa quvur, shtangalarini bo'shatib-qotirish, elevator bilan ishlash va boshqalar hisobiga bo'ladi.


2. Transport va montaj ishlarini yengillashtirish va osonlashtirish hisobiga yer osti ta'mirlash ishlarini oshirish.

3. Ko'targich og'irligini, minora balandligini, asbob va mexanizatsiya massalarini kamaytirish hisobiga ko'tarib-tushirish ishlari og'irligini kamaytirish.

Bu yo'naliш yangi agregatlar, qurilmalar, mexanizatsiya jihozlarini yaratilishiga asos bo'ldi.

2.1.2. Yer osti ta'miri uskunalari

Uzoq yillardan buyon neft-gaz qazib chiqaruvchi korxonalar satatsionar minora, machta hamda turli tipdagi va o'lchamdagи stellajlarga ega. II.4-rasmda balandligi 24 m va 75 t yuk ko'tarishga mo'ljallangan bashnya turiga kiruvchi VET 75-24 minorasining konstruksiyasi ko'rsatilgan. Bunday minora chuqur quduqlarda yer osti ta'mirini amalga oshirishga yordam beradi.



2.4-rasm. BET 75-24 minorasi

Ko'pincha MENS turidagi machtalardan chuqurligi kam bo'lgan quduqlarda yer osti ta'mirini o'tkazishda qo'llaniladi.


Ozarbayjondagi neft-gaz qazib chiqaruvchi korxonalar shu ikki turdagি minoralardan keng foydalanadilar.

Keltirilgan machta ko'rsatkichlari OTУ 26-02-217-70 normasiga to'g'ri keladi.

Bu turdagи minora va machtalar stellajdagи gorizontal (qisman qiya) quvur va shtangalarni ko'tarib-tushirish uchun mo'ljallangan bo'lib, turli hududlarda uning turli xillari qo'llaniladi. Quvur va shtangalarning gorizontal holatda joylashishi stellaj bilan ko'tarib-tushirishda ularning buqilishi, rezbalarining buzilishiga va ularning ifloslanishiga olib keladi. Shuning uchun ayrim hollarda ularni vertikal holda ushlab turish orqali jihozlanadi.

Konstrukturlar А.П.Мадера ва Г.П.Нуриджанов tomonidan yangi texnologiya bo'yicha MSPD turidagi qurilma taklif qilingan. Bunda quvur va shtangalar vertikal holatda joylashadi. Bunday texnologiya quvur va shtangalarni yaxshi saqlanishini ta'minlash va qo'l ishlarini yengillashtirish bilan birga ko'tarib-tushirish ishlarini tezlashtirish imkonini beradi.

II.5-rasmda Мадер-Нуриджанов texnologiyasi bo'yicha ko'tarib-tushirish ishlarini bajarishga mo'ljallangan magazin tizimiga ega bo'lgan minora keltirilgan.



2.5-rasm. Maderi va Nuridjanov tizimi bo'yicha MSPD jihozli minora

Statsionar minora yoki machta va stellaj bilan jihozlangan ishlatish quduqlarini (dengizdan tashqari, chuqur yoki qiyin sharoithi hududda joylashgan quduqlar) ularni ishlatish 0,03 dan oshmas ko'rsatkichlar bilan ishlashi sababli ularni oqilona deb bo'lmaydi. Shuning uchun keyingi yillarda quduqlarda ko'tarib-tushirish ishlari harakatlanuvchi machtalar yordamida amalga oshiriluvchi holatda bajarilmoqda.

Bunga muqobil ravishda quduqlarni statsionar stellajlar bilan jihozlash maqsadga muvofiq emas deb topildi. Turli hududlarda traktorlar bilan transportirovka qilinuvchi harakatlanuvchi machta va stellajar qo'llaniladi. Bularning zamonaviy turlari Tatneft korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan (PTM-T-40).

Statsionar minora va machtalar o'rnatilganda ko'tarib-tushirish ishlari o'zi yurar lebyodkalar yordamida amalga oshiriladi (2.1-jadval) va ularni ko'targichlar deb atashadi (2.6-rasm).

2.1-jadval

O'zi yurar lebyodkalar (ko'targichlar tavsifi)

Shifr	Transport bazasi	O'tkazuvchi dvigatel turi	Lebyodka barabani hajmi, m ¹	Lebyodka barabanning aylanish chastotasi ayl/min tezliklarda ishlaganda ²						Massa, kg
				I	II	III	IV	V	IV	
LT11-KM	T-100M gusenichni y traktor	Dizel	$\frac{2500}{15,5}$	$\frac{36}{6900}$	$\frac{56}{4300}$	$\frac{110}{2200}$	$\frac{180}{1400}$			15300
LT 2M-80	S-80 gusenichni y traktor	Dizel	$\frac{2300}{15,5}$	$\frac{25}{7400}$	$\frac{32}{5300}$	$\frac{70}{2700}$	$\frac{90}{2100}$	$\frac{120}{1500}$	$\frac{240}{7600}$	16500
Azin MAS N-43M	T-100MBS gusenichni y traktor	Dizel	$\frac{2200}{15,5}$	$\frac{55}{8500}$	$\frac{115}{4000}$	$\frac{480}{2000}$				18700


¹ mahrajda arqon diametric keltirilgan, mm

² mahrajda arqonning harakat oxiridagi kuch,kgs (1 kgs≈10H)

Seriiali chiqariluvchi traktorli AzinMASH-43P ko'targichining kinematik sxemasi (2.7-rasmlar) asosan LT-11KM ko'targichini takrorlaydi, faqatgina undan traktor modeli (T-100) va ba'zi konstruktiv elementlari bilan farqlanadi.



2.6-rasm. AzinMASH-43P traktorli ko'targichi



2.7-rasm. AzinMASH-43P ning kinematik sxemasi

AzinMASH-43 traktorli ko'targichlarning kamchiligi harakatlanish tezligining kichikligi va gusenitsali harakatlanish bo'lib, asphalt yo'lidan yurishga yo'l qo'ymaydi va bu uning harakat yo'nalishini oshishiga olib keladi.

Traktorli ko'targichlar tavsifi.

Keltirilgan traktorli ko'targichlarning asosiy elementlari A.S.Virnovskiy tadqiqotlariga asoslanadi. Bu tadqiqot natijalari asosida neft va gaz sohasidagi qo'llaniluvchi barcha ko'targichlarning ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Statsionar minora yoki machta va o'zi yurar lebyodkalar bilan jihozlanganda ko'tarib-tushirish ishlari tal tizimi yordamida amalga oshiriladi, u kranblok, tal bloki, ilgich va tal arqoni tashkil topgan. Uning tavsifi N689-53 normasiga to'g'ri keladi (2.2-jadval).

Tal tizimi uchun turli diametri organik serdechnikli chiziqli tutashuvchi yoki nuqta chiziqli turlari qo'llaniladi (2.3-jadval).

2.2-jadval

N689-53 norma bo'yicha tal tizimi elementlari tavsifi

Tal tizimi yuk ko'taruqchanligi, t	Tal tizimi Ostnastkasi	Shkiv diametri, mm	Tal arqoni diametri, mm	Kranblok		Tal bloki		Kryuk		Yuk ko'ta-ruvchanlik, t	Yo'rnaltiruv chi rolik shifri
				Shifr	Shkivlar soni	Shifr	Shkivlar soni	Shifr			
15	3x2	400-500	18,5	KBH 3-15	3	BTH 3-15	3	KH-15	15	POH-4	
25	4x3	450-600	18,5	KBH 4-25	4	BTH 3-25	3	KH-25	25	POH-8	
50	5x4	600-650	22,0	KBH 5-50	5	BTH 4-50	4	KH-50	50	POH-8	
75	5x4	650-700	25,0	KBH 5-75	5	BTH 4-75	4	KH-75	75	POH-12	
75*	5x4	800	25,0	-	5	-	-	-	-	-	-
80	5x4	1100	28,5	-	5	-	-	-	-	-	-

*Burg'ilash qurilmasining tal tizimi elementlari

2.3-jadval

Ishlatish minoralarining tavsifi

Turi va shifri	Yuk ko'tarishi, t	Balandligi, m	Asos o'lchamlari, m	Minora oyoqlari uchun quvur turi (diametri, mm)
Bashnyali trubkasimon, VET 22x50	50	22	6x6	NKT (114)
Bashnyali trubkasimon, VET 75-24	75	24	8x8	Burg'ulovchi (140)
Bashnyali trubkasimon, VM1-24	75	24	8x8	

2.4-jadval

Ishlatish machtalarining tavsifi

Shifr	Yuk ko'tarishi, t	Balandligi, m	Ko'tariluvchi quvur va shtangalarining ruxsat etilgan uzunliklari
MECH 15x15	15	15	Bitta quvurning maksimal uzunligi
MECH 17x25	25	17	-//-
MECH 22x25	25	22	Ikki quvurdan iborat svecha uzunligi
Izoh. Oyoqlar orasidagi masofa (pastda) – 4m.			

II.2. Quduqning kapital va yer osti ta'mirlash mashina-mexanizmlari

2.2.1. Quvurlarda ta'minrlash ishlarini olib borishning umumny tasniflari

Neft va gaz quduqlarini ishlatish jarayonida, quduqlarning o'zida hamda yer osti jihozlarida u yoki bu turdag'i nuqsonlar paydo bo'ladi.

Har bir harakatdagi quduqni **rejaviy, majburan yoki joriy ta'mirlash uchun to'xtatish mumkin**. Quduqlarni ishlamasdan to'xtab qolishi ham yer osti ta'mirlash ishlari yoki yer usti jihozlarini ta'mirlash, elektr energiyasini uzatish, siqilgan gaz va havoni uzatish bilan bog'liq holda to'xtatish ishlari bilan bog'liqdir.

Quduqlarni ishlatish koeffitsiyenti $0,95 \div 0,98$ chegarasida bo'ladi.

Quduqlarning yer osti ta'mirlashga kompleks ishlar kiradi, yer osti jihozlari, qisman yoki uni to'liq almashtirish, quduq tubini tozalash va ko'taruvchi quvurlarni qumdan, parafindan va boshqa yotqiziqlardan tozalash hamda geologik-texnik tadbirlarni amalga oshirish kiradi.

Asosiy ta'mirlash ishlariga kapital va joriy ta'mirlash ishlari kiradi.

2.2.2. Quduqlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan qurilmalar va mexanizmlar


Hamma turdag'i quduqlarni yer osti va kapital ta'mirlash ishlari quduqdan quvurlarni, shtangalarni va har xil turdag'i asbob yoki jihozlarni ko'tarish va tushirish jarayonlari bilan bog'liqdir. Buning uchun konlarda ko'taruvchi kuchma agregatlar keng qo'llaniladi, ya'ni minora va chig'iriqlar traktorga yoki hamma joylarda yura oladigan avtomobil larga o'rnatilgan bo'ladi - birorta transport bazasiga joylashtiriladi. So'nggi yillarda ko'targichlar har joyda yura oladigan avtomobil vositalariga (KRAZ) A-40, A-50 va boshqalarga o'rnatib chiqarilmoqda. Uzoq vaqt LT-NKM va AZIN MASH - 43P traktorlariga va yuk ko'tarish imkoniyati 16 dan 80 tonnagacha bo'lgan modifikatsiyadagi ko'targichlar qo'llanilgan.

Minora yoki machtalar odatdagи polispast yoki ilgakli tal tizimi bilan jihozlanadi, ularga maxsus moslamalar yordamida yuklar (quvurlar, shtangalar, nasos qurilmalari) osib quyiladi.

Tushirish va ko'tarish jarayonlari tal tizimi yordamida, ya'ni kranblok, tal blok, ilgak va tal arqonlari yordamida olib boriladi.

Tal tizimini jihozlash, ya'ni shkivlarning soni ko'tariladigan yuklarning massasidan (og'irligidan) kelib chiqib aniqlanadi.

1-chi sxema bo'yicha ko'tarishda, masalan Q -massali yukni ko'tarish uchun P -kuch kerak bo'ladi, nazariy jihatdan bu kuch Q yukni og'irlik kuchiga tengdir.



2.8-rasm.Tal tizimini jihozlash sxemasi.

Yuk ko'tariladigan barabanga o'raladigan arqonning uzunligi balandlik H_I -ga teng bo'ladi.

II-sxemada tal blokidagi bitta shkivdagi yuk ikkita arqonga teng taqsimlanadi $\left(\frac{1}{2}\right) Q$.

Arqonning qo'zg'almaydigan va yuradigan uchi ham bir xil yukka sinaladi. Bunday holatda yukni H balandlikka ko'tarish uchun barabanga $2H$ balandlik uzunlidagi arqon o'raladi va yukni ko'tarish uchun 2 marta ko'p vaqt talab qilinadi. Jihozlashni 2×1 sxemasiga nisbatan tal tizimin i 3×2 sxemada

jihozlashda ko'rsatkich ikki martaga, 4x3 jihozlashda - 4 marta oshadi.

III-sxema bo'yicha yukni ko'tarish bitta harakatlanuvchi shkiv yordamida olib boriladi, arqonning qo'zg'almas uchi minorani asosiga emas, harakatlanuvchi shkivning halqasiga mahkamlanadi, Q – yuk 3 ta kanatlarga osiladi, har bir arqonga $\frac{1}{3} Q$ kattaligidagi yuk teng taqsimlanadi, barabanga

o'raladigan arqonning uzunligi $3H$ ga teng bo'ladi.

Har qanday jihozlanishda harakatlanuvchi arqonning uchidagi tortishish kuchi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

- arqonning qo'zg'almas uchi ko'taruvchi inshootning asosiga mahkamlanganda:

$$P = \frac{Q}{2n \cdot \eta} \quad (2.1)$$

- arqonning qo'zg'almas uchi harakatlanuvchi shkivning xalqasiga mahkamlanganda:



$$P = \frac{Q}{(2n + 1) \eta} \quad (2.2)$$

bu yerda: Q -ilgakdagi yukni massasi;


n - harakatlanuvchi shkivlar soni;

η - tal tizimining FIK.


Polipastning qo'zg'almas roliklarining yig'ilgan joylari kran blok deb ataladi va minora yoki machtaning eng yuqori qismiga o'rnatiladi. Kranblokning hamma roliklari erkin bita valga o'tkazilgan va ramaga mahkamlangan.



2.9.-rasm.Yuk ko'tarishi 500 kN bo'lgan kranblok




Kranblokda tal tizimining yuk ko'tarish talabidan kelib chikib, 3 tadan 5 tagacha roliklar, bitta tugun bitta valga erkin o'tkazilgan bo'ladi, tal bloki deb ataladi. Tal bloki po'lat arqonga osiladi, navbatma-navbat kranblok va tal blokining roliklari orqali bo'shatiladi, teskari tartibda ko'tariladi. Arqonning qo'zg'almas uchi machtani (minorani) asosiga mahkamlanadi, qo'zg'aluvchi uchi esa chig'iriq barabaniga mahkamlanadi.



2.10.-rasm.Yuk ko'tarish 500 kN bo'lgan tal bloki

1- yuqori xalqa; 2- o'q; 3- arkon shkifi; 4- tebratma podshipnik; 5- pastki halqa; 6- bolt-sharnir.



Arqonning qo'zgaluvchan uchini chig'iriq barabaniga mahkamlashdan oldin, minoraning asosiga mahkamlangan tortuvchi rolik orqali o'tkaziladi. Bu minorani yoki machtani tushirish-ko'tarish jarayonlarida og'nab ketishga yo'l quymaslik maqsadida qilinadi. Ko'rinish turibdiki, tal bloki, ilgak va yuklar arqonning bir nechta torlariga osiladi. Kanat torlari 2 tadan 8 tagacha, bunda ishchi arqonning uchida va chig'iriqning ilgagidagi yuk 2-8 marta kichikdir. Qo'llaniladigan arqonlar po'lat simlardan tayyorlanadi, mustahkamlik chegarasi $140 \div 190$ kgs/mm², diametri $11 \div 28$ mm. Arqonning diametri ko'tariladigan yukning og'irligiga mos tanlanadi.

Yer osti ta'mirlash ishlarida tushirish jarayonlari uchun arqonning mustahkamligi 2,5 marta ortiq tanlanadi.

Chig'iriq barabani aylanganda arqon barabaniga o'raladi va quduqdan quvurni ko'tarish sodir bo'ladi. Tushirish ishlari quvur yoki shtangani og'irligi ta'sirida amalga oshiriladi.

Yengil og'irlikdagi asboblar bilan ishlashga to'g'ri kelgan sharoitda (qisqartirilgan NKQ-larni tizmasi, shtangalar, tarnovlar, manometrlar va hokazo)

arqon chig'iriq barabanidan bitta rolik orqali kranblokdan to'g'ridan-to'g'ri osilgan asbobga yoki ilgakka, ya'ni tal tizimi talni qo'llamasdan ishlaydi.


Sementlarni burg'ilashda yoki frezerlashda (maydalashda) asboblarni quduq ustidan aylantirish talab qilinsa, unga rotor o'rnatiladi. Ilgari asosan barqaror ishlatish minorasi, ellipelar va machtalar qo'llanilgan. Minora ishlanib bo'lган burg'ilash va nasos-kompressor quvurlaridan tayyorlanadi, balandligi 24 metrdan 28 metrgacha, yuk ko'tarish qobiliyati 50 tonnadan 75 tonnagacha bo'ladi. Minorani pastki asosi 8x8 m, yuqorida 2x2 m maydoncha kattaligida tayyorlanadi.

Balandligi 15 va 22 metrli machtani, yuk ko'tarish imkoniyati 15 va 25 tonnaga bo'ladi.

Machta quduqning ustida uncha katta bo'lмаган qiyalik burchagida o'rnatiladi va po'latli tortmalar bilan mahkamlanadi.

So'nggi yillarda faqat harakatlanuvchi aregatlar qo'llanilmoqda.

Quyidagi rasmida quduqlarda, yer osti ta'mirlash ishlarida qo'llaniladigan ko'chma aregat tasvirlangan.



2.11.-rasm.Quduqlarda yer osti ta'mirlashda qo'llaniladigan agregat

1- minorani tortgich; 2- qurilmada o'rnatilgan tortgich; 3- vintli domkrat; 4- buriladigan kran; 5- ilgakli tal bloki; 6- o'zgaruvchan qutili uzatma; 7- chig'iriq; 8- minorani ko'targichini boshqarish pasti; 9- gidravlik domkrat.

Quduqlarda yer osti ta'mirlash ishlarini amalga oshirishda qo'llaniladigan ko'chma aregatlarning yuk ko'tarishi 16 tonnadan 80 tonnagacha ishlab chiqariladi.

Rasmda yuk ko'tarishi 16-tonnalik aregatning ishchi holati tasvirlangan. Aregat avtomobilga montaj qilingan. Minora ikki tizmali, teleskopik, balandligi 16,5 metr. Bu aregat chuqurligi 1500 metr bo'lgan quduqlarni ta'mirlashda qo'llaniladi.

Minora chuqur quduqlarni ta'mirlash uchun katta yuk ko'tarish imkoniyatiga ega bo'lgan zanjirli faktorlarga va avtomobillarga o'rnatiladi, katta quvvatga va o'tishga mo'ljallangan agregatlar tayyorlanadi.

Quduqlarni burg'ilash jarayonida, sementlashda, ishchi suyuqliklarni haydash, quduqlarni kapital ta'mirlashda, sement ko'priklarini burg'ilashda, har xil geologik-texnik tadbirlarni amalga oshirishda hamda neft va gaz quduqlarini yuvish va haydash ishlarida sementlash nasoslari va haydovchi ko'chma aregatlar qo'llaniladi.

- Ko'chma aregatlarning jihozlarini joylashtirish uchun montaj qilish bazasi sifatida KRAZ, URAL, KAMAZ avtomobilarning shassesi qo'llaniladi, avtomobilning dvigateli, yuqori bosimli nasoslarning agregatini harakatga keltirishda foydalaniladi.

- SNS 38-154 markazdan qochma-nasos, uzatish - 10,5 dm³/sek, va bosimi 1,54 MPa.


- yuqori bosimli nasoslarning gidravlik qismini ishi qurilmasini past xaroratda ta'minlash uchun isitish qurilmasi bilan jihozlangan;

- quduqlarni sementlashda bir nechta agregatlarni bir vaqtda ish bilan ta'minlash uchun kollektorlar jamlangan va qabul tizimiga so'ruvchi shlanglarni qushish uchun diametri 50 mm-li uzatmalar o'rnatilgan.

2.2.3. Quvur elevatorlari va kalitlari


Yer osti va kapital ta'mirlash ishlarini olib borish uchun quvurli va shtangali elevatorlar qo'llaniladi: quvurli (zanjirli) va shtangali kalitlar quyidagi rasmida quvurli elevator tasvirlangan (2.12-rasm).

Quvurli va shtangali elevatorlar mufta tagidagi quvurlarni qisib turish va quvur tizmasini tushirish yoki ko'tarishda ushlab turishda qo'llaniladi.



2

.12.-rasm. Quvurli elevator:



a- elevator ochiq; b- elevator yopilgan. 1-shtok; 2-zulfin; 3-vint; 4- qo'l dasta; 5-korpus; 6-shtok qo'l dasta; 7-stakan.


Elevatordagi teshik diametri ko'tariladigan (tushiriladigan) quvurlarning tashqi diametriga mos keladi.

Elevatorning devorlaridan bittasi quvurni kirgizish uchun ochiladi. Quvur elevatorga kirgizilgandan keyin, devor maxsus richag yordamida yopiladi.

Quvurni ko'tarishda u muftaning yelkasiga elevatorning qirrali sirtiga tirkaladi. Elevatori yon qulqlariga massiv (butun) po'lat shtroplar kiydiriladi, ya'ni ko'taruvchi ilgakka osiladi.

Elevatorlar NKQ-lar uchun ishlab chiqariladi, diametrlari 48; 60,3; 89 va 114 mm. Quvurli elevatorlarning massasi esa (og'irligi) 14, 17, 20, 35 kg. Shtangali elevatorlarni yuk ko'tarishi 5 va 10 tonna.

NKQ-larni burab mahkamlash va burab ajratib olish uchun zanjirli kalitlar, shtanga uchun shtangali kalitlar qo'llaniladi. Zanjirli kalitlar dastgro, qisuvchi jag'dan va zanjirdan, tekis zanjirli bug'inlardan tuzilgan. Qisuvchi jag'lar o'zining tishlari bilan quvurning tanasini qamraydi va richagga tayanch bo'lib xizmat qiladi(2.15-rasm).




2.13-rasm.Zanjirli kalit
1-dastgox; 2- qisuvchi jag'; 3-zanjir.

Nasos shtangalarini burab mahkamlash va burab ajratish uchun shtangali kalitlardan foydalilanadi(2.14-rasm). Shtangali kalitlar dastakli va ishchi qismidan tuzilgan bo'lib, kvadrat kallakli hamuzasi bor. Kalit bilan ishlashda shtangaga kirgiziladi va dastakni yengil zarbasi bilan burab qotirish yoki burab ajratib olish uchun jag'ga kirib boradi.

Chuqurlik - shtangali nasos qurilmasi bilan jihozlangan quduqlarni ta'mirlashda, birinchi shtanga ko'tariladi, undan keyin esa NKQ va nasos ko'tariladi. Ish quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi: agarda quduq tebratma dastgoxli nasosni uzatmasi bilan ishlatilganda, birinchi tebratma - dastgoxning yuqori shtangasi (polirovkalili shtok) ajratiladi, muvozanatlagich kallagi yon

tomonga olib quyiladi, undan keyin esa shtangali elevator yordamida shtanganing butun tizmasi ilgakka osib quyiladi.

Asboblarni ko'tarishvaqtida, mufta birinchi shtangadan chiqarilgandan keyin, mufta tagiga ikkinchi elevator quyiladi, ya'ni shtang tizmasidan birinchi shtangani ajratib olishda tushib ketishdan ushlab turadi.



2.14-rasm.Shtangali kalit

Ajratib olingan shtanga ko'priksa yotqiziladi, keyin esa navbatdagi shtanga ko'tariladi va hakozo. Shtanga tizmasining hammasi ko'tarib olingandan keyin, xuddi shunday ketma-ketlikda nasos-kompressor quvurlarni ko'tarib olish boshlanadi.

Quduqqa tushirilgan hamma tizma, elevator yordamida ilgakka osiladi, ya'ni muftadan keyin quvur tizmasi ushlab turiladi. Kachonki, quvurlar kandaydir balandlikka ko'tarilganda va navbatdagi quvurning muftasi quduq ustiga ko'tariladi, bu muftaning tagiga ikkinchi elevator quyiladi, ya'ni navbatdagi quvurni yechib olishda quvurquduqqa tushib ketmasligi uchun ushlab turadi.

Ajratib yechib olingan quvurlar ko'prikkka yotqiziladi va navbatdagi quvurlarni ko'tarib olish boshlanadi.

Og'ir mehnatlarni yengillashtirish, tezlashtirish maqsadida tushirish-ko'tarish jarayonida avtomat yer osti ta'mirlagich qo'llaniladi.

Avtomatik va yer osti ta'mirlash ishlarida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- 1) NKQ-larni avtomatik qamrash va tizmaning maxsus kanalini qamrab olish yoki spayderda;
- 2) NKQ-ni mexanik burab mahkamlash va burab ajratib olish;
- 3) NKQ-ni quduqqa avtomatik markazlashtirish;
- 4) burab mahkamlash kuchlarni avtomatik chegaralash.


Avtomatik yer osti ta'mirlash aylantirgach vodilidan tuzilgan bo'ladi. quvurli kalit va spayderni aylantirish uchun xizmat qiladi, u quvur tizmasining og'irligini ushlab turadi(2.15.-rasm).

Spayder plashkasini ko'tarish va tushirish avtomatlashтирilган bo'ladi quvurlarni yuqoriga va pastga harakatlantirishni amalga oshiradi.

Quvuryuqoriga harakatlanib, o'zi orqali plashkani ko'taradi, osilgan yukni ta'sirida plashka bilan ko'tariladi va ishchi holatga o'rnatiladi.

Quvurlarni tushirishda elevator osilmaga o'tiradi va u plashka quvurlarga tegib turganda, uni o'ziga qamraydi va yopishadi, shu vaqtida elevatorni pastidagi tekislik va osilmani yuqorisidagi tekislik oralig'ida yoriqhosilbo'ladi, ya'ni elevatorni quvurdan olishga imkoniyat bo'ladi.

Elevator dvigateldan chervyakli juftlik orqali vodilaga aylanma harakat uzatiladi. Chervyakli halqa avtomatni va kojuxni korpusidan erkin aylanadi.



2.15.-rasm.APR (avtomatik yer osti ta'mirlagich) avtomatlar:

a- avtomat markazlagich; b- avtomatni qirqimi. 1- avtomat korpusi; 2- chervyak; 3- aylantirgich 4- vodila; 5- kojux; 6-chervyak; 7- elektrodivagatel; 8- mufta; 9- spayder;10-markazlagich.

Avtomatik va elektrdvigatelning oralig'ida mufta bo'ladi, aylanish momentini chegaralaydi.

Avtomatik korpus markazlagich bilan bolt yordamida biriktiriladi. Avtomat reversi uch qutbli ishga qo'shgich yordamida boshqariladi. Ishga qo'shgich kabel yordamida elektrodivagatel bilan biriktirilgan.

Nasos shtangalarini burab mahkamlash va burab ajratib olish uchun ASHK va MSHK shtangali kalitlardan foydalaniladi.

ASHK - avtomatik shtangali kalit;

MSHK - mexanik shtangali kalit.

ASHK va MSHK-lar harakatlanish tartibi APR (avtomatik yer osti ta'siri) kabitdir.

APR-2 bazasida avtomatik APR - GR gidrouzatmali kalitlar yaratilgandir.

Agarda quduqlar shtangasiz elektr - markazdan kochma botma nasoslar bilan jihozlangan bo'lsa, APR-2 EPN avtomatlar qo'llaniladi.

Neft va gaz quduqlarini joriy va kapital ta'mirlash jarayonida burg'ilash va nasos kompressor quvurlarini burab mahkamlash - ajratib olishni mexanizatsiyalash uchun AZ-37, UPT-50, A-50 ko'taruvchi qurilmalar tarkibida

“osma quvurli kalitlar” ishlab chiqarilgan. Kalitlar ponali tutqichchi ZK bilan birgalikda yoki alohida olib kelinadi.

Kalitni tik siljitisht uchun osma-kompensator o’rnatilgan. Kalitni gidrouzatmasi ko’taruvchi qurilmaning gidrotizimida ishlataladi. Mushtakli turdag'i kalitning quvurqisgich qurilmasiga blokirovka o’rnatilgan bo’ladi, ochiq eshikni ishga qo’shilish imkoniyatini oldini oladi.

Planotorli reduktor va uzatma qutisi ikkita aylantirish tezligi bilan ta’minlangan. Aylantirish momentlarini chegaralovchi boshqariladigan gidroklapan mavjud. Ularning asosiy texnik tavsiflari:

- NKQ-larning shartli diametri, mm - 60, 73, 89;
 - aylantirish chastotasi, ay/daq
 - baland uzatma - 84;
 - past uzatma - 17,2;
 - past uzatmada naminal burash momenti;
- N m (kg, sm) P = 20 MPa 12680 (1268);
- P= 16MPa 10150(1015);
 - massasi, kg 255;
 - gabarit o'lchamlari, mm: 1028 x 730 x 725.

Ponali qisuvchi NKQ-larning tizmasi quduqlarni joriy va kapital ta’mirlash jarayonida ushlab turish uchun mo’ljallangan. Ushlab turish konstruksiyasidagi NKQ-larni o’zidan o’zi bushab tushib ketishini oldini olish uchun oldindan himoyalovchi moslamalar o’rnatiladi.

Ushlab turuvchi uzatma - pnevmotizimniig pnevmatik ko’taruvchi qurilmasidan uzatiladi va uning asosiy texnik tavsiflari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ishchilarining og’ir mehnatlarini yengillashtirish maqsadida quduqlarni yer osti va kapital ta’mirlashda quvurlarni ko’prikka tashish uchun lotoklar, panshoxalar, yo’naltiruvchi karnaylar, qo’l dastali ko’chma stollar va boshqalardan foydalaniladi.

Asosiy texnik tavsiflari

Parametrlari	3K	3K-56
Pnevmo tizimdagi havoning bosimi, Mpa	0,6	0,6
Yuk ko'tarish, m	80	56
Ushlanib turuvchi quvurlarning shartli diametrlari, mm	48, 60, 73, 89, 102, 114	48, 60, 73, 89

Quduqlarni kapital ta'mirlashda eng murakkab ishlarda quduq stvolidan uzilib tushgan va uchib ketgan nasos-kompressor quvurlarni, qurilmalarni, asboblarni va boshqalarni quduq tubidan ushlab chiqishdek qiyin ish yo'q. NKQ-lar zarbali ta'sirda egiladi, uziladi va ishlatish tizmasiga yopishib qoladi. Quduqning tubiga uchib tushib ketgan NKQ va boshqa jihozlarni bo'laklarini olib chiqishda, maxsus (quvur ushlagich, metchik, ilgak, urgumchak, qo'ng'iroq va boshqa) ushlovchi asboblar qo'llaniladi.

Quvur va boshqajihozlarni olib chiqishda, ko'pincha katta yuklamali ishlarni qo'llashga to'g'ri keladi. Shuning uchun uzilishga katta qarshilik ko'rsatadigan qalin devorli quvurlardan (diametri 27/8" - 73 mm) foydalaniladi.

Eng qiyin kapital ta'mirlash, tuzatish ishlariga quyidagilar mansubdir: pachoqlanishlarni tuzatish, ishlatish tizmasini tashqi tomonini almashtirish, uzilgan tizmalarni va hakozolarni.

Ishlatish tizmasini pachoqlangan uchastkasi odatda tuzatuvchi burg'ilalar yoki maxsus tuzatmalar yordamida tuzatilib, 27/8" burg'ilashquvurlarida quduqqa tushiriladi. Agar burg'i yordamida tizmani to'g'rakashni imkoniyati bo'lmasa, unda pachoqlangan uchastka tekis va konussimon frezer yordamida kesib olinadi. Tuzatilgan uchastka sement halqasi bilan mustahkamlanadi. Buning uchun bosim bilan sement aralashmasi quduqqa haydaladi.

Eng murakkab kapital ta'mirlash ishlariga markazdan kochma botma qurilmaninguchib ketishi va NKQ-ni hamquduq tubiga uzilib tushib ketadi va kabelda salnik paydo bo'lishi kiradi. Bunday avariyalarni bartaraf qilishda

maxsus ilgaklar, quvur ushlagich va boshqako'pgina moslamalardan foydalaniladi.

Tutish ishlari: Quduqlarni kapital ta'mirlash ishlarida uzilgan quvurlarni, tushib ketgan uskunaparni, MKEN-larni va kabellar birga quduq tubiga tushib ketganda ularni ushlab chiqarish ishlari eng murakkab hisoblanadi.

Eng murakkab ishlarga quvurlarni tutish va olib chiqarish ishlari kiradi, nasos-kompressor quvurlar quduqqa tushib ketganda, quduq tubiga uriladi, uzunligi bo'yicha egiladi va ishlatish tizmasiga tiqilib koladi. MKEN (markazdan kochma elektro nasos) quduqqa tushib ketgan kabellarga tiqilib qoladi.

Ko'pgina avariyalarda quvurlar quduqlarning tubiga tushib ketganda, ko'p joyi sinib ketadi va quduqda qatorli holda joylashib koladi. Bundan tashqari nasos-kompressor quvurlar shtangalari bilan birgalikda uzilib ketadi.

Quduqqa tutqich asboblarini tushirishdan oldin ishlatish tizmasini holatini va quduqqa tushib ketgan quvurlarni, shtanga yoki boshqa elementlarni qanday joylashganligini bilish kerak.

Buning uchun ko'rg'oshinli muhrdan foydalaniladi. Quvurlarning shtangalarini yoki boshqa narsalarni yuqori uchidan iz olishda torsli muhrlar qo'llaniladi. Ishlatish tizmalari pachoqlanganda konussimon muhr bilan tekshiriladi.

Tutqich asboblarga overshotlar, ko'ng'iroqlar, quvurtutqichlar (ichki va tashqi) metchiklar, ilgaklar, qarmoqlar, yorshilar, shtoporlar va boshqalar kiradi.

Nasos-kompressor quvurlarni tutish (ushlash) uchun har xil o'lchamdagi ung yoki chap rezbali quvurtutqichlar qo'llaniladi. Quvurli tutqichlar yordamida ichki va tashqi rezbalar chiqariladi. NKQ-larni muftasini yoki boshqajihozzlarni, ya'ni burtmalari bo'lsa ularni tutishda overshotlardan foydalaniladi.

NKQ-larni tashqi yuzasidan tutish uchun ya'ni uzilgan quvurni tanasida yoki uzilgan joyida mufta bo'lsa, ko'ng'iroqlar qo'llaniladi. Tutqich ishlarida xavfsizlik va ishonchlilikni ta'minlash maqsadida qalin devorli, diametri $2^{7/8}$ bo'lgan burg'ilash quvurlari qo'llaniladi.

Quvurtutqich (KT) va shtanga kallak (SHK) tashqi tomonidan ushlovchi erkinlashmagan sangali tutqichlar quduqdan nasos-kompressor quvurlarni, quduq nasoslarini, tub dvigatellarni va nasos shtangalarini avariya paytida ushslash va olib chiqarishni ta'minlaydi.

Quduq ustini ta'mirlash va germetiklashda, quduq usti qismini tekshirish va nosozligini ta'mirlash zarur. Ayniksa, gaz quduqlarida ta'mirlash ishlarini olib borishdan oldin nosozliklar bartaraf qilinadi.

Tizmalarning nuqsoniga uning pachoqlanishi va sinish holatlari kiradi. Tizmaning pachoqlanishi harxil bo'ladi, uning ichki diametrini o'zgarishiga qarab baholanadi. Agarda diametri 15% gacha diametrining oldingi holatiga nisbatan pachoqlansa, uncha katta bo'limgan shikastlanish deyiladi. Agarda diametrni 0,8 (80%) qismi pachoqlansa, u holda katta shikastlanish hisoblanadi.

Shikastlangan joylari noksimon yoki kalonkali frezer bilan to'g'rilanadi.

Quduqqa frezer shunday tushiriladiki, nominal diametrdagi shablonni tushirish uchun erkin o'tish joyi shakllanadi. To'xtatilgan joyi imkoniyat darajasida bekitilishi kerak, begona suvlar va nuragan tog' jinslari kirib kelmasligi kerak; tizma nuqsoni orqali bosim bilan sement aralashmasini haydash; Dorn qurilmasi yordamida metall plasterlar o'rnatiladi.

Agarda diametrni tuzatishni imkoniyati bo'lmasa, qumnncha tizma yoki "uchuvchi" o'rnatiladi. Agarda quduqqa tizmani tushirish imkoniyati bo'lmasa, yuqorida yotuvchi gorizontga qaytiladi yoki yon tomondn ikkinchi stvol ochiladi.

Ishlash tartibi

Quduqqa tutqich asboblarni tushirishda, yo'naltiruvchi karnay o'zningegilganligi hisobiga obyektnitutadiva uni ichiga quvurtutqichni yo'naltiradi (shtanga kallakni), sangali tutqich bilan uzatma yuqoriga tirkalguncha ko'tariladi, qisiladi va tutuvchi obyektni ichiga o'tkaziladi. Tutuvchi tizma yuqoriga harakatlanganda, sanga tutiladigan obyekt bilan birgalikda konussimon sirtiga tushiriladi va yopishadi. Natijada tutiladigan obyektni ishonchli ushlanib qolishi amalga oshiriladi.

Tutiladigan obyekt ushlanganda muftaga chegaralovchi vtulka o'rnataladi, bir uchi bilan uzatmaga tirkaladi, ushlanadigan obyektni yurishini chegaralaydi.

Ushlab chiqariladigan obyektni burtmasi tagidan yoki muftasi tagidan sangani yopishib qolishi sodir bo'ladi. Bunda konussimon tirkak sirt va burtmani yoki tutiladigan obyekt muftasini ostki burtmasiga sanga joylaydi.

Sangalarni almashtirish mumkinligi tufayli, shtangali kallak va quvurtutqichlari yordamida har qanday o'lchamdagagi diametrli va bitta bir xil o'lchamli konfiguratsiyali tutib chiqariladigan obyektlarni olib chiqarish imkoniyatini kengaytiradi.

Trubo shtanga kallak TL-1 trubo tutqich va SHA-1 shtanga tutqichlardan tuzilgan bo'lib, bir vaqtning o'zida nasos shtanga tizmasini va NKQ-larni tutish va ko'tarishda foydalilanildi.

Tutiladigan obyektlar: NKQ-larning diametri 60, 73, 89 mm;

Nasos shtangalari diametri 16, 19, 22, 25 mm.

Texnik tavsiflari:

- quvurlarni shartli diametri, ichidan tutish amalga oshiriladi, mm: 146, 168;
- ruxsat etilgan o'qliyukanma, kH: 500;
- diametri, mm: 122;
- uzunligi, mm: 880.

2.3. Quduq tubini ta'mirlash ishlarida ko'tarib-tushurish asbob uskunalarini

2.3.1. Quvur elevatori, shtropi va spayderi

Quvur elevatorlari quvur tizmasini og'irligini quduqdan ko'tarishda yoki quduqqa tushirishda hamda alohida quvurlarning shamini ushlab turishda xizmat qiladi. Elevator yuk ko'taruvchi qurilma bo'lib, quvurlar birikmasi va qo'shimcha yuklarning og'irligini qabulqiladi.

Shtroplar - elevator tal ilgakka osiladi, elevator va tal ilgakining oraliq zvenosi sifatida xizmat qiladi.

Quvurlar tizmasini tushirish-ko'tarish jarayonlarida bir quvurni yoki shamni tushirishda elevatorni ketma-ket siljitimishga, jihozlashga (quvurga kiydirish va yopish), quvurlarni olishga va qaytadansiljitimishga to'g'ri keladi; xuddi shunga o'xshash operatsiyalar tizmani tezlikni ko'tarishda ham bajariladi. Shunday qilib quvurlar birikmasida har bir quvurni tushirishda yoki ko'tarishda, quvurdan quvurga elevator ikki marta siljiteladi, bir marta quvurga zaryadlanadi va bir marta olinadi. Bu operatsiyalarning hammasi qo'lida bajariladi.

Ikkita elevatordan foydalanilganda quvurlar tushirilganda-ko'tarilganda va quvurlar tokchalarga taxlanganda bir smena davomida bir brigada tomonidan 400-500 marta marta elevatorlar siljiteladi, unga mosholda elevatorlarni olish va zaryadlash ikki martaga ko'payadi hamda shtroplar 400-500 marta ko'chiriladi, olish va kiydirishlar soni ham ikki martaga oshadi. Bu operatsiyalarni ikkita ishchi bajaradi. Elevatorlarni quvurga va shtroplarni elevatorga kiydirish jarayonlarini amalga oshirishdagi vaqt va zo'riqishlar asosan ularning massasiga bog'liq va bundan tashqari elevatorning qurilmasi esa takomillashtirilgandir. Operatsiyalarni amalga oshirish vaqtini qiskartirish uchun ularni yengillashtirish, elevatorni va shtropni sxemasini kamaytirish xal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shu tomonidan qaraganimizda qulayligini va yopilishini hamda elevatorni yechilishini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Tushirish-ko'tarish operatsiyalarida yer osti va kapital ta'mirlash ishlarida qo'llaniladigan quvurlar elevatorining yuk ko'taruvchanligi ta'minlanishi, ayniqsa chuqurquduqlarni burg'ilashquvurlar yordamida olib borilganda 100-120 tonna yukni ko'tarishi kerak.

Quvurlar elevatorlarini yopish tizimlari xavfsizlik talabidan kelib chiqib ishonchli bo'lishi, o'zi ochilib ketmasligi, ochishda va yopishda (qulflashda) murakkablik tug'dirmasligi kerak.


Elevatordan binodan tashqarida foydalanilganligi uchun atrof-muxitning haroratida quvurlar bilan kontaktlashadi, ayniqsa parafin yotqiziqli, neftli, minerallashgan suvli va korroziya muhitda bo'ladi. Shuning uchun elevatorning

konstruksiyasi va tayyorlanishi uni ishlatalish sharoitida ishonchliligini ta'minlashi kerak.

Elevatorning konstruktiv sxemasiga va uning o'lchamlariga quvurlarning turi ta'sir qiladi. Hozirgi vaqtgacha to'rt xildagi bir-biridan turlari bilan farqqiladigan quvurlarning elevatorlari keng qo'llanilmokda (2.18-rasm).

Elevatorlar balkali sxemada bajarilgan bo'lib, quvurlar elevatorning korpusida va uning yon tomonlarini tayanchidan ushlab turiladi, muftali quvurlarda va muftasiz tashqi kirgizmali quvurlarni ushlab turishda qo'llaniladi.

Elevator balkali sxemada bajarilgan, quvurning silliqqismidan ponalar yordamida ushlab turadi, ichki kirgizmali muftasiz quvurlarda foydalaniladi.



2.16-rasm.Quvurli elevatorlarning sxemasi

a-muftali quvurlar uchun balkalar; b-tashqi kirgizmali muftasiz quvurlar uchun balkalar; c- silliq muftasiz quvurlar uchun balkalar; d- vtulka.

Elevator vtulkali sxemada bajarilgan, tayanch yon tomonlaridan, quvurning muftasidan ushlab turadi, muftali quvurlarda qo'llaniladi.

Quvurli elevatorlar uchun shtroplar uch xil turda tayyorlanadi(2.17-rasm). Balkali elevatorlarda qo'llaniladigan shtroplar. Uchinchi turdag'i shtroplar ilgak ko'rinishida bajarilib, vtulkali elevatorlarda hamda kichik yuk ko'taruvchi balkalar uchun qo'llaniladi.


Bir turdag'i elevatorlarning sxemasi uning yuk ko'taruvchanligiga proporsional va mo'ljallangan quvurlarning diametrlariga bog'liqbo'ladi. Elevatorlarning yuk ko'tara olishi quduqning chuqurligiga bog'liqbo'ladi.

Yengillashtirilgan va operatsiyalarni tezlatuvchi elevatorlar bilan balkali elevatorlar faqat bir maksimal yuk ko'tarish uchun emas balkim minimaldan maksimalgacha hisoblanadi.

Bunday yondoshuv tushirish-ko'tarish operatsiyalarining katta qismdagi ishlari kichik massadagi elevatorlarda bajariladi.

Elevatorlarning bir qator yuk ko'taruvchanligi amaldagi standartlashtirilgan standartlarda elevatorlarni o'lchamlari va turlari keltirilgan bo'lib, elevator tayinlangan quvurlarning turi va o'lchamlariga bog'liq bo'ladi.

Balkali elevatorlar tavakali (stvorqa) ko'rinishda bajarilgan, muftalar bilan ishlashda qo'llaniladi hamda muftasiz tashqi kirgizmali quvurlarda hamqo'llaniladi.



2.17-rasm. Quvurli elevatorlar uchun shtroplarning sxemasi


a-ilgaklar balkali elevatorlar uchun; b- ikki ilgakli umanchik-Yakovlev tizimidagi balkali elevatorlar uchun

Korpusli elevatorlar muftali quvurlar bilan ishlashda hamqo'llaniladi.

Spayder bilan qurilgan balkali elevator quvurlarning silliq qismidan ushlaydi va muftasiz ichki kirgizmali quvurlar bilan ishlashda qo'llaniladi.

Quvurlar, elevatorlar bolg'alangan po'latlardan, shtamplangan yoki quyma tayyorlanmalardan, po'latlardan, legirlangan xromdan, molibden, nikellardan tayyorlanadi (2.18-rasm). Quyma tayyorlanmadan korpusli detallarni

tayyorlashda ko'yishsifatiga muhim yuqori talablar qo'yiladi: tayyorlanmada xech kanday nuqsonlarni bo'lmasligi kerak, chunki ularni tuzatib keyin foydalanishda qo'llashga ruxsat berilmaydi.



2.18-rasm.Balkali turdag'i quvurlar elevatorlarining konstruksiyasi

Balkali elevatorlarning kamchiligi ularni katta og'irligi va metall sarflanmasidir. Kichik yuk ko'taruvchanlikda ham ularning massasi 40-50 kg-ni,

yuk ko'taruvchanligi 75-80 t bo'lganda massasi 80-100 kg-ni tashkilqiladi, ular bilan kulda operatsiyalarni bajarish juda og'irbo'ladi.

Elevatorlarni massasini kamaytirish uchun po'lat korpusdagi detallarni yuqorimustahkamlikdagi AK-8 alyuminiy qotishmasiga almashtirishga erishildi. Bunday elevatorlar ishlatilganda massasi tomonidan yutuqqa erishilgan, lekin bilan, musta bilan, mustahkamligi talabga javob bermadi va uzoq muddatga chidash beraolmadi.

Po'latni yuqorimustahkamlikli yengil qotishmali material bilan detallarini almashtirish quyidagi sharoitda amalga oshiriladi.

$$\frac{m_1}{m_2} \left(\frac{\sigma_{ok\cdot 2} \cdot \rho_1}{\sigma \cdot \rho_2} \right)$$

Bu yerda: m_1 , m_1 - po'lat va qorishmaning massasi;

$\sigma_{ok\cdot 2}$, $\sigma_{ok\cdot 1}$ - materiallarning oquvchanlik chegaralariga mos keladi; ва ρ_1 , ρ_2 - materiallarning zichligi, po'latning zichligi, Oddiy tovlanmagan 0,4 % li uglerodli po'latdan foydalanilganda $\sigma_{ok\cdot 1} = 380 \text{ MPa}$, ga teng bo'lganda, AK-8 $\sigma_{ok\cdot 2} = 380 \text{ MPa}$ bo'ladi. Bunda $\frac{m_1}{m_2} = 0,33$, ya'ni yengillashish samarasi bo'ladi. Elevatorlarnitayyorlashda issik ishlov berilgan yuqorimustahkamlikka ega bo'lganpo'latdan foydalanish mumkin, lekin yengil aralashmali elevatording massasi og'irlashib ketadi.

kuzdan kechirilib chiqishi lozim. Xar xil markali pulatdan tayyorlangan shtangalarni aralashtirib tushirish mumkin emas.

Xulosa

2-bobda statsionar minorali quduqlarda yer osti ta'miri uskunalar, yer osti ta'miri uskunalar, quduqning kapital va yer osti ta'mirlash mashina-mexanizmlari, quvurlarda ta'mnrlash ishlarini olib borishning umumny tasniflari, quduq tubini ta'mirlash ishlarida ko'tarib-tushurish asbob uskunalar, Rasnoe Sormovo va Molchanov tizimli turdag'i quvur elevatorlari va spayderlar, quvur kalitlari, Shtanga elevatorlari va kalitlari, nasos-kompressor quvurlarini qotirish-bo'shatish uchun avtomatlar, minorasiz ishlatiladigan quduqlarda er osti ta'miri uskunalar, shtangali nasoslar bilan jixozlangan quduqlarni ta'mirlash texnologiyasi.

Nazorat savollari

1. Quduqlarni ta'mirlash jarayonining murakkabliligini aytib bering?
2. Er osti ta'miri uskunalarini aytib bering?
3. Ko'tarib-tushirish operatsiyalarida qo'llaniladigan asbob – uskunalarini aytib bering?
4. Quduqlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan qurilmalar va mexanizmlarni aytib bering?
6. Quvur elevatorlari va spayderlarni aytib bering?
7. Quvur kalitlari turlarini ayting?
8. Shtanga elevatorlari va kalitlari qanday turlarini bilasiz?
9. Er osti ta'mirida qo'l operatsiyalarini mexanizatsiyalashtirish vositalari aytib bering?
10. Nasos-kompressor quvurlarini qotirish-bo'shatish uchun avtomatlar qanday turlarini bilasiz?
11. Quvur elevatori, shtropi va spayderi qanday turlarini bilasiz?
12. Rasnoe Sormovo va Molchanov tizimli turdag'i quvur elevatorlari va spayderlar vazifalarini aytib bering?

III-BOB. QUDUQLARDA QUM TIQINIGA QARSHI KURASHISH TEXNOLOGIYASI VA TEXNIKASI

3.1. Qum tiqini paydo bo'lish sabablari

Suyuqlikning quduqqa sizilishida stvoliga (tanasiga) qum olib chiqilishi quduq tubi zonasi kam sementlangan tog' jinsoarining yemiriliish natijasida yuz beradi.

Qum tiqini paydo bo'lishiga qarshi kurashish uchun qo'yidagi usullar qo'llaniladi.

Quduqdan suyuqlik olishni rostlash boshqarish.

NQT boshmog'ida yoki chuqurlik nasosi qabulida qumni separatsiya qilish uchun har xil himoya vositalarini qo'llash.

Kelayotgan qumni yer ustiga olib chiqish.

Quduqlardagi qum tiqinlarini davriy yuvish.

Quduqqa qum kelishining olishini oluvchi maxsus filtrlarni yoki quduq tubi zonasi jinslarini mustahkamlash uchun har xil sementlovchi moddalarni qo'llash.

Quduqdan suyuqlik olinishini boshqarish.

Qatlamdan suyuqlikning qandaydir cheklangan miqdori olinganda ayrim paytlarda quduqqa qum kelishini kamaytirish yoki to'laligicha bartaraf qilish mumkin.

Lekin amaliyot ko'rsatadiki, quduqning ratsional rejimini tanlash va bunda qum kelishini oldini olishni va bu bilan bir paytda ta'mirlar aro davrni oshirish evaziga neft qazib olishning jami oylik hajmini oshirish iqtisodiy tomondan muvofiq holat ancha qiyin kechgan.

Shuning uchun quduq debitini chegaralash samarasiz hisoblanadi. Bu usul ko'pincha qum paydo bo'lishiga qarshi boshqa tadbirlar bilan birgalikda qo'llaniladi.

Yer osti va kapital ta'mirlash ishlarida A-40, A-50 va transport vositalaridan, asboblaridan, mexanizatsiya vositalaridan (ASHK, APR kalitlari), har xil tutqichlar va boshqa jihozlar va maxsus asboblardan foydalaniladi.

Quduqlarning ta'mirlash ishlariga quyidagi tartibda tayyorlanadi.

- 1) quduq usti begona narsalardan tozalanadi;
- 2) quduq yuviladi, ko'tarish agregati uchun maydoncha tayyorlanadi.
- 3) quduqqa kerakli jihozlar keltiriladi (quvurlar, shlanglar, nasoslar, kabel aralashmalar, sementlar va boshqalar).

Quduqdagi jihozlarni ko'tarish uchun yuk ko'tarishqobiliyati 16 tonnalik aregat tanlanadi. Bu agregat bilan 1500 metr chuqurlikdagi quduqlarni ta'mirlash mumkin.

Bu agregatdan burg'ilash jarayonida sementlash, kapital ta'mirlashda, sement ko'priklarini burg'ilash, har xil geologik-texnik tadbirlarni o'tkazish uchun, neft-gaz quduqlarida yuvish va haydash ishlarini amalga oshirishda, nasosli sementlash va haydash ishlarini harakatlanuvchi agregatlarni qo'llash mumkin.

Aregat tarkibiga quyidagilar kiradi:

- montaj bazasi;
- yuqori bosimli nasoslar;
- manifold;
- suv tushuruvchi blok.

3.1-jadval

Yuqori bosimli nasoslarning parametrlari

Parametrlar	NS-320	Uch plunjepeli	NB 80
Foydali kuvvati, kVt	108	135	63
Chegaraviy haydash bosimi, MPa	40	50	12
Eng ko'p uzatishi, dm ³ /sek	26	23	10,8

Manifold:

- o'lchov bakining hajmi - 6 m³;
- suv nasosining va sementlash aregatining qabul tizimidagi shartli diametri - 100 mm, haydovchi tizimni sementlash va suv nasoslari - 50 mm;
- sement aralashmasini sig'imi - 0,250 m³.

Suv uzatish bloki:

Dvigatel ZMZ - 511 (ГАЗ-53).

Dvigatel valining aylanish chastotasi.

- maksimal 3200 ay/min;
- ishchi 2500-2950 ay/min;

Quvvati - 92 kvt.

Quduqlarning yer osti va kapital ta'mirlashda trubina va shtangali elevatorlar qo'llaniladi: quvurli va shtangali kalitlar.

Yer osti va kapital ta'mirlash ishlarini quduqda amalga oshirishda, ishchilarining ishini yengillashtirish uchun quvurlarni, yo'naltiruvchi karnaylarni tashishda har xil lotkalardan foydalaniladi.

Quduqlardagi eng murakkab ishlar bu - kapital ta'mirlashdir. Kon sharoitida kapital ta'mirlash brigadasi quduq tubiga bostirib kirgan suvlarni yoki begona suvlarni bartaraf etishni amalga oshiradi. Bunday ishlar ta'mirlash bekitish ishlari deyiladi. Quduqqa yorib kirgan suvlarni bekitish uchun quduqqa bosim bilan sement aralashma haydaladi.


3.1.1. Himoya vositalari

Chuqurlik nasosi bilan jihozlangan quduqlarning ishida keladigan qum miqdorini kamaytirish uchun 2 turdag'i himoya vositalari qo'llaniladi: Filrlar va qum yakorlari.

Filtrlovchi material sifatida meshkovina, kapron mato yoki mayda latun setkasi qo'llanilib, ular yordamida perforatsiya qilingan quvur o'raladi. Undan tashqari shag'alli (gravitli) filtrlar ham qo'llaniladi. Filrlarning hamma konstruksiyalarining kamchiligi shundaki ularning tez tigilib qolishi natijasida quduq mahsuloti kamayib ketadi. Qum yakorlari keng qo'llaniladi. Ayniqsa YAGP-1 (3.1-rasm) turdag'i gaz qum yakorlari samarali hisoblanadi.

3.1.2. Gazli va gaz qum yakori hisobi

Gazli va gaz-qumli yakorini hisoblash uchun qo'yidagilarni aniqlash lozim: korpus diametri, korpuslar soni, yakorning uzunligi, seperatsiya koeffitsiyenti, korpusdagi hamma teshiklar soni, qum bo'lagining hajmi va qum yakorining ishlash trubkasi diametri.



3.1-rasm. Gaz-qum yakori. 1-ulagich; 2-gaz kamerasi korpusi; 3-so'rvuchi quvur; 4-maxsus mufta; 5-ishlash quvuri; 6-qum kamerasi korpusi; 7-konussimon ulagich; 8-to'sqich mufta.

- Separatsiya yakorining kesim yuzasi (gaz pufagi diametri 0,2 sm va yakor foydalanish koeffitsiyenti 0,6 bo'lganda) qo'yidagicha hisoblanadi, sm².
- Og'ir, qovushqoqli neftlar uchun

$$F_{ya} = 0,013F_{pl}Snv \quad (3.1)$$

- yengil neftlar uchun

$$F_{ya} = 0,0054F_{pl}Sn^3\sqrt{v} \quad (3.2)$$

- 80% ortiq suvlangan neftlar uchun

$$F_{ya} = 0,00012F_{pl}Sn \quad (3.3)$$

Tenglamadagi ko'rsatgichlar va o'lchov birliklari qo'yidagicha :

F_{pl} - nasos plunjeringining kesim yuzasi, sm²

S - plunjerning yurish uzunligi, sm

n - minutdagi tebranishlar soni

v - kinematik qovushqoqlik, sm

So'rvuchi quvurni bilgan holda (odatda 48 mm tanlanadi), gaz yakorining korpusi diametri topiladi.

$$D_{ya} = \sqrt{\frac{4F_{ya}}{\pi} + d_t^2}, sm \quad (3.4)$$

Bu yerda : d_t - so'rvuchi quvurning tashqi diametri, sm.

Topilgan korpus diametrni standart diametrgacha tenglashtirib olinadi.

Quduqqa bunday yakor tushirish mumkin emas, unga ko'p korpusli yakor qabul qilinadi. Korpuslar soni qo'yidagiga teng bo'ladi:

$$n_{ya} = \frac{F_{ya}}{F^1_{ya}} \quad (3.5)$$

Bu yerda: F_{ya} - separatsiyaning umumiy talab etilgan yuzasi, sm^2 ; $F^1_{ya} = 0,785[\Sigma(D_t^1)^2 - d_t^2]$ - gaz yakorining meparatsiyasini bitta korpusining yuzasi, quduq gabariti diametriga bog'liq.

Bitta korpusli yakorning ishslash uzunligi kamida $20D_{ya}$ bo'lishi kerak, ko'p korpusli yakorning har bir korpusning uzunligi qo'yidagicha aniqlanadi:

$$L_{ya} = \frac{20D_{ya}}{n_k} \quad (3.6)$$

Gaz yakorining separatsiya koeffitsiyenti qo'yidagiga teng bo'ladi:

$$K_s = \frac{G_{ya} - G_n}{G_{ya}} \quad (3.7)$$

Bu yerda: G_{ya} - gaz yakoriga keladigan gaz miqdori m^3/m^3 , G_n - nasos orqali o'tadigan gaz miqdori m^5/m^3 .

$$G_{ya} = \frac{0,5(G_0 - dap)}{p+1} - \frac{F_{pl}}{F \cdot F_{ya}} \quad (3.8)$$

$$G_n = \frac{G_g - aP}{P+1} \quad (3.9)$$

Bu yerda: G_0 - umumiy gaz omili, m^3/m^3 ; $P = \frac{hp}{10}$ - yakoriga kirishdagi ortiqcha bosim, kgs/sm^2 ; (h - dinamik sathdagi nasosning cho'kish chuqurligi, α ; ρ - suyuqlik zichligi); G_g - neftni quvur orqali olishdagi gaz omili, m^3/m^3 ; α -

gazning eruvchanlik koeffitsiyenti ($1/\text{kgs/sm}^2$); F - eksrluatatsion birikmaning kesim yuzasi, sm^2 .

Gaz yakorining har bir korpusidagi teshiklar sonini qo'yidagi A.C.Вирновский tenglamasi bilan topish mumkin:

$$n_2 - n_1 = \frac{1}{2} \lambda \mu^2 \frac{L}{d_{ich}} \left(\frac{d_0}{d_{ich}} \right)^4 n_0^3 \quad (3.10)$$

Bu yerda : n_1 ва n_2 - yuqori va pastki korpusdagi teshiklar soni; λ - gidravlik qarshilik koeffitsiyenti ($\lambda = 0,03$ olinadi); μ - suyuqlikni teshiklar orqali sarflanish koeffitsiyent ($\mu = 0,7$ olinadi); L - korpusning va pastki quvuri bilan teshiklar orasidagi oraliq ($L = 1,2$ olinadi, bu yerda: L_{ya} - yakor korpusning ishslash uzunligi) sm , d_{ich} - so'rovchi quvurning ichki diametri, sm ; d_0 - yakordagi teshiklar diametri, sm (odatda $d_0 = 1 \text{ cm}$); $n_0 = \frac{n_1 + n_2}{2}$ teshiklarning o'rtacha soni.

$n_2 - n_1$ orasidagi farqlar soni va ularning yig'indisini ($n_2 + n_1 = 28$) topgan holda, n_2 va n_1 larni topish mumkin.

Yakorning tashqi quvuridagi teshiklari kesim yuzalarining yig'indisi nasos qabul qiluvchi to'sqich yuzasidan 4 marta katta bo'lishi kerak.

Gaz qum yakori ЯГП-1 seksiyasi qumi hajmi:

$$V_k = \frac{\pi D_k^2 lk}{4}, \text{m}^3 \quad (3.11)$$

Bu yerda: D_k - yakor korpusi diametri, m ; lk - qum kamerasining uzunligi.

Qum yakorining ishslash trubkasini nasadka tushirgandagi ichki diametri

$$di_{ch} = \frac{\pi D_{pl}^2 Sn}{120000v} \quad (3.12)$$

Bunda D_{pl} ва $S - \text{sm da}$.

Nasadkaning chiqish teshigidagi diametri ham shu tenglama orqali hisoblanadi.

Bu holatda ishlatish trubkasini yuqori diametri qo'yidagicha hisoblanadi:

$$di_{ch} = 2 \ln^* \operatorname{tg} \frac{a}{2} + d_0 \quad (3.13)$$

Bu yerda: ln - nasadka uzunligi (odatda 8 sm deb olinadi) $\alpha = 40^{\circ}$ - korpus burchagi; d_0 - nasadkaning eng past diametri sm da.

3.2. Qum tiqinlarni va uni bartaraf qilish

Yumshoq kuchsiz sementlanmagan tog' jinslarini ishlatish davrida quduq tubi zonasida parchalanish sodir bo'ladi. Bunday holatda qatlamdan suyuqlik va gaz harakatlanganda, o'zi orqali qum aralashmalarini quduqning tubiga olib chiqadi. Agar suyuqlikning tezligi qumni ko'tarishga yetarli bo'lmasa, qum quduq tubida to'planadi va qum tiqinini hosil qiladi.

Ba'zida qum tiqinlari un va yuz metr balandlikni hosil qiladi.

Qumli tiqinlarni bartaraf qilishda quduqni tarnov yordamida tozalash, havo purkash va suyuqlik bilan yuvish orqali amalga oshiriladi.

Quduqni qumli tiqinlardan tarnov yordamida tozalash tiqinining qalinligi uncha katta bo'limganda uncha chuqur bo'limgan quduqlarda, toza neft quduqlarida, past qatlam bosimli uyumlarni ishlatishda qo'llaniladi.

Tarnov quduqqa tortal arqonda tushiriladi. Qaysiqi tiqinga 10-15 metr qolganda, traktorist chig'iriq tormozini bo'shatadi va tarnov o'zining og'irlik kuchi ta'sirida qumli tiqinga o'tiladi. Bunda klapan ochiladi va ma'lum hajmdagi qum va suyuqliklar tarnovga kiradi.

Qatlamdan quduqqa qumning oqib kirishi quyidagi murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

- 1) quduqning debitini kamaytiradi;
- 2) mahsuldar qatlamda kovaklarni shakllanishi, o'z navbatida quduq shipini og'anab tushishi va filtrni ezilishi; yuqoridan qatlam suvlarining kirib kelishi natijasida quduqni to'liq ishdan chiqarishi mumkin;
- 3) mahsuldar qatlam shipini og'nab tushishi natijasida qatlamto'liq blokirovka qilinishi mumkin;
- 4) chuqurlik nasoslari va quduq ichi jihozlarini to'liq ishdan chiqarishi mumkin.

M.Maskiy quduq debiti Q , filtrda qumli tiqin shakllangan, Q_0 - filtrning debiti nisbatlarini quyida formula kurinishida ifodalanadi.

$$\frac{Q}{Q_0} = \frac{ar_k^2 \ell n \frac{R_k}{r_{\text{ny}\partial}}}{\frac{2}{3} + \frac{r_k^2}{2} + a \cdot r_{\text{ny}\partial}^2 \ell n \frac{R_k}{r_k} - \frac{L}{\pi^2} \sum_1^0 \frac{1}{B_n}} \quad (3.14)$$

bu yerda: Q -suyuqlik debiti, sm^3/sek ;

R_k , $r_{\text{ny}\partial}$ - tuyinish radiusi va quduq radiusi, sm.

$$a = \frac{K_2}{K_1} \quad (3.15)$$

K_1 - filtrdagи qumli tiqinнинг o'tkazuvchanligi, darsi (d);

K_2 - qumli qatlamning o'tkazuvchanligi, darsi (d).

$$\overline{B_n} = \frac{1}{n^2 [J_o(\pi \cdot n r_k)] + \frac{a J_1(\pi \cdot n r_k) K_o(\pi \cdot n r_k)}{K_1(\pi \cdot n \cdot r_{\text{ny}\partial})}} \quad (3.16)$$

Bu yerda: J_0, J_1, K_0, K_1 – mos holda Bessel va Xanpelni birinchi va ikkinchi tartibli funksiyalari.

Feruza koni uchun $h=8$ м; $r_k=122$ мм; $R_k=800$ м. Qatlamda qum mavjud bo'lsa, qumli tiqinni o'tkazuvchanligi $a=1$ ga teng, unda qumli tiqinni debiti, кудук debitining 5% ni tashkil etadi.

Quduqlarni normal ekspluatatsiya qilish uchun shunday qumli fraksiyalar bo'lishi kerakki, muallaq holatda bo'lsin.

Shunday qilib, qatlamdan qumlar kirib kelganda, ularni bartaraf qilishning quyidagi tadbirilarini tavsiya qilamiz:

- 1) quduqning o'tkazuvchanligini pasaytirish;
- 2) qazib olish usulini o'zgartirish;
- 3) maxsus filtrlardan foydalanish;
- 4) qatlamdagи qumlarni smola yordamida qotirish;
- 5) qatlamga graviy haydash va smola bilan mustahkamlash;

- 6) qatlamga qumhaydash;
- 7) graviyli filtrlarni tushirish.

Quduqni yuvish

Yuvishning asosiy mohiyati quduq tubidagi tiqinni yuvuvchi suyuqlik suv yoki neft yordamida yuvib chiqarishdir.

Yuvishning quyidagi usullari qo'llaniladi: to'g'ri, teskari va jamlamali.

To'g'ri yuvishda suyuqlik yuvuvchi quvurlarga haydaladi, yuvilgan qumlar halka oraliq orqali harakatlanadi.

Teskari yuvishda yuvuvchi suyuqlik halqa oralig'iga haydaladi, yuvilgan qumlar yuvuvchi quvurlar orqali harakatlanadi.

Jamlamali usulda yuqorida 2 ta usul birlashtiriladi.

Yuvish tezligi va uning samaradorligi yuvuvchi suyuqliknинг sifatiga, tanlangan yuvish usuliga, ishlatish tizmasining diametriga va yuvuvchi quvurga, tiqinni harakteriga bog'liq.

Yuvuvchi suyuqlik sifatida va tiqinni bartaraf qilish uchun neft, suv va loyli eritmalaridan foydalaniladi. Neft yordamida toza neft quduqlarni yuvishda, suv-toza neft hamda neft va suv chiqadigan quduqlarni yuvishda foydalaniladi.

Loyli eritmalar favvora quduqlariga haydaladi, qaysiki qatlam bosimi gidrostatik bosimdan yuqori bo'lganda qo'llaniladi. Neft va loyli eritmalar yuvuvchi suyuqlik sifatida qo'llanilanganda, maxsus tarnov tizimidan va cho'ktirgichlardan foydalaniladi.

Yuvuvchi quduqlardagi qumli tiqinlar nn bartaraf qilish.

Past qatlam bosimli quduqlarda filtr zonasini yuvishda, yuvuvchi suyuqliklarning yutilishi sarf bo'ladi, natijada debit kamayadi. Yuvuvchi suyuqliklarni qatlamga kirib qolishi natijasida, neft quduqlarida qatlam bosimi past bo'lganda holat yomonlashadi.

Qum suyuqlikda muallaq holatda turib, kunlik yuzaga chiqib ketmaydi. Yuvish tugagandan keyin bu qumlar yana quduq tubiga tushadi va filtrning ma'lum qismini yopib qo'yadi.

Neft quduqlari suv bilan birinchi marta yuvilganda, quduqni ishlatalishda debit tezda pasayadi, ba’zi bir holatlarda suvning uchi quduqqa kirib keladi. Undan keyin neft parda shaklida paydo bo’ladi.

Quduqni qayta yuvish amalgaga oshirilganda ham ko’p holatlarda ijobiy natijalar olinmaydi. Kunlik yuzaga qumlar, ishlatalish tizmasini filtrlarida o’tirib qolgan qumlar chiqib keladi.

Quduqni ishlatalish davom ettirilganda, bu holat noqulay aks etadi. Yuvuvchi suyuqliklarning qatlamga yutilishini oldini olish va qum tiqinlarini bartaraf qilish uchun past qatlam bosimida, suvning qatlamga yutilishini oldini olishda jelonkalar yordamida havo purkaladi yoki aeratsiyali yuvuvchi suyuqliklarga SFM qo’shimchalar qo’shib haydash qo’llaniladi.

Quduqni siqilgan havo yordamida tozalash.

Bu usulning mohiyati shundaki, siqilgan havo quduq tubiga quvur halqa oralig’i orqali haydaladi, tiqinni yumshatadi va uni quduqdan suyuqlik orqali kunlik yuzaga olib chikadi.

Siqilgan havo orqali quduqdan qumni olib chiqish quyidagi tartibda amalgaga oshiriladi. Quduqda joylashgan suyuqliknini havo haydab siqilgandai, halqa oralig’idan ishlatalish tizmasiga va yuvuvchi quvurga yo’naltiradi.

Suyuqlikning ustun balandligiga va kompressor quvvatiga bog’liq holda suyuqliknini siqish alohida porsiyada bajariladi.

Quduq usti quyidagi sxemada jihozlanadi, teskari yuvish uchun quduq ustining kallagiga olib ketib chiqargich o’rnataladi. Tiqinlarni bartaraf qilish uchun chuqurlik nasoslaridan va nasos quvurlaridan yoki plunjерli nasoslardan foydalananiladi.

Suyuqlik sathi pasaytiriladi, NKQ quvur qumli tiqinning ustiga tushiriladi va bunda ishchi bosim kuzatiladi. Quvurning uchiga oldindan nasadka o’rnataladi.

Kirish tiqinlarini to’lib qolishini oldini olish uchun nasadkaning uchidan 10-15 sm masofada 4-6 ta yoriklar kesiladi, har birining uzunligi 5 sm bo’ladi.

Ketma-ket filtr ochiladi, yuvuvchi quvurning uchi quduq tubigacha olib boriladi. Quduqqa havo haydash to'xtatiladi, quvurni ko'tarish boshlanadi, lekin halqa oralig'idagi bosim tushirilmaydi.

Chuqurlik nasosli quduqlarda quvurlar odatda nasosning osilib turadigan joyigacha ko'tariladi, undan keyin quduqdagi bosim pasaytiriladi.

Aeratsiyali suyuqlikka SFM lar qo'shib quduqni yuvish

Bu usul qatlam bosimi past bo'lgan quduqlarda qo'llaniladi, ishlatish davrida tiqin shakllanishi tufayli murakkabliklar ko'p sodir bo'lgan, tiqinlarni paydo bo'lishi yuvuvchi suvlarning qatlamga yutilishi bilan bog'liqdir.

Bunday holatlarda tiqinni yuvish uchun suvning gidrostatik bosimi pasaytiriladi va quduq tubidagi gidrostatik bosim ham pasaytiriladi. Shu bilan birgalikda yuvuvchi suv asosli suyuqlikni yutilishini oldini olish uchun suvhavoli aralashma SFM bilan birgalikda qo'llaniladi.


SFM lar neft-suvni tutash chegaralaridagi tortishish kuchlarini pasaytirish uchun qo'llaniladi (2.54-rasm).

Quduqlarni yuvishda qatlamga qattik suvlarni kirib qolishi natijasida suv neftni quduq tubining zonasidan qatlamning chuqurroq joyigacha siqadi. Natijada ko'p holatlarda g'ovaklik muhitini suv egallaydi va neftning o'tkazuvchanligi esa keskin kamayadi. Shuning uchun neft quduqning tubi tomonga harakatlanishda katta qarshilikka uchraydi.

Neftli qatlamga kirib qolgan suv, to'lig'icha siqib chiqarilmaydi, uni bir qismi quduq tubi atrofida qoladi, quduqni debitini pasaytiradi.

SFM-larning qushimchalari sifatida har xil sulfanol, NaCO₄ tuzi, neogenli deemulgatorlar va boshqalar qo'llaniladi..

Quduqlarni aeratsiyali yuvuvchi eritmalar bilan yuvishning jihozlari quyidagi rasmda tasvirlangan.



3.2-rasm.Quduqdagi qumli tiqinlarni SFM qo'shimchali aeratsiyali eritmalar bilan yuvish

1- havo haydaladigan tizim; 2- sarf o'lchagich; 3- jo'mrak; 4- teskari klapan; 5- aerator; 6- olib ketuvchi quvur; 7- manometr; 8- germetiklash salniki; 9- teskari klapan; 10- yuvuvchi quvur; 11- haydab chiqariluvchi quvurlar; 12- qumli tiqinlar; 13- yuvuvchi agregat nasosi; 14- idish.

Quduqga yuvuvchi quvur tushiriladi, uning boshmog'i qumli tiqindan 10-15 m balandlikda o'rnatiladi. Yuqoridagi quvur vertlyugga biriktiriladi va teskari klapan bilan jihozlanadi.

Teskari klapanlar havo va suv haydovchi tizimga o'rnatiladi, aerator aralashtirib berish vazifasini bajaradi. Quduq ustidan suyuqlik chiqib ketmasligi uchun salnik o'rnatiladi. Suv SFM bilan ishlanadi, yuvuvchi nasosi agregat yordamida aeratorga haydaladi va unga bir vaqtning o'zida tizim orqali havo haydaladi.

Aerotor haydalib chiqishi uchun yuvuvchi shlang bilan ulanadi. Yuvish jarayonini nazorat qilish va boshqarish jo'mragi orqali, sarf o'lchagich, manometr, olib ketgich orqali amalga oshiriladi.

Yuvilgan qumli tiqinlar quvur orasidagi bo'shlik orqali liniyaga to'planadi va u orqali yer ustiga chiqariladi.

Quduqlarni yuvishdan oldin SFM-lar alohida idishda tayyorlanadi.

Suvga ko'shiladigan SFM-larning miqdori quyidagicha (suvga nisbatan %da).

Sulfanol	0,1-0,3
Na ₂ CO ₄ tuzi	1,0-2,0
ОП-7, ОП-10	0,05-0,10
ДС-РАС	0,5+1,0

Suv va havoni nisbatlari qatlamning drenajlashishiga bog'liq holda, quduq tubi zonasining va qatlam bosimini hisobga olib qo'shiladi. Quriyotgan quduqlarni ishlatishda aeratsiya darajasini qatlamning bosimiga bog'liq holda:

Qatlam bosimining gidrostatik bosimga nisbati, % da	60-40	40-25	25-115
1m ³ havo/1m ³ suvni aeratsiya darajasi	15-20	20-30	30-50

Sirkulyatsiya tiklangandan keyin quduqni yuvish boshlanadi.


3.2.1. Qum tiqinini yuvishning gidravlik hisobi

Bu hisob yuvish davomiyligi, bosim yo'qotilishi, yuvuvchi nasos chiqishidagi bosim, sarf etilayotgan kuchni aniqlashdan iborat.

Yuvilgan qumning ko'tarilish tezligi

$$V_q = V_{kir} - V_{yir} \quad (3.17)$$

Bu yerda : V_q - qumlarning ko'tarilish tezligi; V_{kir} - suyuqlik oqimining kirish tezligi; V_{yir} - suyuqlikning yirik zarralarining erkin tushish tezligi.



3.3-rasm. Qum tiqinini yuvish usullari

3.4-jadval

Turli diametrli qum zarralarining suvda o'rtacha tushish tezligi

Qum zarralarining diametri, mm	0,3	0,25	0,2	0,1	0,01
Suvda qum zarralarining o'rtacha tushish tezligi	3,12	2,53	1,95	0,65	0,007

3.5-jadval

V_{kir} qiymatlari 15-jadvaldan olinadi.

Yuvuvchi quvurlardagi suyuqlik oqimining tezligi (sm/s).

Suyuqlik sarfi, l/s	Quvur diametri, mm			
	60	73	89	114
1	49,5	33,1	22,0	12,6
2	99,0	66,2	44,0	25,2
3	148,5	99,3	66,0	37,8
4	198,0	132,4	88,0	50,4
5	247,5	165,5	110,0	66,0
6	297,0	198,6	132,0	75,6
7	346,5	231,7	154,0	88,2
8	396,0	264,8	176,0	100,8
10	495,0	331,0	220,0	126,0
15	742,6	496,6	330,0	189,0

Yuvilgan qum tiqinining chuqurlik N dan yuzaga ko'tarilishi uchun kerak bo'lgan vaqt

$$t = \frac{H}{V_q} \quad (3.18)$$

Ruxsat etilgan yuvish chuqurigi yuvuvchi nasos chiqish qismidagi bosimga bog'liq holda aniqlaniladi, bunda u barcha gidravlik qarshiliklarni bartaraf eta olishi kerak.

To'g'ri va teskari yuvishdagi umumiy gidravlik qarshilik

$$h_{um} = h_1 + h_2 + h_3 + h_4 \quad (3.19)$$

Bu yerda: h_1 - suyuqlik oqimining quyiga harakatlanishiga qarshilik; h_2 - suyuqlik oqimining yuqoriga harakatlanishiga qarshilik; h_3 - suyuqlik oqimining yuqoriga harakatlanishiga qarshilik; h_3 - quvurdagi va quvur tashqarisidagi suyuqlik zichliklarining barqarorlashtirish uchun bosim yo'qotilishi; h_4 - vertlyug va shlangdagi bosim yo'qotilishi.

Qarshilikning barcha kattaliklari metrlarda ko'rsatiladi va qo'yida keltirilgan ifodalar bilan aniqlanadi.

3.6-jadval

Halqadan chiqayotgan suyuqlik oqimining tezligi

suyuqlik sarfi, Vs	Ishlatish quvur diametri, mm														
	114		141		168			194			219				
	Nasos-kompressor quvurlar diametri, mm														
	60	73	60	73	60	73	89	60	73	89	114	60	73	89	114
1	19,7	26,6	10	11,5	6,75	7,4	8,72	4,76	5,0	5,6	7,3	3,4	3,5	3,8	4,5
2	39,4	53,2	20	23,0	13,5	14,8	17,5	9,4	10,0	11,2	14,5	6,8	7,0	7,6	9,0
3	59,	79,8	30	34,5	20,2	22,2	26,2	14,3	15,0	16,8	21,8	10,2	10,5	11,4	13,5
4	78,8	106,4	40	46,0	27,0	29,6	34,9	18,9	20,0	22,4	29,2	13,6	14,0	15,2	18,0
5	98,4	133,0	50	57,5	33,8	37,0	43,6	23,6	25,0	28,0	36,5	17,0	17,5	19,0	22,5
6	118,0	159,6	60	69,0	40,5	44,5	52,3	28,4	30,0	33,7	43,5	20,4	21,0	22,8	27,0
7	137,8	186,2	70	80,5	47,3	51,8	61,1	33,0	35,0	39,2	50,8	23,8	24,5	26,6	31,5
8	157,6	212,8	80	92,0	54,0	59,2	69,8	37,8	40,0	44,8	58,0	27,2	28,0	30,4	36,0
10	197,0	226,0	100	115,0	67,5	74,0	87,2	47,2	50,0	56,0	73,0	34,0	35,0	38,0	45,0
15	295,0	399,0	150	172,5	101,0	111,0	131,0	70,7	75,0	84,0	109,5	51,0	52,5	57,0	67,5

Suv bilan to'g'ri yuvish. Suyuqlik yuvuvchi quvurlar harakatlanishidagi gidravlik qarshilik

$$h_1 = \lambda \frac{H}{d_{ich}} \frac{v_q^2}{2g} \quad (3.20)$$

m suv ustuni.

Bu yerda: h_1 - suyuqlik oqimining quyiga harakatlanishiga qarshilik; λ - suyuqlik oqimining yuqoriga harakatlanishiga qarshilik; λ - gidravlik qarshilik koeffitsiyenti; H - quduq chuqurligi, m; d_{ich} - yuvuvchi quvurning ichki diametri, m; V_{quy_i} - suyuq oqimining sarfi va quvur diametri (2.23-jadval) ga bog'liq bo'lgan tezligi; g - erkin tutishning oshishi, m/s.

Quduq halqasida qumli suyuqliklarning harakatlanishidagi gidravlik qarshilik

$$h_2 = \varphi \lambda \frac{H}{D - d_H} \cdot \frac{v_{chiq}^2}{2g} \quad (3.21)$$

Bu yerda: $\varphi = 1,1 - 1,2$ - suyuqlikdagi qum tarkibiga qarab gidravlik qarshiliklarning oshishini inobatga oluvchi koeffitsiyent. λ - halqada suv harakatlanishdagi gidravlik qarshilik koeffitsiyenti (halqa quvur diametri bo'yicha aniqlanadi, y D ba d_q diametrlar farqiga ekvivalent); D - ekspluatatsion quvur diametri, m; D_t - yuvuvchi quvurning tashqi diametri, m; V_{chiq} - halqadan chiqayotgan suyuqlik oqimining tezligi (2.21-jadvaldan topiladi).

Yutuvchi quvur va quvur tashqarisidagi barqarorlashtirilgan bosim yo'qotilishi h_3 23-jadvaldan aniqlanadi.

Shlang va vertlugdagi gidravlik qarshilik h_4 jadvaldan olinadi.

3.7-jadval

Suv uchun gidravlik qarshilik koeffitsiyenti λ

Quvur diametri, mm	48	60	73	89	114
λ kattaligi	0,04	0,037	0,035	0,034	0,032

3.8-jadval

Quvur ichki va ortida suyuqlik zichliklarini barqarorlashtirishda bosim yo'qotilishi h_3 , m suv.us.

Ekspluatatsion quvur diametri, D_{n9} mm	Yuvuvchi quvur diametri d, mm							
	To'g'ri yuvish				Teskari yuvish			
	60	73	89	114	60	73	89	114
114	19	25	-	-	47	32	-	-
141	15	18	21	-	76	51	35	-
168	14	16	19	27	105	70	47	27
194	13	15	16	21	145	96	64	36
219	-	14	15	18	-	129	86	50

Nasosdan haydash chizig'idagi gidravlik bosim yuvuvchi quvurlardagi qarshiliklarga muqobil ravishda topiladi. Nasos chiqishidagi bosim gidravlik qarshiliklar yig'indisiga bog'liq.

$$P_n = \frac{h_{yu}}{10} = \frac{h_1 + h_2 + h_3 + h_4 + h_5}{10}, \text{ кгс/см}^2 \quad (3.22)$$

Quduq tubidagi bosim

$$P_{qud.tubi} = \frac{(H + h_2 + h_3) P_{suyuq}}{10}, \text{ кгс/см}^2 \quad (3.23)$$

Bu yerda: P_{suyuq} - suyuqlarning nisbiy zichligi.

3.9-jadval

Shtanga va vertlugdagi gidravlik qarshiliklar.

Suv sarfi, l/s	Bosim yo'qotilishi, m suv.us	Suv sarfi, l/s	Bosim yo'qotilishi, m.suv.us.
3	4	7	22
4	8	8	29
5	12	9	36
6	17	10	43

Qumli tiqinni yuvish uchun kerak bo'lgan kuch

$$N = \frac{h_{um} Q P_{suyuq}}{75 \eta_a}, \text{ ot kuchi} \quad (3.24)$$

Bu yerda: Q - nasos ishi, l/s; η_a - yuvuvchi agregatning um. Mexanik F.I.K yuvuvchi agregatning maksimal kuchi

$$K_a = \frac{N100}{N \max}, \% \quad (3.25)$$

Bu yerda: $N \max$ - dvigatelning maksimal kuchi.

Suyuqlarning yuvuvchanlik kuchi

$$P = 2,04 \frac{Q^2}{f_{ts} F}, \text{ kgs/sm}^2 \quad (3.26)$$

Bu yerda: Q - agregat ishi, л/с; f_{ts} - quduqda haydalgan suyuqlarning ko'ndalang kesim yuzasi, см²; F - ekspluatatsion qurvurning ichki kesim yuzali, см².

Suv bilan teskari yuvish. Quvur ortida suyuqlik harakatining gidravlik qarshiligi

$$h_1 = \lambda \frac{H}{D - d_n} \cdot \frac{V_q^2}{2g} \quad (3.27)$$

Nasos-kompressor quvurlarida qumli suyuqlarning harakatlanishidagi gidravlik qarshilik

$$h_2 = \varphi \lambda \frac{H}{d_3} \cdot \frac{V_{yuuq}^2}{2g} \quad (3.28)$$

3.10-jadval

PA8-80 agregatining texnik tavsifi

tezlik	1 min. da dvigatel valining ayl.soni	1 min.dagi nasos porshenning yurishdagi miq.	Nasos ishi (to'lish koef. 0,8 bo'lganda)	nasos chiqishidagi bosim
I	850	36	4,6	80
II		50	6,5	58
III		99	12,8	30

3.11-jadval

AzinMASH-32 agregatining texnik tavsifi

Tezlik	1 min.dagi nasos porshenning yurishdagi miq.	Nasos ishi (to'lish koef. 0,8 bo'lganda)	Nasos chiqishidagi bosim
I	40,8	3,58	160,0
II	64,5	5,56	101,5
III	106,0	9,15	61,6
IV	164,0	14,20	39,8

Shlang va vertlyugda teskari yuvishda gidravlik qarshiligi bo'lmaydi. Haydash chizig'ida h_2 gidravlik qarshilik to'g'ri yuvishdagi singari hisoblanadi.

Keyingi hisoblashlar (nasos chiqish qismidagi bosim, quduq tubi bosimi, kerakli kuch, maksimal kuchni ishlatish % i) xuddi to'g'ri yuvishdagi hisoblashlar singari bo'ladi.

Qumni tiqinlarni neft bilan yuvishdagi gidravlikhisoblar suv bilan yuvishdagi hisoblashlarga muqobil, biroq neft qovushqoqligi ancha yuqori bo'lganda yuvish ko'rsatkichi yaxshilanadi – kam vaqt ketadi va yuvuvchi agregatning kuchi ancha to'liq ishaililadi.

Qumli tiqinlari yuvish uchun PA8-80 va AzinMASH-32 yuvuvchi agregatlari qo'llailadi, ularning ekspluatatsion tavsiflari 2.22-jadvalda keltirilgan.

3.2.2. Qum tiqinlarini oqimli nasoslar yordamida yuvish

Yuvuvchi agregat ishidagi suyuqlikning yuvish kuchi

$$P = 2,04 \frac{Q^2}{fF}, \text{ kgs/sm}^2 \quad (3.30)$$

Bu yerda: Q - agregat ishi, l/s; f - soplaning umumiyo ko'ndalang kesim yuzasi, sm^2 ; F - ekspluatatsion quvurning ichki kesim yuzasi, sm^2 .

Soplaning diametri $I = 4 \text{ mm}$ va soplar soni $h = 3$, maydon $f = 0,38 \text{ sm}^2$, turli diametrlid ekspluatatsion quvurlar uchun bu formula qo'yidagi ko'rinishga keladi:

$D_n = 141$ mm bo'lgan quvur uchun

$$P = 0,044Q^2 \text{ kgs/sm}^2$$

$D_n = 168$ mm quvur uchun

$$P = 0,03Q^2 \text{ kgs/sm}^2$$

$D_n = 219$ mm quvur uchun

$$P = 0,0104Q^2 \text{ kgs/sm}^2$$

PA8-80 yuvuvchi aggregatining ishlashida yuvish kuchi 0,65-5,0 kgs/sm² ni tashkil etadi, bu tiqinning istalgan zichligida qumni yuvish samaradorligini ta'minlaydi. 1 m qumli tiqinni yuvishga ketadigan vaqt qo'yidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$t = \frac{1000V}{60Q_{qum}} + \frac{t_{tiq}}{l} + \frac{HU \left[2F_{BT} + F_{hal}(1+U)(1+\frac{l}{h}) \right]}{(1+U)Q_{suyuq}}, \text{min} \quad (3.31)$$

Bu yerda: $V = \frac{\pi D^2 h}{4}$ - qumli tiqin hajmi, m³; h - qumli tiqin qalinligi, m;

$Q_{qum} = \frac{Q_{suyuq}}{6}$ - suyuqlikdagi qum miqdori; Q_{suyuq} - quduqdan olinayotgan suyuqlik miqdori (minimal $Q_s = 0,75$ l/s), l/s; $t_{tiq} = 3$ min - qalinlikdagi tiqinni yuvish uchun ketgan vaqt; $l = 7m$ - bitta yuvuvchi quvurning o'rtacha uzunligi; $F_{VT} = 60 \times 48mm$ li yuvuvchi quvur markaziy quvurining kesim yuzasi, sm²; F_{hal} - halqa bilan quvur orasidagi kesim yuzasi, sm²; H - quduq chuqurligi; $U = \left(0,125 \frac{F_K}{f} - 0,05 \right)$ nasosning nisbiy sarfi; F_K - aralash kamera yuzasi, sm²; f - sopralarning ko'ndalang kesim yuzasi, sm²; $\frac{F_K}{f} = 1,93$ nasosning asosiy geometrik ko'rsatkichi.

Nasosning ish kuchi (quduqdan suyuqlik olish) 3 marta oshsa (0,75 dan 2,25 l/s gacha) qumli tiqinni yuvish vaqt 2,18 marta kamayadi, asosiy geometrik ko'rsatkich 2 marta kamayadi (bir xil suyuqlikdan olinganda) tiqinni yuvish vaqt 1,28 marta kamayadi.

Shunday qilib, qumli tiqinni tozalash vaqtini kamaytirish quduqdan suyuqlik olishni oshirish va asosiy geometrik ko'rsatkichni $\frac{F_k}{f}$ kamaytirish bilan erishish mumkin.

Birinchi holda, chegaralovchi omil tanlangan yuvuvchi quvur diametri, yuvuvchi nasos chiqishidagi ishchi bosim kattaligi bo'lsa, ikkinchi holda ishchi suyuqlik sarfining yuqoriligidir.

Bundan ko'rinish turibdiki, ekspluatatsion ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun ancha kuchli AzinMASH-32 yuvuvchi agregatini qo'llash kerak.

Tiqinni yuvishda vaqtidan yutish

$$\Delta t = T \left(\frac{t_{suyuq}}{P_1 + t_n + t_j} - \frac{t}{P_2 + t_n + t_{st}} \right), \text{ sut} \quad (3.32)$$

Bu yerda: T - yildagi kalendar kunlar soni; t_j - tiqinni jelonka bilan yuvish uchun ketgan vaqt, kun; t_n - chuqurlik nasoslarini almashtirish uchun ketgan vaqt, kun; P_1 - ta'mirlashlar bilan tozalashlar uchun vaqt orasidagi vaqt; P_2 - ta'mirlash bilan nasos orqali tiqinni yuvish orasidagi vaqt, kun; t_{st} - tiqinni struyniy nasos bilan yuvish uchun ketgan vaqt, kun.

Qum tiqinni gidrobur bilan tozalash

Yuritgichning samarali quvvati

$$N_{sam} = \frac{Pv}{75\eta_{um}} = \frac{PDn}{1433\eta_{um}} ; \text{ ot kuchi}$$

Bu yerda : P - arqon oxirida tortilish kuchi, kgs; $v = \frac{\pi D^2 n}{60}$ - arqonning barabanga; η_{um} - yuritgichdan lebyodkaga uzatishda umumiyl foydali ish koeffitsiyenti; D - arqonning barabanga o'ralish diametri, m; n - bir minutda lebyodka barabanining aylanish soni;

Amaliyotda keng qo'llaniladigan LT11KM traktori ko'targichning texnik tavsifi 3.12-jadvalda berilgan.

3.12-jadval

LT11KM ko'targichning texnik tavsifi

Ko'targich tezligi	Barabanning aylanish soni n, ayl/lin	To'rt qatorli o'ramda tortish qo'llanishi, kgs	Arqonning o'rtacha o'ralish tezligi (4 qatorda)
I	34	6930	0,74
II	54	4360	1,18
III	107	2200	2,34
IV	170	1390	3,72

Gidroburni tushirish va ko'tarish to'g'ridan to'g'ri (tal tizimisiz) bo'lganligi sababli arqonning tortilish kuchi P ko'tarilayotgan yuk og'irligi Q ga teng va arqonning o'ralish tezligi gidroburni ko'tarish tezligiga teng.

Yuk og'irligi

$$Q = qL + G; \text{ kgs} \quad (3.34)$$

Bu yerda: $q = 0,81\text{kgs}$ diametri 15,5 mm bo'lgan 1 metr po'lat arqon og'irligi; L - gidroburning o'rtacha tushirilishi chuqurligi, m; G - qum bilan bilan birga gidrobur og'irligi, kg;

$$G = G_1 + G_2 \quad (3.35)$$

G_1 - gidrobur og'irligi, kg; $G_2 = V_j \rho_{qum} + V_s \rho_s$ gidroburda suv va qum og'irligi; V_j - jelonkaning ishchi hajmi, dm^3 ; ρ_{qum} va ρ_s - qum va suvning zichligi kg/dm^3 ; V_s - nasos silindrida suv hajmi, dm^3 .

Lebyodka barabaniga arqon o'ralishidagi maksimal (gidrobur ko'tarilganda) va minimal (gidrobur quduq tubiga tushirilganda) diametr o'zaro qo'yidagi bog'liqlikda

$$D_{\min} = \sqrt{D_{\max}^2 - \frac{110d_2H}{B-d}}; \text{ sm} \quad (3.36)$$

Bu yerda: D_{\max} - sm.da; d - arqon diametri, sm; H - quduq chuqurligi, m; B - baraban kengligi (bochka uzunligi), sm;

Lebyodka barabanining aylanish chastotasi qo'yidagi tenglama yordamida hisoblanadi:

$$n = \frac{1423N\eta_{um}}{D \min P} \quad (3.37)$$

Bu yerda: N - yuritgichning minimal quvvati, ot kuchi.

Gidroburni o'rtacha tushirilish va ko'tarilish tezligi

$$v_{ur} = \frac{\pi(D_{\max} + D_{\min}) * n}{2 * 60}; m/s \quad (3.38)$$

Bu yerda: n - barabanning aylanish chastotasi (28-jadvalda).

Gidroburni tushirishga ketgan vaqt

$$t_1 = \frac{L}{60v'_{ur}}; \min \quad (3.39)$$

Gidroburni ko'tarishga ketgan vaqt

$$t_2 = \frac{L}{60v'_{ur}}; \min \quad (3.40)$$

Gidroburning bir yunalishga ketgan vaqt

$$t_r = t_1 + t_2 \min \quad (3.41)$$

h qalinlikdagi qum tiqinini tozalash uchun talab qilingan yunalishlar soni

$$n_r = \frac{\pi D^2 h}{4V_j}; \quad (3.42)$$

Bu yerda: D - mustahkamlovchi quvur diametri, dm; n - qum tiqini balandligi, dm; V_j - jelonkaning ishchi hajmi, dm^3 .

Quduq tubini tozalashga ketgan umumiyl vaqt

$$T = t_r * n_r; \text{minut}$$

Tal tizimi osnastkasi va ilgakka tushadigan yuklanishni hisoblash.

Ilgakka tushadigan maksimal yuk Q ko'targich yuritgichi quvvati orqali hisoblanishi mumkin.

$$N = \frac{Q * v_{\max}}{75K_p * \eta_{um}}; \text{ot kuchi}$$

$$\text{Bu yerda: } Q = \frac{75NK_p * \eta_{um}}{V_{\max}};$$

3.2.3. Quduq filtrlari

Filtr ikkita kategoriyada tayyorlanadi.

- a) quduq stvolining o'zida to'g'ridan-to'g'ri tayyorlangan filtrlar (teshish);
- b) yer ustida tayyorlangan filtrlar.

Bunday filtrlarni quyidagi asosiy yutuqlari mavjud:

- 1) suvga to'yingan mahsuldorqatlamlarni yoki mahsuldorqatlamlar oralig'ini yumshoqtog' jinslarini yopishni ta'minlaydi;
- 2) bitta quduqorqali bir nechta qatlamlarni alohidaishlatishni ta'minlaydi;
- 3) quduqlarni ishga tushirishdagi va o'zlashtirishdagi tayyorgarlik ishlarini tezlashtiradi;
- 4) burg'ilash ishlarining harajatini kamaytiradi.

Filtrni yer ustida tayyorlash texnologiyasi.

Quduqlarni ishlatish davrida oquvchan qumli aralashmalarining jadal oqimi tufayli quduqning tubiga o'tirib qolishi sodir bo'lgan. Shuning uchun quduqning debiti pasayib ketadi.

Shuning uchun tizmani 4,5 mm li o'qli perfarator yordamida qaytadan ochish va teshish maqsadga muvofiq emas.

Bunday holatlarda quduqqa tayyor filtrlarni o'rnatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Filtrdagи teshiklarni diametri 1mm bo'lib, umumiylashtirish mumkin bo'ladi.

Filtrlar mustahkamlash quvurlaridan tayyorlanadi va quyidagi turlarga bo'linadi.

- 3) Aylana teshiklifiltrlar;
- 4) Yoriq ko'rinishli filtrlar;
- 5) simli filtrlar;
- 6) knopkali filtrlar;
- 7) halqali filtrlar;
- 8) graviyli filtrlar.

Aylanali teshikli filtrlar sodda bo'lib odatdagи quvurlardan yasaladi. Teshiklarni diametri 0,15 mm-dan 20 mm-gacha bo'ladi. Teshiklar tik holatda joylashtiriladi.

Filtrlarning o'lchamini aniqlash.

Filtrlarga quyidagi talablar quyiladi.

- 1) quduqlarni normal ishlatishda xalakit beruvchi qum va tog' jinslarini o'tkazmaslik;
- 2) filtrni korpusi mustahkam bulishi, tashqi ta'sirda ezilmasligi kerak;
- 3) filtrning o'tkazish qobiliyati yuqori bulishi, quduq debiti iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichidan past bo'lmasligi kerak.

Xulosa

3-bobda qum tiqini paydo bo'lish sabablari, himoya vositalari. gazli va gaz qum yakori hisobi, qum tiqinlarni va uni bartaraf qilish, qum tiqinini yuvishning gidravlik hisobi, qum tiqinlarini oqimli nasoslar yordamida yuvish, qum tiqinni gidrobur bilan tozalash, quduq filtrlari kabi bir nechta usularni batafsil hisobi va nazariyasi to'g'risida ma'lumot berilgan.

Nazorat savollari

1. Qum tiqini paydo bo'lish sabablari.
2. Himoya vositalari.
3. Gazli va gaz yakori hisobi.
4. Qum tiqinlarni va uni bartaraf qilish
5. Qum tiqinini yuvishning gidravlik hisobi.
6. Qum tiqinlarini oqimli nasoslar yordamida yuvish.
7. Qum tiqinini gidrobur bilan tozalash.
8. Quduq filtrlari

IV-BOB. QUDUQ TUBIGA TA'SIR ETISHDA YER OSTI TA'MIRI ISHLARI

4.1.Qatlamni gidravlik yorish jarayoni va unda ishlataladigan jixozlar

Xozirgi kunda respublikada 5ta neft va gazga istiqbolli region mavjud bo'lib bu regionlarda 200dan ortiq konlar ochilgan , shu konlarning 100 dan ortigidan neft, gaz va kondensat olinmoqda. Uzbekistonda shu kunga kelib 3 ta neft va neft mahsulotlarini qayta ishlash zavodlari mavjud. Bu zavodlar Buxoro, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida qurilgan.Neft mahsulotlari qayta ishlangandan so'ng respublika extiyoji uchun ishlatilsa qayta ishlanayotgan gazning 97% i oltigugurtli konlardan olinmoqda. Tabiiy gazning ortib qolgan qismi yoz oylarida Gazli shaxridagi Gazli koniga yuborilib u yerda saqlanadi. Bundan tashkari esportga ham gaz chiqarilmoqda. Respublika gazi Qoraqalpog'iston, Qozog'iston, Turkmaniston, Eron va Rossiya Federatsiyasi orqali Uralgacha yuboriladi.Respublika budgetiga tushadigan bir yillik sof daromad 900 000 000 sumni tashkil etadi. Neftning asosiy qismini Ko'kdumaloq, Shimoliy O'rtabuloq, Kruk konlaridan olinmoqda .Bu konlar Janubiy-Garbiy-Xisor regionida joylashgan.

Konlar 1985 yildan beri ishlataligandan bu yerda ancha murakkab ta'mirlash ishlari olib boriladi.Ta'mirlash ishlaridan asosiylari quduq unumdorligini oshirish ishlardir. Quduq unumdorligini oshirish ishlariga quduq tubiga kislotali ishlov berish, qatlamni gidravlik yorish, termokislotali ishlov beri sh va suv qumli perforatsiya kiradi. Masalan Shimoliy O'rtabuloq va Kruk konlarida quduq tubi atrofi zonasini unumdorligini oshirish maqsadida qatlamni gidravlik yorish ishlari o'tkaziladi.

1. Qatlamni gidravlik yorish jarayonini utkazishdan maqsad: quduq tubi atrofi zonasini o'tkazuvchanligini, qatlamdan quduqqa neft yoki gaz kelishini yaxshilash, agar haydovchi quduq bo'lsa uning suv haydash miqdorini oshirishdir.

Qatlamni gidravlik yorish deganda—quduq tubiga yuqori bosim ostida suyuqlik haydar qatlamdagagi darzliklarni kattalashtirish, yoki yangi darzliklar ochish jarayoni tushiniladi. Hosil qilingan darzliklarga esa katta o'lchamli qum zarrachalari haydaladi.Sababi suv haydash jarayoni tugagandan so'ng bosim tushganda darzliklar yuqorida yotuvchi qatlamlar bosimi ta'sirida qaytib berkilib qolishi mumkin.

Qatlamda Yangi darzliklar hosil qilishdan maqsad neft va gazning darzliklar orqali quduq tubiga oqib kelishini yaxshilashdir.

Qatlamda hosil qilingan darzliklar yoki g'ovaklik kanallar uzunligi bir necha 10 metrgacha bo'lishi mumkin.

Darzliklar qalinligi 1-2mm gacha bo'ladi va ichi katta donador, yuqori o'tkazuvchan tuproq zarrachalari bilan tuldiriladi, bu esa quduq tubida filtratsiya qarshiligini 0 ga yaqinlashtirib quduq unumdorligini bir necha barobar oshiradi.

Qatlamni filtratsiyani oshiruvchi suyuqlik bilan yorishda darzliklar hosil bo'lismeni quyidagicha izoxlash mumkin.

Xar qaysi sementlashgan tog jinslarida kichik (mikro) darzliklar bo'lib, ular tog jinslari bosimi, ya'ni yuqorida yotuvchi qatlamlar bosimi ta'sirida qattiq qisilgan holatda bo'ladi. Bu jinslar amaliyotda o'tkazuvchan emas deb hisobga olinadi. Quduqqa bosim ostida suyuqlik haydaganda suyuqlik birinchi navbatda ochiq darzliklarni filtratsiya qiladi. Bunda vertikal bo'yicha qatlamlarda bosim turlicha bo'lishi kuzatiladi. O'z navbatida o'tkazuvchan qatlamlar va darzliklarda, o'tkazuvchanligi past bo'lgan qatlamlardan kura bosim yuqori bo'ladi. Natijada qatlam osti va usti kuchlari paydo bo'ladi, yuqoridagi qatlamlar deformatsiyasi natijasida mikrodarzliklar kengayadi.

Agar qatlamda tik (vertikal) darzliklar hosil qilinsa u holda filtr hosil qilmaydigan suyuqliklardan foydalaniladi. Bu hol qachonki devor keng bo'lsa qo'llaniladi. Filtr hosil qiladigan suyuqlik bilan qatlamni yorish bosimi filtr hosil qilmaydigan suyuqlik bilan qatlamni yorish bosimidan kichik bo'ladi. Nazariyada qatlamni yorish bosimi tog jinslari bosimidan katta bo'lishi kerak degan faraz yuritilar edi. Praktikada esa qatlamni yorish bosimi tog jinsi bosimidan 1,5-2,5 martagacha kichikligi isbotlandi, ya'ni quduqdagi gidrostatik bosimga yorish bosimi teng bo'lib u quyidagicha:

$$P=(0,15-0,25)10^5 H \quad (4.1)$$

bu yerda P-yorish bosimi (Pa); H-quduq chuqurligi (m).

Qatlamni gidravlik yorish jarayoni quyidagi tartib bo'yicha olib boriladi:

1) qatlamga darzlik hosil qilish maqsadida suyuqlik haydash;

2) qatlamga qum tashuvchi suyuqlikni haydash;

3) qumni bostirish uchun suyuqlik haydash.

Jarayonni utkazish uchun oldindan ishchi va xaydovchi suyuqlik miqdori, ishchi suyuqlikdagi qum miqdori va umumiyl kerakli qum miqdori hisoblanadi

Odatda qatlamni yorish va qum tashish suyuqliklari sifatida birta turdag suyuqlikdan foydalaniladi vabu suyuqlikka yorish suyukligi deb aytildi.

Ikki turdag yorish suyuqliklardan foydalaniladi: uglevodorodli suyuqliklar, suvli qorishmalar, ayrim hollarda esa suv neftli va neft kislotali emulsiyalar ham ishlataladi.

Neft quduqlarida asosan uglevodorodli suyuqliklar ishlatalib bular: xom neft, mazut, dizel yoqilg'isidir.

Suvli qorishmalar asosan xaydovchi quduqlarda ishlatalib bular quyidagilardir: suv, sulfitspirtli suv qorishmasi, salyoniy kislotosi qorishmasi, turli xil ximiyaviy reagentlar qushilgan suv.

Yoruvchi suyuqliklarni tanlashda asosan uning parametrlari-qovushqoqligi, filtratsiyasi, qum yoki boshka donador zarrachalarni osma holda saqlab tura olishi inobatga olinadi.

Agar suyuqlik qovushqoqligi past bo'lsa bosimni kutarish maqsadida yoruvchi suyuqliklarni haydashdan oldin quduqqa bir qism suyuqlik haydaladi. Buning uchun esa bir vaqtning uzida bir necha nasos agregati ishlashini talab etadi. Qatlamni gidravlik yorish jarayonida qovushqoq suyuqlik ishlataladi, chunki qovushqoqliq qancha ortsa quvurlarda xarakatlanayotgan suyuqlikning tazyiq yuqotishi shuncha katta bo'ladi. Natijada bosim oshadi. Suyuqlik qovushqoqligini tanlashda qatlam parametrlari hisobga olinadi. Uning miqdori 50-500 sP (0,05-0,5Pa sek) gacha bo'ladi. Ayrim hollarda esa suyuqlikni zatrubniydan haydashga tugri kelib kolsa uning qovushqoqligi 1000-2000 sP gacha bo'ladi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish kerakki suyuqlik qovushqoqligi qancha katta bo'lsa uning tarkibidagi qum zarrachalari

Chukmay balki suyuqlik tarkibida qoladi.

Yoruvchi suyuqlik kam filtratsiya qobiliyatiga ega bo'lsa bunda darzliklar devorlarga yutiladi va darzliklarni kuproq qum bilan tuldirish imkoniyati yaratiladi. Yuqori qovushqoqlikga ega bo'lgan suyuqliklar filtrlash qobiliyatini kichikroqdir. Xom neftlar va 20°C xaroratga ega bo'lgan mazut qoniqarli filtrlash xususiyatiga ega. Shuning uchun ular qatlamni gidravlik yorish jarayonida tavsiya qilinmaydi.

Qatlamni gidravlik yorishda ishlataladigan suyuqliklarning qovushqoqligini oshirish va filtrlash xususiyatini kamaytirish uchun unga zagustitel qushiladi. Bunday zagustitellarga asosan uglevodorodli suyuqliklar, kislotaning organik tuzlari, neftning kolloid va yuqori bog'lomalari kiradi. Sulfitspirli barda qatlamni gidravlik yorishda keng qo'llanilib ular kam filtrlash xususiyatiga ega. Ular asosan foydalanuvchi quduqlarda ishlataladi.

Qatlamni gidravlik yorishda qum quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) yuqori mustahkamlikka ega bo'lishi-shunday tuproq padushkalarini yaratish kerakki bunda padushka tog jinsi bosimi ta'sirida yemirilmasligi kerak;
- 2) yuqori o'tkazuvchanlikka ega bo'lishi;

Qatlamni gidravlik yorishda diametri 0,5-1,0 mm li kvars qumlaridan ishlataladi. Qatlamga qancha miqdorda qum haydash tog jinslari darzliklari turiga bog'liq: masalan kuchli darzliklarda qum bir necha 10 tonnagacha haydalsa, qumtosh va oxaktoshlarda 8-10, ayrim hollarda esa 20 tonna gacha qum haydaladi. 1m^3 haydalayotgan suyuqlik tarkibida 100-600 kg gacha qum bo'ladi. Agar qum konsentratsiyasi 600 kg gacha bo'lsa u holda suv qum aralashmasini quduqqa haydashda nasosning ish faoliyatiga salbiy ta'sir kursatishi mumkin.

Qatlamni gidravlik yorish jarayoni quyidagicha kechadi. Quduqdagi qatlam yutishi, qatlam bosimi, o'tkazuvchanlik va boshqa bir qator parametrlar aniklanadi. Undan keyin esa qumli, probka, yoki glinali probka yuviladi. Ayrim hollarda quduqqa kislotali ishlov beriladi. Quduqqa 89-114 mm li NKT tushiriladi.

Agar NKT diametri 89mm dan kichik bo'lsa bosim yuqotilishi kuzatiladi. Bosim yuqori bo'lgani uchun quvurlar tebranishi oldini olish uchun quduqqa gidravlik yakor va paker tushiriladi. Quduq usti esa maxsus golovka bilan jixozlanadi.

Qatlamni gidravlik yorish jarayonida ishlar quyidagi tartibda olib boriladi:

- 1) Qatlamni gidravlik yorish jarayoniga tayyorgarlik kurish;
- 2) Pakerning germetikligini sinash uchun quvur orti qismiga yuqori bosimda suyuqlik haydash;
- 3) Quduqqa nasos agregatlari yordamida yorish suyuqligini haydash;
- 4) Quduqqa suyuqlik-qum aralashmasini haydash;
- 5) Bostiruvchi suyuqlik yordamida qumni qatlamga haydash;
- 6) Quduqdagi qum qoldiqlarini yuvish.

Qatlamni gidravlik yorish ishlari yakunlangandan so'ng quduq foydalanishga topshiriladi. Uncha chuqur bulmagan quduqlarda NKT tushirmasdan tugridan tugri foydalanuvchi kolonna orqali jarayon bajarilishi mumkin.

2.Qatlamni gidravlik yorishda ishlatiladigan asosiy agregatlar: 4AP-700, 5AN-700, ANR-700 nasos agregatlari bo'lib, bular KrAZ-257 avtomobili ustiga urnatilgan. Ular yordamida bosimni 700 kg/sm^2 (70MPa) gacha bosimni oshirish mumkin. Agregatning uzatishi 6 l/s, agar bosim 200 kg/sm^2 ga tushirilsa uzatish 22 l/s ga yetadi.

Nasos agregati quyidagi qismlardan tashkil topgan: uzatmalar korobkasi, nasos, manifold, kabina va boshqaruv pulti.

Suyuqliknin qumga kushish uchun qum qushuvchi qurilma agregatlar (smesitelniye agregati) dan foydalaniladi. 3PA va 4PA smesitel agregatlar yuk kutarish qobiliyatları 9 tonna bo'lib, soatiga 50 tonna qumni suvgaga aralashtirish qobiliyatiga ega. Bu agregatlar yordamida turli xil konsentratsiyaga ega bo'lgan yorish suyuqligi tayyorlash mumkin.

Suyuqlik maxsus 4SR, ASN-7,5 va ASN-11 sisternalari yordamida tashiladi. Ularning xajmi 7, 10, 11 tonnadir. Sisternalar MAZ-500 va KrAZ-257 yuk avtomobillariga urnatilgan. Bu sisternalar shuningdek nasos bilan jixozlangan bo'lib, bu nasoslar yordamida suyuqlik smesitel agregatga haydaladi.

Qatlamni gidravlik yorishda quduq usti armaturalari 1AU-700 va 2AU-700 fontan armaturalaridan ishlab chiqariladi. 2AU-700 ning 1AU-700 dan farqi unda 73 va 89 mm li NKT larni tushirish mumkin.

Armatura quyidagi qismlardan iborat: quvur boshi, patrubka, quduq golovkalari, probka kranlari.

Quduq usti golovkasiga 4 ta otvod liniyasi mavjud bo'lib ulardan 3 ta gorizontal otvodlarda tazyikli liniyalar ulangan. 4 ta otvod liniyasida manometr va predoxranitelniy klapan mavjud. Yuqorida kurib utilgan armaturalardan bevosita suv qumli perforatsiyada foydalanish ham mumkin.


Manifold sifatida 1BM-700 agregati ishlatiladi .U ZIL-131 va ZIL-157K yuk avtomobillariga urnatilgan.

4.2. Qatlamni gidravlik yorish

Qatlamni yorishdagi bosim (4.1-rasm)

$$P_{yorish} = P_{vg} - P_{kat} - \delta \text{ kgs/sm}^2 \quad (4.2)$$

bu yerda $P_{vg} = HP_t/10$ - tog'ning vertikal bosimi kgs/sm² (H - quduq chuqurligi m, $P_t = 2,5$ tog' jinslarining o'rtacha zichligi) P_{kat} - qatlam bosimi kgs/sm², δ - jinslarning bosimi kgs/sm², ($\delta = 15$ kgs/sm² qabul qilish mumkin).



4.1-rasm. Gidravlik yorishda yer usti jihozlarini joylashtirish sxemasi

Quduq tubidagi qatlamni yorish bosimini empirik tenglama orqali topish mumkin.

$$P_{yor} = \frac{Hk}{10} \text{ kgs/cm}^2 \quad (4.3)$$

koeffitsiyenti $K = 1,5 \div 2,0$

Ekspluatatsion safda qatlamni yorish vaqtini aniqlashda quduq usti P_u - bosim qabul qilinadi.

Qabul qilingan bosim Lame tenglamasidan topiladi.

$$P_u = \frac{D_t^2 - D_{ich}^2}{D_t^2 + D_{ich}^2} \cdot \frac{G_{ich}}{K} + P_{qat} + \frac{hp}{10} - \frac{Lp}{10} \text{ kgs/sm}^2 \quad (4.4)$$

D_t - ekspluatatsion sarfning tashqi diametri sm; D_v - safning ichki diametri; G_{tek} - po'lat quvurlardagi qabul qilingan mustahkamligi kgs/sm^2 ; K - mustahkamlik koefitsiyenti $K = 1,5$; L - ekspluatatsion saf uzunligi, m; h - ekspluatatsion safda suyuqlik harakatidagi bosim yo'qotilishi; P - qatlamni yorishdagi suyuqlikning zichligi.

Quvur sarfining ustki qismidagi zich rezbadan quduq usti bosimi quyidagicha:

$$P_u = \frac{\frac{P_{str}}{k} - G}{\frac{\pi D_{ich}^2}{4}} \quad (4.5)$$

Bu yerda: P_{str} - qabul qilingan guruh uchun po'lat zichligi cho'ziluvchi kuch uchun; G - ekspluatatsion safni tushirgandagi cho'zilish.

Ikkita topilgan kattalikdan P_u kichkinasi qabul qilinadi. Shu bilan birga ustki bosim orqali quduq tubi bosimi aniqlanadi.

$$P_{tub} = \frac{H_p}{10} - \frac{hp}{10} \quad (4.6)$$

Bu bosim kerakli quduq tubi bosimiga teng bo'lmaydi, yuqorida topilgan tenglamadan ko'pincha oxirgisi kichik bo'ladi.

P_{tub} - bu kattalikdan kelib chiqib, quduq ustida kutilayotgan bosim aniqlanadi.

$$P_u = P_{tub} - \frac{H_p}{10} + \frac{hp}{10} \text{ kgs/sm}^2 \quad (4.7)$$

Agar bu bosim belgilangan bosimdan past bo'lsa, qabul qilingan quvurdagi po'lat guruhi hisoblangan devor qalinligi unda ekspluatatsion saf orqali qatlamni gidravlik yorish taklif etiladi.

Qumning optimal konsentratsiyasi qumning tushishi tezligi va qabul qilingan suyuqlik qum tashqi empirik tenglamadan aniqlanishi mumkin.

$$K_n = 4000/V \quad (4.8)$$

K_n - qumning konsentratsiyasi kg/m^3 ; $b = 0,8 \text{ mm}$ diametri qum donalarining tushish tezligi m/s.

4.1-jadval

Gidravlik yorish ma'lumotlari

Sarf	$\mu = 50spz$						$\mu = 250spz$			$\mu = 5000spz$		
$d = 89mm$												
5	432	111	1,23	1275	0,05	72	255	0,250	360	128	0,5	715
10	864	221	4,9	2550	0,044	252	510	0,125	720	255	0,25	1430
15	1296	332	11,0	3825	0,04	514	765	0,084	1080	384	0,167	2015
20	1728	443	19,7	5100	0,037	850	1020	0,063	1445	512	0,125	2880
25	2160	554	30,7	6375	0,035	1275	1275	0,050	1800	640	0,1	3560
$d = 168mm$												
5	432	27,5	0,0755	760	0,083	3,64	152	0,422	18,6	76	0,833	36,5
10	864	55	0,303	1520	0,042	7,45	304	0,211	33	152	0,422	74,7
15	1296	83	0,69	2280	0,028	11,30	456	0,141	56	228	0,281	113,0
20	1728	110	1,23	3040	0,043	30,90	608	0,105	75	304	0,211	152,0
25	2160	137	1,88	3800	0,04	44,0	760	0,083	91	380	0,169	185,0

Suyuqlik qum tashuvchi qo'yidagicha bo'lishi kerak.

$$V_{jn} = 10^3 G_n / K_n m^3 \quad (4.9)$$

G_n - gidroyorishda qumning haydalayotgan miqdori $T(8-10) t$ qabul qilishadi) lekin bu suyuqliknin hajmi quvurlar kolonnasining sig' imidan ortmasligi kerak.

Suyuqlik hajmi kolonna hajmidan 30% ko'p bo'lishi kerak, bu holatda suyuqlik hajmining quduqqa past bosimda haydalishi kerak.

Gidroyorishni umumiy davomiyligi

$$t = V_p + V_{jp} + V_{pr} / Q \text{ sut} \quad (4.10)$$

Bu yerda: V_r - yorishdagi suyuqlik hajmi m^3 ; V_{jp} - suyuqlik qum tashuvchi hajmi m^3 ; V_{pr} - bostiruvchi suyuqlik hajmi m^3 ; Q - ishchi suyuqliknin o'rtacha isrofi m^3/sut .

Gorizontal yoriqni radiusi empirik radiusi tenglamadan topilishi mumkin:

$$\tau_m = C(q \sqrt{\frac{\mu t p}{K p z^3}})^{0.5} \quad (4.11)$$

C - koeffitsiyent, tog' bosimi va tog' jinslari xarakteristikasiga bog'liq.

6000 m li quduqda 0,025 ga teng, chuqurligi 3000 m li quduqda 0,0173 ga teng; q - yorishdagi suyuqlik sarfi l/s ; μ - yorishdagi suyuqlik qovushqoqligi spz, t - yorishdagi suyuqlik haydash vaqtini min, $K p z$ - quduq zonasidagi jinslarni o'tkazuvchanligi D .

Dyupu tenglamasidan quduq tubi zonasidagi jinslarni o'tkazuvchanligi topiladi.

$$K_{pz} = \frac{Q b \mu \lg \frac{R_k}{r_s}}{23,6 h p \Delta \rho} D \quad (4.12)$$

bu yerda: Q - gidroyurishgacha quduqning debiti t/sut ; b - hajmiy koeffitsiyenti; R_k - quduqning qamrab olish radiusi m ; r_s - quduq tubi radiusi m ; h - qatlamning mahsuldor qalinligi m .

$\Delta P = P_{qat} - P_{tub}$ - quduq tubidagi depressiya kgs/sm^2 , ρ - suyuqliknin zichligi.

Gorizontal yoriqlarni o'tkazuvchanligi qo'yidagicha topiladi.

$$K_t = 10^8 \omega^2 / 12D \quad (4.13)$$

bu yerda: ω - darzlilik eni sm.

U holda quduq tubidagi o'tkazuvchanlik qo'yidagicha bo'ladi:

$$K_{pz} = \frac{K_{qat}h + K_t\omega}{h + \omega} D \quad (4.14)$$

Hamma drenaj sistemasini o'tkazuvchanligi

$$Kg = \frac{K_{qat}K_{pz}l_g R_k / r_s}{K_{pz} \lg R_k / r_s + K_{qat} \lg r_m / r_s} \quad (4.15)$$

Bu yerda: ω - darzlik eni, m; K_{qat} - qatlam o'tkazuvchanligi D ; r_t - darzlik radiusi m.

Darzliklarda bosim yo'qotilishi juda kam bo'lganligi uchun quduqni maksimal debiti gidroyorishdan keyin qo'yidagi tenglama bilan topiladi.

$$Q = \frac{23,6khp \ln \Delta P}{b\mu \lg R_k / r_s} \quad (4.16)$$

Nasos agregatlarini kerakli miqdori $n = q/q_{ag} + 1$ G.K.Maksimov tenglamasidan kutilayotgan gidroyorish mahsuldorligi topiladi.

$$n_{sam} = \frac{\lg \frac{Rk}{r_s}}{\lg \frac{Rk}{rd}} \quad (4.17)$$

4.3. Quduq tubiga xlorid kislota bilan ishlov berish


Suvdagi xlorid kislota miqdori konsentratsiyasi 27,5 %, xlorid kislotali rastvor tayyorlash uchun 4.2.-jadvalga murojaat qilish kerak.

4.2.-jadval

Xlorid kislotali eritma tayyorlash uchun suvdagi xlorid kislota miqdori

Eritilgan kislota hajmi, m^3	Eritilgan kislota konsentratsiyasi						
	8	9	10	11	12	13	14
1	$\frac{3101}{0,73}$	$\frac{360}{0,69}$	$\frac{390}{0,66}$	$\frac{430}{0,62}$	$\frac{470}{0,59}$	$\frac{510}{0,55}$	$\frac{550}{0,52}$

2	$\frac{660}{1,46}$	$\frac{700}{1,39}$	$\frac{780}{1,32}$	$\frac{860}{1,24}$	$\frac{940}{1,17}$	$\frac{1020}{1,11}$	$\frac{1100}{1,04}$
3	$\frac{920}{2,19}$	$\frac{1040}{2,08}$	$\frac{1170}{1,98}$	$\frac{1290}{1,87}$	$\frac{1410}{1,76}$	$\frac{1530}{1,65}$	$\frac{1650}{1,56}$
4	$\frac{1230}{2,92}$	$\frac{1390}{2,78}$	$\frac{1560}{2,64}$	$\frac{1720}{2,49}$	$\frac{1880}{2,34}$	$\frac{2040}{2,21}$	$\frac{2200}{2,08}$
5	$\frac{1530}{3,65}$	$\frac{1740}{3,47}$	$\frac{1940}{3,30}$	$\frac{2150}{3,11}$	$\frac{2360}{2,98}$	$\frac{2570}{2,75}$	$\frac{2780}{2,57}$
6	$\frac{1840}{4,38}$	$\frac{2090}{4,17}$	$\frac{2330}{3,96}$	$\frac{2580}{3,73}$	$\frac{2830}{3,52}$	$\frac{3080}{3,31}$	$\frac{3320}{3,40}$
7	$\frac{2150}{5,12}$	$\frac{2440}{4,86}$	$\frac{7220}{4,62}$	$\frac{3000}{4,36}$	$\frac{3300}{4,11}$	$\frac{3600}{3,86}$	$\frac{3900}{3,58}$
8	$\frac{2460}{5,84}$	$\frac{2780}{5,56}$	$\frac{3110}{5,28}$	$\frac{3440}{4,98}$	$\frac{3770}{4,68}$	$\frac{4080}{4,42}$	$\frac{4400}{4,16}$
9	$\frac{2760}{6,57}$	$\frac{3140}{6,25}$	$\frac{3500}{5,94}$	$\frac{3870}{5,60}$	$\frac{4240}{5,28}$	$\frac{4610}{4,96}$	$\frac{4980}{4,65}$
10	$\frac{3080}{7,30}$	$\frac{3480}{6,95}$	$\frac{3890}{6,60}$	$\frac{4300}{6,27}$	$\frac{4720}{5,87}$	$\frac{5140}{5,50}$	$\frac{5560}{5,14}$



4.2.-rasm. Kislotali vanna jarayonida kislotali eritmani haydash sxemasi


Xlorid rastvori uchun W_k xlorid kislotasini konsentratsiya miqdori, $NSI > 5,15\%$ mavjudligi qo'yidagi tenglama orqali topiladi.

$$W_k = AXW(B - Z) / BZ(A - X) \quad (4.18)$$

bu yerda: A va B - koeffitsiyentlar;

4.3-jadvaldan aniqlanadi.

Kislotali rastvor hajmi m^3 .



4.3-rasm. Kislotali ishlov berishda yer usti uskunalarining joylashish sxemasi

4.3-jadval

Turli sharoitda A va V koeffitsiyentlar qiymati.

Z, X	B, A	Z, X	B, A
5,15-12,19	214	29,95-31,52	227,5
13,19-18,11	218	32,10-33,40	229,5
25,75-29,57	226	34,42-37,22	232

Unikolning (ingbitorli) kerakli miqdori:

$$Q_u = 74xbW / A - X, 1 \quad (4.19)$$

b - xlorid kislotaga unikol qo'shilmasi %, U - 2 markali unikol qo'shilmasi 5% ga teng deb olinadi. $M - H$ markali 1%, $U - K$ markali 0,3% A va W kattaliklar ko'rsatilgan miqdorda yuqori olinadi.

Temir tuzini stabillash uchun uksus kislotasi kerakli miqdori.

$$Q_{u,k} = 1000bW / c.1 \quad (4.20)$$

Bu yerda: c - tovar uksus kislotasini konsentratsiyasi; W - xlorid kislota eritmasini hajmi m^3 ; B - eritma hajmiga uksus kislotasi qo'shimcha % larda eritmadagi kislota mavjudligi).

Tog' jinsidagi kremniy birikmalarini eritish uchun va unda hosil bo'ladigan kremniy kislotasi gelini stabillash uchun HF kislotasi miqdori.

$$Q_{p/k} = 1000bW / m,1 \quad (4.21)$$

Bu yerda: b - xlorid kislota eritmasi hajmiga qo'shiladigan (3-6%) HF kislota %, m - tovar kislota konsentratsiyasi odatda ($m - 60\% HF$).

Tovar xlorid kislotasi tarkibida xlorid kislotasi kislotasi reaksiyasidan so'ng hosil bo'lувчи gipsni stabillash uchun xlorli bariy miqdori.

$$Q_{x,b} = 21,3W(AX / Z - 0,02)kg \quad (4.22)$$

Bu yerda: a = tovar xlorid kislotasidagi SO_3 miqdori, %.

Hamma qo'shiladigan reagentlar hisobi bilan aniqlashtirilgan suv miqdori qo'yidagicha bo'ladi.

$$V = W - W_k - \sum Q, m^3 \quad (4.23)$$

Xlorid kislota eritmasi hajmi m^3 . W_k - konsentrangan xlorid kislota hajmi m^3 . $\sum Q$ - barcha qo'shimchalar umumiy hajmi (ingibitor, stabilizator, intensifikator) m^3 .

Agar tayyorlangan xlorid kislota eritmasi konsentratsiyasi berilgandan yuqori bo'lsa, u holda qo'shiladigan kerakli suv miqdori qo'yidagi tenglama orqali aniqlanadi.

$$q_b = \frac{(\delta_2 - \delta)W}{\delta - 1} "3 \quad (4.24)$$

Agar olingan konsentratsiya past bo'lsa, unda qo'yidagi miqdorda xlorid kislotasi qo'shish kerak.

$$qk = \frac{(\delta - \delta_1)W}{p - \delta} m^3 \quad (4.25)$$

Bu yerda: $\delta_1\delta_2$ - pasaytirilgan va oshirilgan tayyorlangan eritma konsentratsiyasini nisbiy zichligi; ρ - konsentrangan xlorid kislotsasi nisbiy zichligi; α - kerakli eritma konsentratsiyasini nisbiy zichligi.

4.4. Quduq tubiga termo-kimyoviy ishlov berish

Xlorid kislota eritmasi temperaturasini oshirish uchun ximiyaviy reagent sifatida qo'llanuvchi metall magniyning miqdorini topamiz:

$$Q_m = \frac{W(t_k t_n)}{6,03} \text{ kg} \quad (4.26)$$

W - xlorid kislotsasi eritmasi hajmi m^3 ; t_k - eritmani isitish yakuniy temperaturasi; t_n - eritmasining boshlang'ich temperaturasi $6,03=4520/1000 * 0,75$ aniqlangan koeffitsiyent (4520 kkall 1 kg metall magnitdan ajraladigan issiqlik miqdori $0,75$ xlorli magniy suvli eritmasi issiqlik sig'imi ($\text{kg} * \text{s} * 1000$ o'lcham birligiga uzatma) kislotali eritmasini to'la neyrallahsh uchun kerak bo'lgan magniy miqdori.

$$Q_m = \frac{3,33 A x W}{A - X} \text{ kg} \quad (4.27)$$

A jadval bo'yicha aniqlanadigan koeffitsiyent X - xlorid kislotasini eritmasi konsentrasiysi %.

Shu tenglamaning o'zidan kislotali eritmaning magniy eritish uchun neytralizatsiyaga sarflangan foiz miqdorini hisoblash mumkin.

$$x = A * Q_m / 333 A W + Q_m \quad (4.28)$$

Berilgan oraliqda kislotali eritmaning konsentratsiyasini pasaytirish uchun talab qilingan magniy miqdori qo'yidagicha aniqlanadi:

$$Q_m = 3,33 W \left(\frac{A_1 X_1}{A_1 - X_1} - \frac{A_2 * X_2}{A_2 - X_2} \right) \quad (4.29)$$

Bu yerda: A_1 va A_2 - jadvaldan aniqlanadigan sonli koeffitsiyentlar; X_1 va X_2 - kislotali eritmaning boshlang'ich va qoldiq konsentratsiyasi;

Eritmaning qoldiq konsentratsiyasi miqdori ning qiymatlarini belgilab, quduq tubiga termokimyoviy ishlov berishda zarur bo'lgan boshlang'ich konsentratsiyani hisoblash mumkin.

$$X_1 = A_1 B / A_1 + B \quad (4.30)$$

B qo'yidagi ifodadan topiladi:

$$B = \frac{Q_m}{3,33W} + \frac{A_2 X_2}{A_2 - X_2} \quad (4.31)$$

X_1 konsentratsiyali W hajmdagi eritmani tayyorlash uchun zarur bo'lgan tovar kislota miqdori W_k qo'yidagicha hisoblanadi:

$$W_k = W_1 / a, m^3 \quad (4.32)$$

a - o'tkazuvchi koefitsiyent 32-jadvaldan topiladi.

4.4-jadval

Eritilgan kislota konsentratsiyasi	Tovar kislota konsentratsiyasi, %						
	31	30	29	28	27	26	25
6	4,325	4,160	4,000	3,847	3,690	3,537	3,392
9	3,820	3,680	3,540	3,400	3,260	3,130	3,000
10	3,420	3,295	3,173	3,047	2,920	2,800	2,686
11	3,100	2,980	2,870	2,755	2,645	2,535	2,430
12	2,825	2,720	2,615	2,514	2,412	2,310	2,217
13	2,600	2,500	2,408	2,312	2,217	2,125	2,038
14	2,400	2,310	2,227	2,135	2,047	1,964	1,883
15	2,230	2,145	2,067	1,983	1,903	1,824	1,750

Unikal magniyning kislota bilan reaksiyasini sekinlashtirish sababli termokimyoviy ishlov berishda ingibitor sifatida qo'yidagi miqdorda formalin qabul qilinadi.

$$Q_f = \frac{11000xW}{(440+u)u}, kg \quad (4.33)$$

Bu yerda: u - formulaning 40% li konsentratsiyasi.

Kislotali ishlov berishda sirt-faol moddalaridan foydalanish kislotali eritmaning darzliklarda bir tekisda taqsimoti kislota bilan tog' jinslari orasidagi reaksiyani sekinlashtirish va ishlov berish doirasi radiusini oshirishni ta'minlaydi.

Reaksion uzatkichning uzunligi

$$l = \frac{G}{g}; m \quad (4.34)$$

4.5. Quduq tubiga elektr issiqlik bilan ishlov berish

Quduq tubi haroratini yuqori darajada ushlab turish parafin qatronlarni qotib qolishini oldini oladi va quduq tubi o'tkazuvchanligini pasayishiga yo'l qo'y maydi, bunda quduqqa oqib kelayotgan neftning qovushqoqligi pasayishiga erishiladi. Buning natijasida quduq debiti ancha yuqori darajada ushlab turiladi.

Quduq tubini vaqtı-vaqtı bilan qizdirish natijasida uning harorati doimiy tushib boradi va uning ko'rsatkichlari boshlang'ich holatga yetishi mumkin, buning natijasida quduq tubida qaytadan parafin-qatron moddalarning to'planishi va uning sizdirish xususiyatlarining yomonlashishaga olib keladi. Shuning uchun bunday ishslash tez-tez amalga oshirib turiladi. Eng yaxshi natijalarga chuqurlik nasoslari bilan birga quduqqa tushiriluvchi statsionar isitgichlarni qo'llaganda erishiladi, bunda quduq debitini uzluksiz yuqori darajada ushlab turishi ta'minlanadi.

Amaliyotda elektr issiqlik bilan ishslashni hisoblashda quduq tubidagi o'rtacha haroratni yoki yonish oxiridagi harorat farqlari, yonishning davomiyligi, isitgich kuchi va boshqa qator ko'rsatkichlarni aniqlash talab qilinadi. Buning uchun avval o'lchamsiz quduq radiusi aniqlanadi:

$$R_K = \frac{r_q}{h} \quad (4.35)$$

bu yerda: r_q - quduqning haqiqiy radiusi, m; h - qatlam qalinligi, m.

So'ng Fure ko'rsatkichi aniqlanadi:


$$F_0 = \frac{\lambda_q t}{C_q h^2} \quad (4.36)$$

Bu yerda: λ_q - qatlamning issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti, kkal/m·soat°S; t - yonish davomiyligi, soat; C_q - qatlamning issiqlik hajmi, kkal/m·soat°S.

O'rtacha o'lchamsiz harorat

$$\bar{T}_1^* = k \bar{T}^* = k \frac{\Delta \bar{T}_{o'r} \lambda_k h}{N} \quad (4.37)$$

Bu yerda: k - qatlam jinslariga tarqalib kelayotgan issiqlikni inobatga oluvchi tuzatma koeffitsiyent (ochiq quduqqasi $k = 1,5$); $\Delta \bar{T}_{o'r}$ - quduqdagi o'rtacha (qaliklik bo'yicha) ortiqcha harorat, °S; N - isitgich kuchi, kVt; \bar{T}_1^* - qiymati hisob diagrammalaridan topiladi (4.4-rasm).



4.4-rasm. Elektr isitgichning ish rejimini hisoblovchi diagramma

Yonish oxiridagi o'rtacha haroratni qo'yidagi tenglama orqali topiladi:

$$\Delta \bar{T}_{o'r} = \frac{\bar{T}_1^* N}{k \lambda_k h} \quad (4.38)$$

Quduq tubi yonish davomiyligini aniqlash uchun hisob diagrammasidan \bar{T}_1^* va $R_{o'r}$ qiymatlari bo'yicha (55-rasm) Fure F_0 ko'rsatkichi topiladi.

Quduq tubi yonish davomiyligi qo'yidagiga teng (soat):

$$t = F_0 \frac{C_k h^2}{\lambda_k} \quad (4.39)$$

Elektr asboblarni tanlashda kabeldagi kuchlanish yo'qolishi va qalinlikni bilash kerak, u esa elektr isitgichlarning turi, kuchi va kuchlanishi, kabelning kesimi va uzunligiga bog'liq.

4.6. Quduq tubi zonasida va nasos-kompressor quvurlari devorida parafin yig'ilishiga qarshi kurashishda yer osti ta'miri ishlari

Parafin yotqiziqlarini hosil bo'lishini oldini olish va quduqlarini mu'tadil ishlashi uchun har xil usulardan foydalaniladi. Parafin yotqiziqlarini hosil bo'lishini bartaraf etishda asosiy quyidagi usullarni aytib o'tishimiz mumkin.

1.Mexanik usul:

- a) po'lat arqon orqali NKQ ichiga tushiriladigan purjinali skrebka;
- b) NKQ lari tizmasini parafinlashgan qismini yer yuzasiga chiqarib skrebka yordamida tozalash;
- v) "uchuvchi skrebka" deb ataluvchi avtomatik skrebkani qo'llash orqali.

2.Issiqlik usullari:

- a) quvurlar uzatmasini, quvurlar ortidan qizdirilgan bug' bilan qizdirish;
- b) issiq neft haydab quvurlarni qizdirish;

3.Ichki qismi shisha bilan epoksidli smola yoki emal qoplangan quvurlardan foydalanish.

4.Parafin yotqiziqlarida har xil turdag'i erituvchilardan foydalanish.

5.Kimyoviy qo'shimchalar qo'shish orqali parafinning quvur devoriga yopishishini oldini olish.

Parafin yotqiziqlarining hosil bo'lish intensivligi, ularning mustahkamligi, tarkibi va boshqa xususiyatlardan kelib chiqib, har xil turdag'i usularni va almashlab qo'llaniladi.

Parafin yotqiziqlari bilan kurashish

Qatlam sharoitida parafin yotqiziqlari tarkibida uchraydigan og'ir uglevodorodlar ($C_{17}H_{36} - C_{60}H_{122}$) neftda erigan holda uchraydi. Harorat va bosim pasayishida va gazsizlangan neftda parafin erishi pasayadi. Natijada neft parafinga o'ta to'yinadi va parafinning bir qismi kristall holatga o'tadi. Neft oqimida uskunalar devorida parafin kristallanishi sodir bo'ladi.

O'zaro aralashuvchi fazalar (neft-parafin-uskunalar yuzasi) ning fizik-mexanik tavsifiga muvofiq parafin yotqiziqlariga qarshi kurashish usullari qo'yidagilarni hisobga oluvchi uch guruhg'a bo'linadi:

I - neftda parafinning eruvchanligi;

- yotqiziqlar mustahkamligi va strukturaviy mexanik xossalari;
- yuzaga nisbatan parafin kristllari adgeziyasi va oqim yordamida kristallni uzish kuchlanishi.

Ishlatiladigan uskunalar turi, quduqlarni ishlatish usuli, neft va parafin yotqiziqlarining fizik-kimyoviy xosslariga bog'liq holda neft va gaz sanoati korxonalarida parafin bilan kurashishining turli usullari qo'llaniladi. Tebratma dastgohlar bilan jihozlangan quduqlarda nasos-kompressor quvurlaridagi parafin yotqiziqlari maxsus qirg'ichlar yordamida tozalanadi.

Plastinkali qirg'ichlarni qo'llashda nasos uchkunalarini balansir kallagiga osiladigan shatnga aylantirgich bilan jihozlanadi. Bu qirg'ichlarda asosiy kiruvchi qismi qirg'ich qalinligi bilan belgilanadi. Quvur devorlaridan parafin shtanga kolonnasi harakati natijasida tozalanadi. Shtanga aylantirgich yordamida shtanga aylanishida qirg'ich boshqa sharoitga o'tadi. Shtanga safini yig'ish uchun kerak bo'lган qirg'ichlar soni n qo'yidagi ko'rinishda hisoblanadi:

$$n = \frac{H}{l + l_q - l_n} \quad (4.40)$$

bu yerda: H - qirg'ichlar tushuriladigan chuqurlik; l - silliq shtokning harakat uzunligi; l_q - qirg'ich uzunligi; l_n - vertikal bo'yicha berkitiladigan zona uzunligi.

SK turidagi tebratma – dastgoh bilan jihozlangan quduqlarda parafin yotqiziqlari bilan kurashish maqsadida qo'yidagi tadbirlar bajarilishi mumkin:

- himoyalovchi qoplamlarni qo'llash;
- neft oqimiga poleetilenli gel qo'shish;
- quvurlarni issiq neft va eritgichlar bilan yuvish;
- quvurlarni isitish.


4.5-jadval

Quvurlarni tozalashda qo'llaniladigan suyuqliklar tavsifi

Ishlov berish turi	Eritma tarkibi	Talab qilingan miqdor, g/l	Ishlov berish muddati, min
Ishqoriy eritmalar bilan moysizlantirish	Triynatriyfosfat uyuvchi natriy suyuq shisha kalsiynirlangan soda	35 80 15 75	5-10
Oksidlarni, kislo-tali eritma va neft mahsulotlari b-n ifloslanishini yo'qotish	Ortofasfat kislotasi Xlorid kislotasi sirt-faol moda KMS uayt-spirt	80 50 2 3 300	5-8 xaropat 20-25C
Oksidlarni yo'qotish	Osh tuzi	150	10 t=60C

Quvur o'tkazgichlarda parafin yotqiziqlari bilan kurashish

Himoya qoplamasiz quvur o'tkazgichlarda va yig'ma quvurlarda qish oylarida parafin yotqiziqlari bilan kurashish uchun quvur seksiyalariga o'xhash sovutkich kristallizatorlar qo'llaniladi (4.5-rasm).



4.5-rasm. Sovutgich-kristallizator moslamasi sxemasi

Bu moslamadan o'tganda neft sovutiladi va uning fazoviy muvozanati buziladi. Bunda parafinning asosiy massasi himoya qoplamasidan qotib qoladi. Qoplamadagi bu parafin suyuqlik oqimi bilan uzilib ketiladi.

Kristallizatorlarda neft oqim haroratigacha sovutiladi.

Kerakli harorat ishlovchi seksiyalar soni o'zgarishi bilan ta'minlanadi.


Seksiyalarning zarur bo'lgan umumiyligi uzunligi qo'yidagicha hisoblanadi:

$$L = \frac{41,6 Q G \Delta t}{[(2h_p + \sigma_p) \sigma_k E_n + (nD_{o,r} - n\sigma_p) k] \Delta t} \quad (4.41)$$

bu yerda: G -sovutiladigan neft miqdori, t/sut; C - issiqlik sig'imi; $\Delta t = t_n - t_k$; h_p - qirra (qovurg'a) balandligi; σ_k - konveksiya orqali issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti; σ_p - qirra (qovurg'a) qalinligi; K - quvurni silliq qismining issiqlik o'tkazish koeffitsiyenti; E - qirra (qovurg'a)ning samaradorlik koeffitsiyenti; n - uzun qirra (qovurg'a) lar soni; $D_{o,r}$ - kristallizator quvurining o'rtacha diametri.

$$\Delta t = \frac{t_n + t_k}{2} - t_0 \quad (4.42)$$

Diametri 51 mm, qalinligi 3 mm balandligi 40 mm bo'lgan sakkizta uzun qirra (qovurg'a) uchun sovutkich katalizatorlarning umumiyligi nomogrammadan (57-rasm) aniqlanishi mumkin. $t_0 = -12^{\circ}S$; $t_n = 14^{\circ}S$; $t_k = 4^{\circ}S$; $G = 50t/sut$; neftning suvlanganligi 20% bo'lgan sharoit misol tariqasida keltirilgan. Kristallizatorni qo'llash hohlagan diametrda quvurda parafin yotqizig'i hosil bo'lشining oldini oladi.



4.6-rasm. Sovutgich-kristallizator seksiyasi umumiyligi aniqlash uchun diagramma

Quduq devorida yig'ilgan paraffinni skrebok yordamida tozalash

Neft qazib olish davomida quduqdan chiqayotgan neftning tarkibidagi parafinli birikmalarga, qaysiki tarkibiga bir qancha moddalar kiradigan murakkab tuzilishli fizik –kimyoviy birikmali uglevodordlar tushiniladi.

Birinchi navbatda - parafining uzi, ya’ni uglevodorod metan qatorlariga kiruvchi $C_{16}H_{34}$ dan $C_{64}H_{130}$ gacha, shuningdek asfalsmolali birikmalar, silikagli smolalar, yog’ , suv, mexanik aralashmalarni uz ichiga oladi.

Parafin massasidagi ayrim komponentlarning mavjud bo’lishi neft uyumlarining hosil bulish sharoiti va tasnifiga bog’liq holda har xil bo’ladi.

Umumiy qabul qilingan texnologik tasniflarga ko’ra, neftning tarkibidagi parafinlar miqdoriga kura quyidagi kurinishga bulinadi:

kamparafinli 1,5 % dan kam (massasi bo’yicha)

parfinli 1,5 dan 6 % gacha (massasi bo’yicha)

yuqori parafinli 6 % dan katta (massasi bo’yicha)

Parafinlarning qattiq holatidagi zichligi 865 kg/m^3 dan 940 kg/m^3 gacha uzgaradi, erigan holatdagisi esa 777 dan 790 kg/m^3 ga teng.

V.P.Tronov sirt yuzasiga yopishqoqoligiga ta’sir etishi mumkin bulgan bir qator faktorlarni sanab utdi, bularning qatoriga quyidagilar kiradi: sirt va zaralarning o’zaro ta’sir etish tabiat, zarralarning shakli va ulchami, zarralarining ajralib chiqayotgan muhitning tabiat, eritmadagi SFM mayjudligi va absorbsiya jarayoni, yuqoriga oqib chiquvchi mahsulotlarini fazalarga ajralishi, tutash vaqt, muhitning harorati.

Yopishqoqlik kuchini B.V.Deryagina formulasi orqali ifodalaymiz.

$$N = - \frac{2\pi}{\sqrt{\epsilon}} f_0 \quad (4.43)$$

bu yerda ϵ , ϵ' – tutash sitrning g’adir-budirligi; f_0 – sirt kuchlanishlar yig’indisi

$$f_0 = \sigma_{12} - \sigma_{13} - \sigma_{23} \quad (4.44)$$

bu yerda σ_{12} – sirt kuchlanishi tutash yuza bilan zarralarning uzaro ta’sir chegarasi; σ_{13} – mos keluvchi zarralarning atrof muhit sirti va ajralish chegarasi sirt kuchlanishi.

Sfera va tekislik uzaro ta'siri quyidagiga teng.

$$N = 2\pi r f_0, \quad (4.45)$$

bu yerda r – sferik zarraning radiusi.

Ayrim tadqiqotlar natijasida parafinlarining hosil bulish omili – haroratning pasayishidir. Ushbu sharoitdan kelib chiqib VNII neft tomonidan qatlam sharoitida parafinlarining fazaviy holatini bashoratlash uchun kursatmalar ishlab chiqilgan.

Neftning parafinga to'yinish harorati asosiy sharti sifatida $T_{t\ddot{y}\ddot{y}}$, qaysiki neft tarkibidan ommaviy qattiq fazalarining ajralishi boshlanadi.

$T_{t\ddot{y}\ddot{y}} = T_{k\ddot{a}t}$ da (bu yerda $T_{k\ddot{a}t}$ – qatlam bosimi) neftning parafin to'yinishi, $T_{k\ddot{a}t} - T_{t\ddot{y}\ddot{y}} < 10$ da neft tuyinishga yaqin, $T_{k\ddot{a}t} - T_{t\ddot{y}\ddot{y}} > 10$ da neft parafinga to'yinmagan holda deb qabul qilamiz.

Ilmiy izlanishlar tajribalari asosida, gatsizlantirilgan neftning parafinga to'yinishi $T_{t\ddot{y}\ddot{y} \Gamma}$, tarkibida parafinni mavjud bulishii bog'liq ifodani hosil qilamiz.

$$T_{t\ddot{y}\ddot{y} \Gamma} = 70,5 \exp^{3.686/N} \quad (4.46)$$

Parafinning fazaviy mavjud bo'lishiga qatlam bosimi va gazmavjud bulishini hisobga oluvchi tenglama quyidagiga teng.

$$T_{t\ddot{y}\ddot{y}} = T_{t\ddot{y}\ddot{y} \Gamma} + 0,2 p_{k\ddot{a}t} - 0,1 \Gamma \quad (4.47)$$


Quduq tubidagi va tanasida ajralib qoladigan neft tarkibidagi parafin qoldiqlaridan tozalashning issiqlik, fizikaviy, kimyoviy, mexanikaviy usullaridan foydalaniladi. Ayrim konlarda ekperimental sifatida vibratsiali va magnitli usullaridan foydalanamiz.

Mexanikaviy usullar

Mexanik usullar asosan nasos kompressor quvurlarida (NKQ) oldindan qotib qolgan parafinlarini ASPO tozalash. Bu ishlarni bajarish maqsadida har xil turdag'i skrebkalar ishlab chiqilgan.

Birinchi bo'lib qo'llanilgan skrebka sifatida, qayirilgan shtanga va uning sirtida harakatlanadiagn disksimon pichoqdan tashkil topgan bo'ladi. (1-rasm). Qurilma qduqq'a shtanga yoki metal arqonda tushiriladi. Tushirish boshida

pichoq shanganing qayirilagan joyigacha kutariladi va vertikal holatni oladi. Bu holat uning quduqqa erkin tushirish imkonini beradi. Kutarish vaqtida disk pastga tushib va gorizontal holatni oladi, NKQ devorini ASPO dan tozalaydi. Skrebka shtanga yoki metal arqonda tushiriladi. Ushbu tozalash usulning kamchiliklaridan biri davriy tez tez amalga oshirish lozim. Uni amalga oshirayotgan vaziyatda, NKQ larini kutarishda tiqin hosil bulishi mumkin. Yon tomonli kesish pichog'i bilan jihozlangan skrebka (2-rasm), birlamchi holatda kesim yuzasi uzgarmaydigan qilib yon pichoqlari urnatilgan edi va ixtirochilarining fikricha u yuqori va pastga harakatlanganda parafinni kesib tozalash lozim edi




4.7-rasm. Shtangali skrebka
NKQ: 1-shtanga; 3-disk; 3-kutarilish holatidagi disk; 4- tozalanilayotgan quvur

4.8-rasm. Skrebka: 1- sterjen; 2- xomut; 3-pichoq kundlang kesim **Skrebka davriy parfinlardan tozalash:** 1- plastina; 2- tushirilish holatidagi uzaruvchan pichoq skrebka

U uzi tushirilayotgan arqon bilan tiqilib qolib, uzilib ketadi, bu esa NKQ ni kutarib olishga tug'ri keladigan, kupgina murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Uzgaruvchan kesimli skrebkalar (4.7-rasm) tuzlishida pichoqlar harakatchan qilib ishlangan: ularni tushirish vaqtida kundalang kesimmi kichrayib, kutarishda esa kattalashadi. Skrebkani tushirish qul lebedkalari bilan mamlga oshiriladi bu esa uzoq va murrakablashishiga olib keladi.

So'ngi yillarda ushbu jarayonlarini injenerlar va konstruktorlar tomonidan ularni mexanizatsiyalash va avtomatlashirish yo'naliishlarida ish olib borilmoqda. Bu uchun "VNIIKAneftgaz" kompleks uskunlar ishlab chiqdi, ya'ni uning tarkibiga skrebkaning tushirish jarayonini, tushirilish vaqtini, avtomatik lebyodkalarining ish holatini nozarat qilish datchiklarni uz ichiga oladi.

Ushbu majmua avtomatlashirilgan parfinsizlantirgich qurilmasi deb ataldi va uzoq vaq davomida konlarda ishlatilib kelmoqda (hozirgi vaqtida ham) (4.9-rasm). Shu bilan bir qatorda favvoralanish oqimi energiyasi hisobiga ishlovchi skrebkalar yaratish ustida ishlar olib borilmoqda. BashNIPIneft tomonidan "uchadigan" (5-rasm) skrebka deb ataladigan avtomatlashirilgan konstruksiyasi ishlab chiqildi. Skrebka qanotli-pichoqlar bilan jihozlangan bulib, u pastga harakatlanish vaqtida yig'iladi va yuqoriga harkatlanish vaqtida ochiladi. Shu bilan skrebka kutarish kuchi bilan ta'minlangan. Skrebkani yuqori va past ishchi holatini ta'minlash quyi va yuqori tugunlaridagi uchirib qushkichlar tomonidan amalga oshirilgan, NKQ tizmasi va quduq usti armaturasiga urnatilgan bo'ladi



4.9-rasm. Parafinsizlashtirish ADU-3 qurilmasining shartli qurilma tarxi (sxemai): 1-induksin qabul qilish va uzatish qurilmasi DI-3; 2- lubrikator; 3- skrebka; 4- xomut; 5- kronshteyn; 6- grundbuksa; 7- zichlagich; 8- prujina; 9- rolikning richagi; 10- taranglashtiruvchi rolik; 11- boo'qarish bloki; 12- lebyodka barabani; 13- xrapovik; 14- ukladchik; 15- halqa; 16- prujina; 17-

kallak (golovka); 18- chervyak; 19- hisoblagich tuguni; 20- tomoz dastagi; 21- mufta; 22- elektrodvigatel




Рис. 7.21. Автоматический скребок б.

УфНИИ:


1 – головка; 2 – возвратная пружина; 3, 18 – соответственно нижний и верхний штоки; 4 – державки; 5 – стержни; 6 – винт; 7 – клапанная рама; 8 – фиксаторная планка; 9 – клапаны; 10 – оси; 11 – крылья; 12 – ножи; 13 – винт; 14 – корпус замка; 15 – шарик; 16 – пружина замка; 17 – ловильная головка; 19 – пружина; 20 – планки; 21 – шарниры

4.10-rasm. Avtomatik skrebok UfNIII:

Issiqlik usullari

Issiqlik usuli, parafining 500 S haroratda erishi va qizdirilgan yuzadan oqib tushishiga asoslanadi. Yuqori haroratlari issiqliknini hosil qilish uchun maxsus manbalardan foydalaniladi, qaysiki ularni parafin ajralib chiqish hududlarida yoki quduq ustida issiqlik ajratib chiqaruvchi agentlarni joylashirish lozim.

Hozirgi vaqda quyidagi texnologiyadan foydalaniladi: issiqlik tashuvchi sifatida issiqliq neft yoki suvdan; o'ta qizdirilgan bug'dan; yer usti va quduq ichki elektr issitkichlar shaklida; issiqlik ajralishi bilan ko'zatiladigan kimyoviy agnetlar.




4.11-rasm. Plunjerdan foydalanilgan holda markaziy sxema yordamida issiqliq neft bilan parafinsizlantirish quduq sxemasi: 1-yunaltiruvchi rolik; 2- lubrikator; 3- plunjер; 4- parafin; 5- arqonli lebedka

Elektr parafinsizlashtirish


Parafinsizlantirishda elektr energiyasidan foydalanish ancha uzoq tarixiy davrdan ma'lum, NKT ga 2000-6000 V kuchlanish elektr tokini uzatish kuzatilgan.

NGDU “Tuymazanneft” tomonidan parafin yotqiziqlariga qarshi kurashish uchun elektr issitkichlarni qo'llash orqali quduq usti armaturalarida va manifoldlar bilan quduq ustiga maxsus batariyalar urnatish, uchta o'zaro bog'langan quvurlar uzatmalariga elektr simlarini urash orqali montaj motaj qilish orqali amalga oshiriladi. Issitish qurilmasining quvvati 24kVt ni, suyuqlikni issitish harorati 75°C ni tashkil qiladi. qurilma




4.12-rasm. To'g'ridan-to'g'ri induksiyali issitgich va uning ulanish sxemasi

1-quduq; 2-quduq usti armaturasi; 3- issitgich



4.13-rasm. Induksion eletrissitkich qullash bilan parafinsizlantirish, quduq uskunalarini joylashish sxemasi va eletkr zanjirining sxemasi



4.14-rasm. Quduq elektrissitgichi: 1-kabel ulagich; 2- ipli himoya qobig'i; 3-kabel; 4-boshcha; 5- asbestli opletka; 6- qurg'oshinli quyma; 7-gayka; 8-klemmek; 9- issitkich;

4.7. Quduqlarni ishlatishda tuz yotqiziqlarini hosil bo'lishi qarshi kurashishda yer osti ta'miri ishlari

1.Quduqlarni ishlatishda tuz yotqiziqlari hosil bo'lishi

Tuz yotqiziqlari-qatlamda, quduqda, quvur uzatmalarida va neft tayyorlash uchkunasi jihozlarida suv harakatining deyarli butun yonalishi davomida hosil bo'lishi mumkin.

Asosan tuz yotqiziqlari kontur ichra suv bostirishda hamda chuchuk suvlar bilan suv bostirishda kuzatiladi, chunki haydalgan suv qoldiq suvlar bilan tutashganda sulfatlarga to'yinishi va minerallarning erishi kuzatiladi:

- a) turli xil gorizontlardan yoki qatlamchalardan quduqqqa kelayotgan suvlarning kimyoviy nomutanosibligi.
- b) termodinamik sharoitning o'zgarishida suv-tuzli tizimning o'ta to'yinishi.

Tuz yotqiziqlari neft qazib olish sur'atining pasayishiga, quduq ishida ta'mirlash aro davrlarining qisqarishiga olib keladi. Tuzlarning asosiy komponentlari bo'lib, gips yoki kalsiy karbonatlari va magniy karbonatlari hisoblanadi. Uning tarkibiga shu bilan birgalikda kremniy dioksidi, temirning oksidli birikmalari, organik jinslar (parafin, asfaltenlar, mumlar) va hokzolar kiradi.

Cho'kindilar zich yoki bo'shoq bo'lishi mumkin, metall bilan tutashmasining mustahkamligi qatlam chuqurligiga qarab ortadi.

Yotqiziqlar tarkibining va tarkibining va tuzilishining har xilligi ularga qarshi kurashda har bir konda xususiy yondoshishni talab etadi.

Tuz yotqiziqlari bilan kurashish

Tuz yotqiziqlari bilan kurashishning hamma usulini ikki guruhga bo'lish mumkin; tuz cho'kib qolishini bartaraf etish usuli va tuz yotqiziqlarini olib tashlash usuli.


Tuzlarni quduqlarda cho'kib qolishini bartaraf etishda ko'proq qabul qilingan usul kimyoviy reagentlarni qo'llash usulidir. Bu reagentlar qazib oluvchi quduqlarning quvur orti bo'shlig'iga va qatlamga bosim ostida davriy haydaladi. Ko'proq samarali deb polifosfatlar, organik fosfatlar, sulfokislota tuzlari, aril sulfonatlar, natriy tripolifosfati va ammofos samarali reagentlar hisoblanadi. СФМ-13, ДПФ-1, inkredol-1, fosfonol, СНПХ-5301 asosidagi ingibratorlarning 20 gr/m^3 miqdori tuz yotqiziqlarini to'liq bartaraf etiladi.

Tuz yotqiziqlari kimyoviy reagentlar yordamida olib tashlanadi yoki burg'i bilan burg'ilanadi.

Olib tashlashning kimyoviy usulida, gips cho'kindisini suvda eruvchi natriy (kaliy) sulfat tuziga yoki karbonat cho'kindisini kalsiy gidrooksidiga aylantiriladi, bularni xlorid kislotali eritma yordamida eritib suv bilan yuviladi. O'zgartiruvchi regayegentlar sifatida natriy yoki kaliy karbonati va bikarbonati, shuningdek ishqorli materiallarning gidrookssidi samarali qo'llaniladi. Reagent yotqiziqlar oralig'iga kiritiladi va bosim ostida davriy haydaladi yoki uzilmas sirkulasiyasi amalga oshiriladi.

Kon sharoitlarida neft qazib olishda ShChN foydalanishda quduqning sistematik tadqiqot ishlari olib boriladi: quduq mahsulotini ulchash, (otbivka) suyuqlikni dinamik sathni otbivka qilish, dinamogramm chizmalarini olish, quduqning mahsulotining suvlanganligini aniqlash, yo'ldosh suvning kimyoviy analiz va boshqalar. Olingan ma'lumotlarini umumlashgan holda tahlil qilish, uz

vaqtida takliflar berish va tuz yotqiziqlarini hosil bulishini oldindan aniqlash imkonini beradi. Shu ma'lumotlarga asoslanib gips va tuz yotqiziqlarining hosil bulish hududini aniqlanadi (4.14-rasm).



4.14-rasm.Quduq chuqurlik nasoslarining gips va tuz yotqiziqlarini hosil bo'lish hududlari

Rasmda kurinib turibdiki, ShChN li quduqlarida 3 ta gips va tuz yotqiziqlarini hosil bulish hududi aniqlanadi: chuqurlik-nasosi qurilmalarda quduq tubi zonasida 1, qabul qiluvchi 2 va bosimli 3 qismlarda.

Noorganik tuzlarning QTA va perforatsiya teshigi kanallarida yotqiziqlar hosil bo'lsa, quduq mahsulotini kamayishiga olib keladi. Tuz yotqiziqlari, kirib keluvchi va uzga suvlar bilan aralashishi natijasida hosil bo'ladi. Tuz yotqiziqlari hosil bo'lganda quduqqa suv oqimi kelishi kamayadi. Neft sizilayotgan, QTA ning g'ovak kanallarda va perforatsiya kanallarida, tuz

yotqiziqlari hosil bo'lmaydi. Suvda uning mavjud bo'lishi, quduqning mahsulotlarini kamayishiga yoki vaqtı-vaqtı bilan suvlanishning ko'payishi sekinlashishi ko'zatiladi. Qatlam mahsuldorligini kamayishi SHGN bilan qatlam orasidagi munosabatning buzilishiga olib keladi – nasosning ishlab chiqarish kursatkichi quduq mahsulotidan oshib ketishi kuzatiladi. Shu bilan birga quduq tubi bosimi bilan SHGN qabulidagi bosimi tushishi kuzatiladi, ya'ni neftdan tinimsiz gaz ajralib chiqishi kuzatiladi. Buning natijasida nasos silindiri tulmagan holatda ishlay boshlaydi va bu SHSNU ni dinamometrlashda aniqlanadi.

Tuz yotqiziqlariga qarshi ingibitorlarni qullash texnologiyasi

Tuz yotqiziqlaridan ogohlantirish samaradorligi nafaqat ingibitorlarga bog'liq, shuningdek ularning qullanilish texnolgiyasiga bog'liq. Ingibitorning turi va uning qullanilish mexanizimiga bog'liq bulmagan holda, uning ijobiy natija berishi minimal kerakli miqdorda rastvorda diomiy ragentlarning mavjud bo'lishi shariatiga ham bog'liq. Noorganik tuzlarning kristallanishidan oldin eritmaga ingibitorni qo'shish juda yaxshi natijalar beradi.

Ingibitorlar tuz yotqiziqlarining hosil bulish sharoitidan kelib chiqib qo'yidagi usullarda qo'llaniladi.

Maxsus qurilma va dozalovchi nasoslar yordamida tizimga uzlusiz miqdorda qo'shilib turiladi;

Avvaldan ingibitorni quduqqa haydashdan va ketma-ket quduq uskunalarini kutarish bilan quduq tubi zonasiga qatlamga




Схема постоянной дозировки ингибитора солеотложения в скважину через затрубное пространство:
 1 - станок-качалка; 2 - привод дозировочного насоса от балансира СК; 3 - дозировочный насос; 4 - емкость для раствора ингибитора; 5 - нагнетательная линия; 6 - байпасная линия; 7 - ШЧН; 8 - продуктивный пласт

4.15-rasm.Quvur orti qismidan tuz yotqiziqlariga qarshi kurashishda ingibitorlarni doimiy miqdorlagich (dozirovka) sxemasi: 1- tebratma dastgoh; 2- dozalovchi nasosni TD balansirdan ishga tushirish qurilmasi; 3-dozalochi nasos; 4- ingibitor eritmasi uchun idish; 5-haydovchi liniya; 6-baypasli liniya; 7- SHCHN; 8- mahsuldor qatlam

Xulosa

4-bobda qatlamni gidravlik yorish, qatlamni gidravlik yorish jarayoni va unda ishlatiladigan jixozlar, quduq tubiga xlorid kislota bilan ishlov berish, quduq tubiga termo-kimyoviy ishlov berish, quduq tubiga elektr issiqlik bilan ishlov berish, quduq tubi zonasida va nasos-kompressor quvurlari devorida parafin yig'ilishiga qarshi kurashishda yer osti ta'miri ishlari, quduq devorida yig'ilgan parafinni skrebok yordamida tozalash, quduqlarni ishlatishda tuz yotqiziqlarini hosil bo'lishi qarshi kurashishda yer osti ta'miri ishlari tug'risida ma'lumotlar berilgan.

Nazorat savollari

1. Qatlamni gidravlik yorish nima?
2. Qatlamni gidravlik yorish jarayoni va unda ishlatiladigan jixozlariga nimalar kiradi?.
3. Quduq tubiga xlorid kislota bilan ishlov berish?
4. Quduq tubiga termo kimyoviy ishlov berish?
5. Quduq tubiga elektr issiqlik bilan ishlov berish?
6. Parafinni tozalash qanday amalga oshirildi?
7. Tuz yotqiziqlarini hosil bo'lishi qarshi kurashishda qanday usullari bor?

V-BOB. QUDUQ TUBI DEVORINI MUSTAHKAMLASH TEXNOLOGIYALARI

5.1. Mustahkamlovchi quvurlar birikmasi va sement halqasining nogermetikligini bartaraflash

Mustahkamlovchi quvurlar birikmasi buzilishining asosiy sababi – qatlam va oqib o’tuvchi suvlarning yemiriluvchi muhitda quvurlarning tashqi va ichki qavatining yemirilishi. Ko’p hollarda buzilishlar teshiklar shaklida bo’ladi va ular quvurlar bo’ylab joylashadi.

Teshiklar eni 5sm, uzunligi 1 m gacha hosil qilinishi mumkin.

Ba’zida quvurlarni burab qotirish chala amalga oshirish oshirilgani uchun, rezbali birikmalarda nogermetiklik holati yuzaga keladi. Sement halqasining neogermetikligiga asosiy sabab quduqlardagi mustahkamlovchi quvurlar birikmasini past sifatda sementlanishi, bu esa o’zi navbatida nostandart sementni qo’llash bilan bog’liq.

Nogermetiklikni bartaraf etish uchun to’g’ridan-to’g’ri buzilishlarga va shu bilan birga mahsuldor qatlamda mavjud bo’lgan perforatsiya oralig’i yoki maxsus qilingan teshiklar oralig’i orqali, ajratuvchi materiallarning eritmalarini haydaladi. Buning uchun quduqqa sementli stakan hosil qilingan sathning ostki chngarasiga NKQ tushiriladi. So’ng hisoblangan eritma hajmi haydaladi, uni siqib halqa bo’shlig’iga va toki quvurdagi hamda halqa bo’shlig’idagi sathlar tenglashguncha siqib chiqariladi. Keyinchalik quvurlar birikmasidagi sementli stakandan quvurlar yuqoriga ko’tariladi, eritma qoldig’i yuqiladi va ajratish materiali quvurlar birikmasi ortiga bosim ostida haydaladi. Shunda ajratish materiali qotishi uchun zarur bo’lgan vaqt davomida quduq germetiklanadi, ajratish materialini qotishidan hosil bo’lgan ko’prik (tiqin) burg’ilanadi va qatlam ochilib quduq o’zlashtiriladi. Bunda, ostki qismdagi tiqin hosil qilishda olinadigan va olinmaydigan pakerlarni qo’llash mumkin.

Oxirgi paytlarda ta’mirlov-ajratish ishlarini o’tkazishda quvurlar qatlamning otilgan oralig’ini ustki qismidan 20-40 m yuqorida o’rnataladi, ajratish materiali esa qatlamga va buzilishlarga yopiq quvur orti bo’shlig’ida bosim ostida haydaladi.

Shu kabi ustki yoki ostki suvlar ajratiladi, quduq tubida sementli stakan yoki sementli ko'prik hosil qilinadi, yuqori yoki pastda joylashgan qatlamga quduqni qaytarishda sizgich ajratiladi, qo'shimcha quvurlar birikmasi ki quduqdagi xvostovik sementlanadi, suv haydovchi quduqlarda haydaladigan suv oqimining nomahsuldor qatlamlarga kirishi bartaraf etiladi, quduq tubi atrofidagi mustahkam bo'limgan tog' jinslari qotiriladi.

5.2. Quduq tubini farmaldegid smolasi bilan mustahkamlash

Quduq tubi harorati $T = 353^{\circ}S$ bo'lganda quduq tubidagi tog' jinslarini farmaldegid smolasi bilan mustahkamlashni hisoblab ko'ramiz.

Shartli ma'lumotlar:

- filtr osti teshiklari chuqurligi, $L_f = 2250m$;
- ekspluatatsion safning tashqi diametri $D = 168mm$;
- statik sath chuqurligi $h_{st} = 1060m$;
- quduq tubi tog' jinslarining g'ovakligi $m = 0,4$
- qatlamning samarali qalinligi $h = 5m$;
- mustahkamlovchi zonaning tashqi diametri $D_t = 1m$;
- haydovchi quvurlar uzunligi $e = 2230m$.

Avval qo'yidagi tayyorgarlik ishlari olib boriladi: quduq tubini tozalash; quduq chuqurligini o'lhash; statik sath va haroratni o'lhash; quduqning yutish qobiliyatini o'lhash; ekspluatatsion saf holatini o'rghanish; haydovchi quvurlar va pakerni tushirish; quduq ustini germetizatsiyalash.

Bu ishlar bajarilgandan so'ng quduqqa ishlov berish qo'yidagi ketma-ketlikda olib boriladi.

Quduq ichida suv bo'lsa haydovchi quvurlar orqali bu suvni qatlamiga bostirish uchun neft haydaladi.

Neftdan so'ng bu quvurlarga yetarli hajmda smola haydaladi.

Tegishli miqdordagi neft bilan haydovchi quvurlar orqali smola qatlamga bostiriladi. $T = 353^{\circ}K$ bo'lganda qatlamga smolani haydash muddati 6 soatdan oshmasligi kerak.

Qatlamga smola haydalgandan so'ng paker bo'shatiladi va 62 mm. Li quvurlardan 100 m ko'tarib olinadi.

Haydovchi quvur devoridagi smolani yuvish uchun unga $0,255 \text{ m}^3$ suv haydaladi.

Smola qotishi uchun quduqni 5 sutkaga tinch holatda qoldiriladi ($T = 353^\circ K$ да).

Bu muddat o'tgandan keyin quduq tubi chuqurligi va undagi suyuqlik sathi o'lchanadi.

Quduqning qabul qobiliyatini aniqlab, uni asta-sekin ishga tushiriladi. Undan olinadigan suyuqlik miqdori ishlov berishdan oldingisiga nisbatan 20-30% kam miqdorda belgilanadi. 10-15 kundan so'ng olinadigan mahsulot miqdori belgilangan normaga yetkaziladi.

Mustahkamlanadigan zonaning g'ovaklik muhiti maydoniga teng bo'lgan smola miqdorining hajmi hisoblanadi.

$$V = 0.785(D^2m - D_t^2) * h * m = 0,785(1^2 - 0,168^2)5 * 0,4 = 1,52m^3$$

Bostiruvchi nef hajmi

$$V_n = 0,785[A^2L + D^2m(L - L)] = 0,785[0,0622 * 2230 + 0,152(2250 - 2230)] = 7,07m^3$$

Bu yerda: D_{ich} - 168 mm li quvurlarning ichki diametri. ($D_{ich} = 0,15m$).

5.3. Sement ko'priklar o'rnatish texnologiyasi

5.3.1. Sement ko'priklarni qo'llanish doirasi va ularga qo'yiladigan talablar

Sement ko'priklar:

- ochilgan razvedka quduqlarda qatlamni neft yoki gazga to'yinganlik darajasini sinashda;
- suv bosimli va maxsuldorsiz gorizontlarni izolyasiya qilishda;
- yuqorigi ekspluatatsiya gorizontlariga qaytishda;
- quduq yangi tanasini qazishda;
- quduqni burg'ilash jarayonida yutish va aktivlangan qismlarni izolyasiya qilish bartaraf etishda;

- qatlam va mustahkamlash quvurlari bo'laklarini sinashda tayanch hosil qilishda;
- kavaklani va tarnovsimon yoriqlarni bartaraf etishda;
- tekshirilganda yuqori qatlam bosimli neft yoki gaz bergen quduqlarni konservatsiya qilishda;
- quduqni tugatishda;
- quduqlar ekspluatatsiya jarayonida kapital ta'mirlashda o'rnatiladi.

Sement ko'priklarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- zichlanganlik;
- mustahkamlik;
- ko'tarib turish qobiliyati;
- uzoqqa chidamlilik;
- quduq tanasida o'rnatilish aniqliligi;
- korroziyaga chidamliligi.
- haroratga qarshi chidamlik.

Sement ko'priknin zichlanganligi, ko'tarib turish qobiliyati ko'pri va quduq yoki mustahkamlash quvurlari tutashish yuzasi kattaligi va holatiga bog'liq.

Mustahkamlik va uzoqqa chidamliligi sement ko'pri eritmasini tayyorlayotganda uning tarkibiy qovushqoq moddalarini to'g'ri tanlash bilan aniqlanadi.

Sement ko'priknin o'rnatilish aniqliligi sement eritmasini zarur miqdorini va bostirish suyuqlikning miqdorini to'g'ri hisoblash va ko'pri o'rnatilgandan so'ng sement eritmasi ortiqchasini yuvib tashlash orqali aniqlanadi.

Korroziyaga chidamlilik ko'pri mustahkamligi va o'tkazuvchanligi quduq sharoitida uzoq vaqt davomida sezilarli o'zgarmasligi orqali aniqlanadi.

Sement ko'priko'rnatish usullari

Sement ko'priklar mustahkamlangan va mustahkamlangan quduqlarda

o'rnatiladi. Belgilash va geologik-texnik sharoitlarga bog'liq holda qo'prik o'rnatishning quyidagi usullaridan foydalaniladi.

1) Muvozanat usuli. Haydash quvurlari va halqasimon oraliqdagi tamponlash eritmalari ustunlarini muvozanatga keltirishga asoslangan.

2) Nazorat usuli. Ikkita ajratish tiqinlari va NKQ ning quyi qismiga o'rnatiladigan ajratish tiqinlari o'tirgichi va ajratish tiqinlarini o'rnatish uchun yuqori bosim jo'mrakli sementlash boshmoqidan tashkil topgan maxsus moslamalar yordamida amalga oshiriladi. Bu usul quduqlarni mustahkamlash quvurlarini sementlashda ishlatilib, undan quduqlarni kapital ta'mirlashda kamdan-kam foydalaniladi.

3) Jelonkali usul. Ko'prik karotaj kabelidagi jelonka yoki ajratish pakeri yordamida o'rnatiladi. Bu usul chuqur bo'limgan quduqlarda qo'llaniladi. Bir qator texnik sabablarga ko'ra bu usul keng tarqalmagan va hozirgi vaqtda O'zbekiston xududida qo'llanilmaydi.

4) Bosim ostida sementlashda sement stakanni (ko'prik) asorat intervali yuqorisida qoldirish usuli. Bu usul tog' jinslarini plastik oqimi hududida (oquvchanlar va rapo xatar hududlar) joylashgan quduqlarni sementlashda sement eritmasini SQK vaqtida mustahkamlash quvurlarini radial va egilma zo'riqishga chidamliligini oshirish uchun ishlatiladi.

Izoh – keltirilgan sement ko'prik o'rnatish usullari tasnifida xozirda quduqlarni kapital ta'mirlashda qo'llanilmaydigan usullar aytib o'tilmadi, shuning uchun quyidagi rahbariy hujjatda amaliyotda eng keng qo'llaniladigan sement ko'prik o'rnatish usullari ko'rib chiqilgan.

Mustahkamlangan quduq tanasida sement ko'prik o'rnatish usullari:

- a) Sement ko'priklarni bosim ostida o'rnatish texnologiyasi;
- b) «Osiq» sement ko'priklar o'rnatish texnologiyasi;
- c) Quduq ob'ektlarini sinashda ajratuvchi ko'priklarni o'rnatish texnologiyasi;

Mustahkamlangan quduq tanasida sement ko'priklar o'rnatish texnologiyasi.

Uglerod-sement eritmasi yordamida sement ko'priklar o'rnatish texnologiyasi.

5.3.2. Sement ko'priklar o'rnatish uchun kerakli texnik vosita va ashyolar

Sement ko'priklar o'rnatish uchun kerakli texnik vosita va o'lchov asboblari:

- ko'chma kompressor;
- SA-320, ACHF-700 sementlash agregatlari;
- o'rtalashtiruvchi sig'im yoki MG-4 markali loyqorishtirgich;
- 4 SR avtotsisternasi;
- 2-5 m³, 15-20 m³ xajmli sig'imlar;
- AzNII konusi;
- AT-ZPP areometri;
- rN-300 turidagi rN metr;
- VBR- I viskozimetri;
- KS-5 konsistometri;
- quyish quvurlari (NKQ yoki burg'ilash quvurlari);
- quyish (sementlash) kallagi;
- pakerlar;
- qirg'ichlar;
- favvora qurilmasi to'plami;
- ajratuvchi sementlash tiqinlari;
- manometrlar.

Sement ko'priklar o'rnatish uchun kerakli ashyolar:

- sement eritma (qum-shlak asosli sement, portlandsement yoki UTSQ va boshqalar);
 - kimyoiy reagentlar: qotish tezlashtiruvchilar (natriy xlorid, kalsiy, kaustik, kalsinatsiyalangan soda, suyuq shisha) va qotish sekinlashtiruvchilari (SSB, KMS, K-4, gipan, PFLX, NTF);
 - bufer suyuqliklari – ko'priklar o'rnatish uchun mo'ljallangan eritma bilan navbatma-navbat haydalganda qiyin aralashuvchi neft, suv yoki maxsus suyuqliklar;

- bosib haydash suyuqligi – tamponlash eritmasini quduqqa bosib haydash uchun mo'ljallangan burg'ilash eritmasi, neft, suv yoki maxsus suyuqliklar.

5.3.3.Sement ko'priklar o'rnatishga tayyorgarlik ishlari

Ishlarni rejalashtirish

Sement ko'priklarni o'rnatish ishlarini rejalashtirishda quyidagilarni ko'zda tutmoq kerak:

- a) ko'priknii ishlatish shartlari, unga ta'sir qiladigan kuchlar va uni o'rnatishning geologik-texnik shartlari:
 - ko'prik quyi chegarasini joylashgan chuqurligi va uning uzunligi;
 - burg'i diametri;
 - burg'ilash eritmasi zichligi;
 - ko'prik oralig'idagi quyish quvurlari diametri;
 - quduq tanasini tozalash usullari, qirg'ich yordamida yoki qirg'ichsiz (RH 39.0-034 muvofiq amalga oshiriladi);
 - qovushqoq modda turi;
 - tamponlash eritmasi retsepturasi;
 - tamponlash va burg'ilash eritmalarini zichliklari farqlari;
 - tamponlash va burg'ilash eritmalarini xajmini quyish quvurlari ichki hajmiga nisbati;
 - SQK davomiyligi;
 - bufer suyuqligini bor yoki yo'qligi.
- b) ko'prikning balandligini hisoblash, unga ta'sir kiladigan og'irliklar, balandlikka chegaralar va o'rnatish texnologik asoratlariga binoan o'tkaziladi;
- c) sement ko'prik o'rnatish uchun tamponaj eritmaning hajmlari aniqlanadi (bevosita ko'prik o'rnatishdan oldin quduqning qabul qiluvchanligini va kesma bo'ylab va kovaklar o'lchash natijalarini hisobga olib);
- d) tamponaj eritmaning bostirish rejasini ko'rsatkichlarini hisoblash va bostirish va bufer suyuqliklarning hajmlarini aniqlash;

- e) tamponaj eritmaning retsepturasini tanlash;
- f) ko'prik o'rnatish umumiyligi vaqtini aniqlash;
- g) ko'prik o'rnatishda falokat va asoratlarni oldini olish choralarini ishlab chiqarish.

Ko'prik ishlatish sharoitlarini aniqlash.

Ta'sir kiladigan og'irlilikka qarab ikki hil ko'prik ajratiladi:

suyuqlik yoki gaz og'irligini ko'taradigan, va ikkinchi tana burg'ilanaetganda asboblar og'irligini ko'taradigan, qatlam tekshiruvchi asbobni ishlatganda, yoki boshqa hollarda. Ikkinchi turli ko'priklar gazsuvo'tkazmaslikdan tashqari, mexanik mustahkamligi yuqori bo'lish kerak.

Ko'prikning N_m balandligi [3] formula bo'yicha hisoblanadi:

$$H_m = Q_m / \pi D_c \tau \geq H_{min}, \quad m, \quad (5.1)$$

bunda Q_m – ko'prikka tushgan og'irlilik, kN;

D_c – quduqning o'rta diametri, m;

τ – ko'prikning qo'zgalish kuchlanishi, MPa;

H_{min} – ko'prikning minimal joiz balandligi, m.

$$H_{min} = \Delta P / \text{grad } P, \quad (5.2)$$

bunda: ΔP – ko'prikka ta'sir qilayotgan maksimal bosim farqi, MPa; grad P – bosimning joiz gradienti, MPa/m.

Ko'prikning balandligini hisoblaganda τ va grad P sonlari 1-jadvaldan olinadi.

(5.1) va (5.2) formulalardan aniqlangan balandliklardan kattarog'i tanlanadi.

Tamponaj eritmaning kerakli hajmi V_s [3] formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_s = H_m S_{skv} + V_{tr} (0,02 + C_1 + C_2 + C_3), \quad (5.3)$$

bu erda S_{skv} – quduqning kesimini ko'prik o'rnatiladigan oraligidagi o'rta hisob yuzasi(kovaklarni maksimal diametrini hisobga olib), m^2 ;

V_{tr} – quyish birikmaning ichki hajmi, m^3 ;

C_1 – quvurlar devorida eritma yo'qolish koefitsienti;

5.1-jadval – τ i grad P sonlari

Ko'prik o'rnatishda sharoitlar va texnologik choralar	grad P , MPa/m	τ , MPa
Mustahkamlangan quduqda:		
qirg'ich va bufer suyuqliklar ishlatalganda	5,0	1,0
yuvgich bufer suyuqliklar ishlatalganda	2,0	0,5
qirg'ich va suyuqliklarsiz	1,0	0,05
Mustahkamlanmagan quduqda:		
qirg'ich va bufer suyuqliklar ishlatalganda	2,0	0,5
abraziv suyuqliklar ishlatalganda	1,0	0,2
abrazivsiz suyuqliklar ishlatalganda	1,0	0,05
bufer suyuqliklarsiz	0,5	0,01

S_2 , S_3 – qo'shni suyuqlik bilan aralashganda eritmaning yo'qolish koeffitsientlari, past va tepadagi chegaraga tegishli (tepada ajratuvchi tiqin borligida $S_1=S_3=0$).

Tamponaj eritmaning hajmini hisoblaganda, uning bufer yoki burg'ilash eritma bilan aralashib ketishi hisobga olinadi. Bu holda tamponaj eritmaning hisoblangan hajmi kamida 10 % ga ko'paytiriladi.

Tamponaj eritmaning kerak bo'lgan hajmi quduqning qabul qiluvchanligiga qarab yana aniqlanadi: o'rta hisobda $1,0 \text{ m}^3$ tamponaj eritma har $100 \text{ m}^3/\text{d}$ ga bosim 10 MRa bo'lganda qo'shiladi, lekin kamida $1,4 \text{ m}^3$.

Quduqning qabul qiluvchanligini aniqlash uchun:

- quduqning og'zi planshayba orqali zichlanadi;
- NKTga ulangan haydash chiziq tekshiriladi ($R_{opr}=1,5 R_{rab}$);
- quduqda paker bo'lgan taqdirda, NKT yuvish eritma bilan to'ldiriladi, nasos agregatidagi manometrda bosim ko'tarilguncha, paker bo'limganda quduq NKT orqali yuvish suyuqlik bilan to'ldiriladi, quvurorqa bo'shliqdan sirkulyasiya paydo bo'lguncha, keyin quvurorqa zulfin yopiladi;

- quduqqa yuvish suyuqlik haydaladi, uning hajmi kamida $1,0 \text{ m}^3$, tarkibi quduqdagidek bo'lish kerak;
- quduqning yutuvchanligi va yutish bosimi aniqlanadi, buning uchun bitta agregat orqali quduqqa hajmi kamida $2,0 \text{ m}^3$ bo'lgan yuvish suyuqlik haydaladi quduq og'zida sezilarli miqdorda ortiqcha bosim urnashguncha. $10 - 15$ daqiqa orasida yuvish suyuqliknini sarfi doimiy haydash bosimda o'lchanadi;
- qabul kiluvchanlik pakersiz aniqlanadigan taqdirda, haydash bosimi ishlatish birikmaning sinov bosimidan oshmasligi kerak, ya'ni $R_{nag} \leq R_{opres.e.k}$;
- yuvish suyuqlikning sutka ichidagi sarfi aniqlanadi;
- ortiqcha bosim tushiriladi.

Bostirish suyuqlikning hajmi V_p [3] formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_p = V_{tr} - H_m S_t - V_{tr}(S_1 + S_3) - V_b, \quad (5.4)$$

bunda S_t – quvurlar kesimini ko'prik o'rnatiladigan oraligidagi yuzasi, m^2 ;

V_b – bufer suyuqlikning hajmi, birinchi V_{b1} va ikkinchi V_{b2} miqdorlarni qo'shgan hajmiga teng, m^3 .

$$V_{b1} = S_4 V_{tr} + S_5 H_m S_{skv}; \quad (5.5)$$

$$V_{b2} = \frac{V_{\delta 1} d_1^2}{D_C^2 - d_2^2}, \quad (5.6)$$

bunda d_1 va d_2 – quyish quvurlarni ichki va tashqi diametri, m;

S_4 va S_5 – bufer suyuqlikning quyish birikmadan va halqa bo'shliqdan yurganda yo'qolish koeffitsientlari.

$S_1 - S_5$ koeffitsientlar 5.2 jadvalda keltirilgan.

Tamponaj eritmalarini retsepturalarini tanlash

Ko'prik o'rnatish uchun tanlanadigan tamponlash ashyolarini ushbu ko'prikka qo'yiladigan talablar, hamda uni o'rnatishdagi spetsifik xususiyatlarni inobatga olgan xolda tanlanishi kerak.

Tamponlash eritmasini retseptini sement ko'prik o'rnatishdan uch sutka oldin amalgalash kerak.

5.2-Jadval

Ko'priklar o'rnatishda suyuqliklar aralashishni darajasini ifodalovchi
koeffitsientlar

Ko'rsatkich nomi	Belgisi	Ko'rsatkich			
		Burg'ilash quvurlar uchun	Kompressor quvurlar uchun	suv	Yo'q
Bufer suyuqlik turi	—	suv	yo'q	suv	Yo'q
Sement eritma yo'qolishi quvurlar devorida	S ₁	0,01	0,03	—	0,01
	S ₂	0,02	0,04	0,01	0,02
	S ₃	0,02	0,03	0,01	0,02
Sement eritma yo'qolishi: quyish birikmadan yurganda halqa bo'shliqdan yurganda	S ₄	0,02	—	0,02	—
	S ₅	0,40	—	0,40	—

Agar retseptura tanlangan kundan so'ng 10 sutkadan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, u xolda retsepturani qayta ko'rib chiqish, kerak bo'lsa o'zgartirish kerak.

Og'ir asoratlar kelib chiqishini oldini olish maqsadida, qotish, yuqori harorat va bosimda quyuqlashish vaqtłari ko'prik o'rnatish davomiyligidan kamida 25% ortiq bo'lisi kerak.

Qotirish suyuqligidagi kimyoviy reagentlarning kerakli konsentratsiyasi va suv-ment nisbatini bir ma'romda ushlab turish tanlangan retsepturani amalga oshirishning asosiy shartlaridir. Buning uchun ishlatiladigan ashyolarning miqdorini mos usullarda aniqlash kerak: suyuqliklar – hajmi, quruq moddalar – og'irligi bo'yicha kerakli aniqlikda. Modomiki tayyorlash vaqtida eritmani havo bilan boyitish ehtimoli bo'lgani sababli zichlik bo'yicha nazorat etarli bo'lmasligi mumkin, shuning uchun uning sifatini qotirish suyuqligi va ment sarfini nazorat qilgan xolda eritmaning hamma qismini o'rtalash sig'imida tayyorlash kerak. Shu bilan birga tayyorlash sxemasida eritmaga uning tarkibiy komponentlaridan qo'shimcha qo'shish ko'zda tutilgan bo'lisi kerak.

Sement ko'prik o'rnatishdan oldin tamponlash ashyosi, bufer suyuqligi va ularni tayyorlash retsepturasi tanlanadi. Tamponlash eritmasi tarkibi quduqning

geologik-texnik xolatiga (qatlam bosimi, harorat, qatlamni yorish bosimi, qo'prik ustuni balandligi) qarab aniqlanadi.

Tamponlash ashyolarini tanlash:

1) Cement eritmalari "sovuk" va "issiq" quduqlar uchun tamponlash sementlari asosida, xamda 90 °C – 140 °C (SHPSS-120) va 160 °C – 250 °S (SHPSS-200) haroratlar uchun loy-qum eritmalari asosida olinadi. Tamponlash portlandsementidan suv bilan nisbati 0,5 bo'lganda zichligi 1820-1850 kg/m³ bo'lgan cement eritmasi olinadi. 20°C – 30°C haroratda qotish vaqtini 10 soatgacha davom etadi. Yuqoriqoq haroratlarda qotish vaqtini ancha kam, 75°C da esa cement qotish vaqtini 1,5 – 2 soat davom etadi, bu esa tamponlash ishlarini olib borish uchun etarli emas. Shuning uchun haroratga bog'liq xolda quyidagi reagentlardan qo'shiladi: K-4 3% dan 5% gacha miqdorda, KMS 0,5% dan 1,0 % gacha, CCB 0,1% dan 0,5% gacha, xromatlar 0,1% dan 0,5% gacha, OKZIL 0,1% dan 0,5% gacha, NTF 0,01% dan 0,02% gacha cement og'irligiga nisbatan.

2) Zichligi 2150 kg/m³ dan kam bo'limgan og'irlashgan cement eritmalari "sovuk" va "issiq" quduqlar uchun tamponlash sementlari asosida, xamda 90°C – 140°C (USHS-120) va 160°C – 250°C (USHS-200) haroratlar uchun loy-qum eritmalari asosida olinadi.

Suv ajralishini kamaytirish uchun eritmaga polivinil spirti (1% gacha) va boshqalar kiritiladi.

Kimyoviy reagentlar miqdori quduq hususiyati, sementlash usuli va tamponlash sementi navidan kelib chiqgan holda tajribahona usulida aniqlanadi. Tadqiqot natijalari namunalar tekshirish varaqchasiga kiritiladi (A Ilova).

3) Uglevodorod-sement eritmasi

UTSQ uglevodorodli suyuqlikka (neft, dizel yoqilg'i) qorishtirilgan mineral qovushqoq portlandsement suspenziya holida bo'ladi. UTSQ qovushqoqlik tavsiflarini va neft-sement nisbatini kamaytirish, zichlik va sedimentatsion turg'unlikni oshirish kerak bo'lganda suspenziyaga PAV

qo'shimchasi qo'shiladi. PAV qo'shimchasi UTSQ suv bilan aralashganda uning tarkibidagi uglevodorod suyuqligini suv bilan almashishini engillashtiradi.

UTSQ ning 25-30% nefti suv bilan almashganda, u suv-sement eritmalarining ($S/S=0,4-0,5$) fizik-mexanik xususiyatlariga yaqin xususiyatlarga ega bo'ladi. UTSQning qotish vaqtı sovuq quduqlar (harorati $20^{\circ}\text{C} - 40^{\circ}\text{C}$) uchun kamida 72 soat, issiq quduqlar (harorati $40^{\circ}\text{C} - 100^{\circ}\text{C}$) uchun kamida 48 soatni tashkil qiladi.

UTSQ suspenziyasi suv ishtirokisiz ushlab qolish va qotishga qodir emas, shuningdek yuqori haroratda ham. Pordlansementning UTSQda ushlab qolish va qotish xususiyatlari neftni suv bilan yaxshilab aralashtirish yoki neft-sement eritmasi orqali filtrlash orqali almashtirilgandan so'ng qayta tiklanadi. UTSQ suv bilan oxista to'qnashganda uzoq vaqt davomida ushlab qolishga uchramaydi. Neft tarkibida suvning miqdori 1%dan oshishi UTSQ suspenziyasini quyuqlashib oqmaydigan xolga olib keladi.

UTSQ tarkibi: suvsiz neft, portlandsement, PAV.

QS tarkibi: chuchuk suv, PAV, gidrofilizator.

UTSQ va QSning asosiy retsepturalari va ularning xususiyatlari V va S izoxlarda keltirilgan.

UTSQ tayyorlash uchun neftni suvsizlantirish punktlaridan tarkibidagi suv miqdori 1% ko'p bo'limgan neft olib kelinishi kerak. UTSQ va QS uglevodorod suyuqligi turiga qarab tanlanadi. UTSQning zichligi va oquvchanligi bo'yicha tarkibi tajribahona sharoitida aniqlanadi.

Namlik kirmagan xolda UTSQning saqlanish vaqtı deyarli cheklanmagan. Sedimentatsion cho'kindi xosil bo'lishini oldini olish uchun vaqtı-vaqtı bilan UTSQ suspenziyasini aralashtirib turish tavsiya qilinadi.

Ko'priq o'rnatishning umumiy davomiyligi T suyuqlikni xalqasimon bo'shliqdagi qulay xarakati tezligi va tamponlash eritmasini ushlab qolish (quyuqlashish) muddati orqali xisoblanishi kerak va u quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$T = T_1 + T_2 + T_3 + T_4 + T_5 \leq 0,75 T_{zag}, \quad (5.7)$$

bu erda T_1 – tamponlash eritmasini tayyorlash va quduqqa haydashga ketadigan vaqt sarfi;

T_2 – quvurga ajratish tiqinlarini kiritish davomiyligi;

T_3 – tamponlash eritmasini qo’prik o’rnatilish oraligiga bosib haydash vaqt sarfi;

T_4 – sementlash kallagini echish va haydash quvurlarini tamponlash eritmasi xududidan ko’tarish vaqt davomiyligi;

T_5 – sementlash kallagini o’rnatishga va ko’prikni ustki qismini yuvib tashlashga ketadigan vaqt sarfi;

T_{zag} – konsistometr yordamida aniqlanadigan va quduqqa ko’prik o’rnatish vaqtidagi xolatiga mos keladigan tamponlash eritmasini quyilish vaqt.

Tamponlash va burg’ilash eritmalarini zichliklari farqi xalqasimon bo’shliqdagi suyuqlikni siqib chiqarish samaradorligiga ta’sir qiladi. Turli tadqiqotlar natijalari shuni ko’rsatadiki, burg’ilash eritmasini tamponlash bilan siqib chiqarish ular zichliklari farqi kam bo’lganda sezilarli yaxshi yuz beradi

SQK davomiyligi tajribahona tadqiqotlari orqali aniqlanib, tamponlash eritmalarini turiga bog’liq bo’ladi (odatda 24 – 48 soatga teng deb olinadi).

Bufer suyuqligini tanlash

Bufer suyuqligi sifatida tajribahona tadqiqotlari asosida aniqlangan, tamponlash eritmasiga aralashmaydigan suv, neft va boshqa texnologik suyuqliklar olinadi.

Tamponlash ashyosini vaqtidan ilgari ushlab qolish yuz berganda yoki uni quduq suyuqligi bilan aralashib zaruriy sifatini yo’qotganda bufer suyuqligi ishlatish shart. Burg’ilashning hamma shartlarini birdek qoniqtiradigan universal bufer suyuqligi bo’lmaganligi sababli, uni quyidagi turlaridan foydalaniadi: og’irlashtirilgan (tuz yoki polimerlar asosida), murakkab tarkibli, aeratsiyalangan, filtrlash ko’rsatkichi past bo’lgan erozion suyuqliklar, qovushqoq-yumshoq ajratgich, neft va neft maxsulotlari, kislota eritmalar, suv. Ular haqidagi ma’lumotlar D ilovada keltirilgan.

Bufer suyuqligini tanlash tajribahona tekshiruvi asosida uni muayyan burg’ilash va tamponlash eritmalar bilan mosligiga asoslangan. Bufer suyuqligi burg’ilash eritmasi bilan aralashmasi aralashish zonasini reologik parametrlarini oshirib yubormasligi, uni tamponlash eritmasi bilan birikmasi oquvchanlik va quyulish vaqtini kamayishiga olib kelmasligi kerak. Modomiki bufer suyuqligini ishlatishning samaradorligi vaqt o’tishi va uning quduq devorlariga ta’siriga bog’liq ekan, unda haydaladigan suyuqlik xajmining oshishi sementlash sifatini yaxshilaydi.

Ko’prik o’rnatishda mushkulot va falokatlarni oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish.

Yuz berishi mumkin bo’lgan asorat va falokatlar va ularni oldini olish tadbirlari ro’yxati E ilovada keltirilgan.

Sement ko’prik o’rnatish bo’yicha ish rejasi F ilovada keltirilgan tartibda tuzish kerak.


Asbob-uskunalarini tayyorlash va tekshirish

Ko’prik o’rnatish ishlari boshlangunga qadar, minora yig’ish, burg’ilash, nasos asbob-uskunalarini holatini; ularning va boshqa burg’ilash agregatlarini poydevor va asoslarini tekshirish kerak:

a) minora (machta) quduq ustiga nisbatan markazlashgan bo’lishi, uning ulash qismlari – mustahkam mahkamlangan bo’lishi kerak;

b) burg’ilash uskunalarini, quduq usti asbob-uskunalarini, poydevor xolati, minora va boshqa burg’ilash agregatlari asosi xolatini. Tekshirish chig’iri, dvigatelini tekshirish va zarur bo’lsa zanjirli uzatgichning alohida bo’g’inlarini, klinli tasmalar va boshqa bo’g’inlarni almashtirish orqali ta’mirlash kerak. Tekshirilyotganda tormoz tizimining mustahkamligiga alohida e’tibor berish kerak. Umumiy qalinlikdan 1/3 kam qalinlikdagi to’htatgich kundalari, hamda to’htatgich shaybalarini 5 mm ortiq qismi edirilib ketgan bo’lsa ishslashga ruxsat etilmaydi;

- c) kron-blok va tal sistemasining mustahkam qotirilganligini tekshirish. Kerak bo'lsa qayta ishga tushirish, tal arqonini almashtirish yoki tal tizimini butunlay qayta jihozlash kerak;
- d) manifoldlar bo'lmasi bosim kollektorini tekshirish. U nazorat-o'lchov asboblari datchiklari va saqlagich klapanlari, nasoslar qabuliga tashlagich, yutuvchi quvuro'tkazgichlar esa – teskari klapanlar bilan jihozlangan bo'lishi kerak;
- e) og'irlik indikatorlari, bosim o'lchagichlar va boshqa nazorat-o'lchov asboblarini tekshirish, kerak bo'lsa almashtirish lozim;
- f) sement qorish uskunalarini tozalikka tekshirish; tamponlash ashyo qoldiqlaridan tozalangan SQUni yangisi bilan bevosita ko'prik o'rnatishdan oldin to'ldiriladi;
- g) quduqni quvur, quvur orti va quvurlararo bo'shliqlarini bosim o'lchagichlar bilan jihozlash;
- h) asbob-uskunalarni 1 rasmda ko'rsatilgan sxema bo'yicha biriktirish va ko'prik o'rnatishda kutilyotganga nisbatan bir yarim barobar katta bosimga mustahkamlikka sinash kerak;
- i) SQUni to'ldirish sement ko'prik o'rnatishdan oldin javobgar muxandis-texnik ishchi nazoratida amalga oshiriladi.



5.1-rasm – Sement ko'prik o'rnatishda asbob-uskunalarni joylashtirish va biriktirish sxemasi: 1 – quyish quvurlari, 2 – quduqning quvur oralig'i bo'shlig'i, 3 – avtotsisterna, 4 – SA-320, 5 – SM-20, 6 – ACHF-700, 7 – yuvish

suyuqligi (neft), uchun idish (ombor), 8 – o’rtalovchi idish, 9 – haydovchi-manifold tizimi.

5.4. Quduq tubini sementli va sement-qum qorishmasi yordamida mustahkamlash

Qo’yidagi berilgan ma’lumotlarga asosan quduq tubini sement qorishmasi bilan mustahkamlashda quruq sement miqdori, sementni eritishga va uni bostirishga sarflanadigan suv miqdori, qorishmani haydash bosimi va unga sarflanadigan vaqtni hisoblash kerak bo’ladi.

- Ekspluatatsion quvurning tashqi diametri $D_t = 168mm$;
- Quduq chuqurligi $N = 1620m$;
- Haydovchi quvurlarni tushirish chuqurligi $L = 1600m$;
- Haydovchi quvurlarning ichki diametri $d = 76mm$;
- Qatlamning samarali qalinligi $h = 10m$;
- Quruq sement zichligi $r_n = 3,15kg/m^3$;
- Suv zichligi $r_s = 1M_2/m^3$;

Mustahkamlanadigan zona hajmi

$$V = 0,782(D^2m - D_t^2)h * m \quad (5.8)$$

Bu yerda: D_m - mustahkamlanadigan zona diametri, m; J - mustahkamlanadigan zonaning shartli g’ovakligi $D_m = 1m$ va $m = 0,5$ deb qabul qilingan.

Quduq usti bosimi minutiga $0,5M^3$ suv yutilganda 1 MPa deb qabul qilinsa, bu holat shartli g’ovaklik $m = 0,75$ ga to’g’r keladi.

Sement eritmasining miqdorini belgilovchi mustahkamlanuvchi zona hajmini hisoblaymiz:

$$V = 0,785(1^2 - 0,168^2)10 * 0,75 = 3,7m^3 \quad (5.9)$$

Suv-sement olishni $0,5$ ga teng deb qabul qilib quruq sement massa-sini aniqlaymiz:

$$V_{sem}\rho_{sem} + \frac{V_{sem} * \rho_{sem}}{2} = \frac{3}{2}V_{sem}\rho_{sem} = V * \rho_{sem.er} \quad (5.10)$$

Bu yerda: V_s - quruq sement hajmi, m^3 .

Sement eritmasi hajmi, m^3 ;

$P_{sem.er}$ = sement eritmasi zichligi, qo'yidagicha hisoblanadi:

$$P_{sem.er} = \frac{3\rho_{sem} - \rho_s}{2\rho_s + \rho_{sem}} = \frac{3*3,15*1}{2*1+3,15} = 1,84mg/m^3$$

Quruq sement massasi

$$G_n = \frac{2}{3}V_{sem.er} = \frac{2}{3}5,7*1,84*10^6 = 7,0mg$$

Sementaj davomida ma'lum yo'qotishlarni inobatga olib quruq sement hajmi 5-10% ortiqroq olinadi.

$$Q_s = 7,0 + 0,7 = 7,7Mg$$

Suv-sement omili 0,5 ga teng bo'lganda eritmani tayyorlash uchun suv miqdori

$$Q_s = Q_n / 2 = 7,7 / 2 = 3,85mg$$

yoki $3,85m^3$.

Sement eritmasini bostirish uchun zarur bo'lgan suv miqdori

$$V^s = 0,785[d^2L = D_n(H - L)] = 0,785[0,0762*1600 + 0,152(1620 - 1600)] = 7,6m^3$$

Bu yerda: D_{ich} - ekspluatatsion safining ichki diametri, mm;

Umumiy sarflanadigan suv hajmi:

$$Q_s = Q_s + V_s = 3,85 + 7,6 = 11,45m^3$$


Sement eritmasini bostirish bosimi quduqning yutish darajasiga mos ravishda tanlanadi. Odatda bu ko'rsatgich bir xil haydash tezligida yutilish bosimiga nisbatan 4-5 marta yuqori darajada qabul qilinadi.

Sement eritmasini quduqqa haydash va uni bostirishga ketgan vaqt.

$$t = (5,7 + 7,6)10^3 / 14,9 = 9000s. = 15 min ut$$

5.5. Mustahkamlash quvur birikmalarini ta'mirlash operatsiyalarning ketma-ketligi

Mustahkamlash quvurlar birikmasini germetikligini ta'mirlashda po'lat plasterlarni o'rnatish usuli uchta guruhga va 11 ta texnologik operatsiyalarga bo'linadi.



Mustahkamlash quvur birikmasini plaster bilan ta'mirlash operatsiyasining ketma-ketli texnologiyasi

Birinchi guruh - tayyorgarlik ishlari.

I-operatsiya.Mahsuldor qatlamni qirqish uchun sement ko'pragini o'rnatish.

II-operatsiya. Uskunalarni o'tishini tekshirish maqsadida shablonlash.

III-operatsiya Pachoqlangan joyi mavjud bo'lganda uni olib tashlash
(o'tishni ta'minlash).

IV-operatsiya.Nuqson joylashgan joyni aniqlash.

V-operatsiya. Mustahkamlash quvurlar birikmasining nuqsoni mavjud
bo'lgan joyini ichki sirt yuzasini tayyorlash.

VI-operatsiya.Nuqsonli joyini aniqlash.

VII-operatsiya.Nuqsonning harakteri, shakli va o'lchamlarini aniqlash va
joylashuv joyini aniqaniqlash.

VIII-operatsiya.Nuqsonli oraliqda mustahkamlash tizmasini ichki
parametrini aniqlash.

Ikkinchi guruh - asosiy ishlari.

IX-operatsiya.Mustahkamlash quvurlar birikmasining germetikligi buzilgan
zonaga plasterlarni tashish va o'rnatish.

Uchinchi guruh - tugallash ishlari.

X-operatsiya. Tiqin-ko'prikni burg'ilash.

Yuqoridagi operatsiyalarni to’liq amalga oshirish talab qilinmaydi, quduq ishlarining texnologik va geologik sharoitiga, uni texnik holatiga va boshqa muhitlarga bog’liqbo’ladi.

I, II, IV, VI, X, XI operatsiyalar oldingi davrda quduqlarni ta’mirlash amaliyotida qo’llanilganligikabi an’anaviy hisoblanadi.

II operatsiya (shablonlash) alohidaholatlarda bajariladi va nazorat qilishhisoblanadi.

III operatsiya(pachoqlangan joyni bartaraf qilish) mustahkamlash quvur birikmasida pachoqlanish mavjud bo’lganda qo’llaniladi.

II va III operatsiyalarda shablonlashtirishni olib borishda va pachoqlangan joyi mavjud bo’lganda, uni bartaraf qilish uchun universal qurilmalar qo’llanilganda ularni birlashtirish amalga oshiriladi.

Mustahkamlash tizmasini ta’mirlash uchastkasining ichki parametrining o’zgarishi (VIII-operatsiya) nazorat jarayoni hisoblanib, mumkin bo’lmagan sharoitlarda amalga oshiriladi. Bu sharoitning harakterli tomoni shundaki, birinchidan quduqning konstruksiyasi va mustahkamlash tizmasining diametrlari ma’lum va loyixasida ko’rsatilgan. Ikkinchidan mustahkamlash tizmasining ichki devorlari yoyilganda, gidravlik dornirlash kallaki mavjud bo’lganda plastero’rnatiladi, plaster materialining qalin shishi hisobiga uning perimetriibuylab diametri o’zgaradi, mustahkamlash tizmasiga plaster yopishgandan keyin uning og’irligi ortadi, kallakdagi radial yuklanma oshadi.

Geofizik usulda nuqsonli joyni aniq aniqlashtirishda (IV operatsiya) VI operatsiya qo’llanilmaydi. Agarda II operatsiya foto yoki telemetriya usullarida bajarilsa, VI va VII operatsiyalarni amalga oshirishni keraki bo’lmaydi. VII-operatsiya (nuqsonli harakter va shaklini aniqlash) perimetrlarni aniqlash uchun VIII yoki V (tozalash) operatsiyalar bilan birgalikda olib boriladi. X operatsiya va IX operatsiya birgalikda olib boriladi. Bunday sharoitda plastero’rnatilgandan keyin tizma yuqori bosimga siqib tekshiriladi va bu vaqtida qurilma yer ustiga ko’tarilmaydi.

VI operatsiya (nuqson joyini aniqlash) IX operatsiyasi bilan birgalikda (plastero'rnatish) olib boriladi.

1) Ko'pgina holatlarda mustahkamlash tizmasi plaster bilan ta'mirlanganda IV, V, VII va IX operatsiyalar birgalikda bajariladi.

2) Bu usulda mustahkamlash tizmasi po'latplasterlar bilan ta'mirlanganda V, VII va IX operatsiyalar yangi usullar hisoblanadi, ularni amalga oshirishda quyidagi qurilmalar qo'llaniladi:

3) mustahkamlash tizmasini ichki sirt yuzasini tozalashda gidromexanik qirg'ichlar qo'llaniladi (GMQ);

4) mustahkamlash tizmasidagi nuqsonlarni o'lchamlarini va shaklini aniqlash uchun yon gidravlik muhrdan (YOGM) foydalaniladi;

5) mustahkamlash tizmasidagi quduqning germetikligini tiklash uchun po'latplasterlarni o'rnatish va teshish uchun DORNdan foydalaniladi:

DORN, qirg'ich, muhr va plasterlar qurilmaning jamlanmasiga kiradi va mustahkamlash tizmasini ta'mirlash uchun seriyali tayyorlanadi, diametri 146 va 168 mm.li tizmalar uchun mo'ljallangan.

Mustahkamlash tizmasini po'latplasterlar bilan germetikligini tiklash texnologik jarayoni quduqda quyidagilar mavjud bo'lganda qo'llaniladi:

tushirish-ko'tarish agregati uskunalarini quduq ustidagi ko'tarish balandligi 15 metrdan kichik bo'limganda;

nasos-sementlash aggregatining maksimal bosimi 20 MPa kichik emas va uzatish ko'rsatgichi 10 l/sek.gacha bo'lganda;

qurilma jamlanmasi va plasterning o'rnatish belgilangan rejaga muvofiq;

nasos-kompressor quvurlar jamlanmasi 73 mm.li quvurli haydovchi tizim bilan ta'minlanganda.

Mustahkamlash tizmasini germetikligini tiklashning usullari va vositalari

Neft va gaz quduqlarini burg'ilash va ishlatish jarayonida mustahkamlash quvurlarini germetikligini tiklashda har xil usullar qo'llaniladi.

Tizmalarni germetikligini tiklashda qo'llaniladigan usullar uchta asosiy guruhga ajratiladi:

- 1) mustahkamlash quvurining ichki diametrini kamaytirmaydigan;
- 2) tizmaning ichki diametrini kichikkiymatga kamaytiradigan;
- 3) ichki diametrini sezilarli darajada kamaytiruvchi.

Mustahkamlash tizmasini rezbalni birikmalarini germetikligini oshirish

Mustahkamlash quvurlarini hamma turdag'i rezbalni birikmalarini amaldagi umumiy kamchiligi konstruktiv xususiyatidir. Rezbalni birikmalarda rezbaning profili va uning biriktirilishiga bog'liqbo'limgan holda burab mahkamlanganda tutashuv sirtlarning oralig'idagi qirqilmada (yo'nilmada) shpili kanal koladi. Germetikligi ko'chaytirilgan birikmalardagi qo'shimcha konstruktiv elementlarni mavjudligi, nippel va muftdag'i bog'lovchi silliq yuzalar, tirkak, chetki qirralar, rezbalni birikmalarini ishonchlilagini oshiradi, rezbalni birikmalardagi haqiqiy bosimlar farqida suyuqlik va gazlarni germetikligini ta'minlaydi. Bundan tashqari rezbalarning geometrik o'lchamlariga va tayyorlash defektlariga birikmalarini mahkamlashda lokal elastik va elastik qayishqoqlik deformatsiyalar va tutashuvchi sirtlarning bir-biri bilan ishqalanishi ham ta'sir qiladi.

Mustahkamlash quvurlarining rezbalni birikmalarini germetikligi vintli kanallarni o'lchamlariga va shakliga hamda shu kanalni to'ldirib turuvchi yog'larning xossalariiga bog'liqbo'ladi.

Konussimon rezbalni birikmalarining germetikligiga quyidagi omillar ta'sir qiladi; muftada va quvurda rezbalarni yo'nilmalarini aniq bajarilganligi; rezbalni qismining ishchi uzunligi; burashdagi tortish kattaligi; rezbalni birikmaga tashqi yoki ichki bosimlarning yuklanmasi; yukni va bosimni ta'sir qilishini davri; bosim hosilqiluvchi agentning qovushqoqligiga va yog'lanmani va metall rezbaning parchalovchi ta'sir qilish darajasiga.

Rezbali birikmalarning germetikligi moylash-zichlovchi tarkibli aralashmalarni ko'llash orqali germetikligi va aylantirish momenti orqaliquvurlarga muftalarni biriktirish hamda tizmalarni tushirish jarayonida quvurlarni burash yordamida birikmalarning mustahkamligi ta'minlanadi.

Burash momentlarini qiymati va ko'rsatgichlari bo'yicha rezba birikmalarni har birini namunaviy o'lchamlarini mahkamlash texnik shartlar bo'yicha reglament qilinali.

Germetik tarkibni haydashda asosiy mahsulot sifatida yuvilgan "yumshok metallning 18%-dan 25% gacha bo'lgan konsentratsiyasidan va kalsiy yoki magniyning xlorli eritmasidan foydalilanadi. Ishlov berish shundan iboratki, germetiklovchi tarkib tuzli eritma bilan kontaktlashganda bir zumda tuzsizlanish reaksiya sodir bo'ladiki, afgeziya kuchi ta'sirida g'ovaklik va yoriqlarni sirti qoplanadi.

Bu mahsulot 280°C gacha kimyoviy mustahkamdir. Bu usul quyidagicha amalga oshiriladi: tizma oralig'ida halqa fazosini zulfini yechiladi va ishlov berishdan oldin bir kun oldin haydaladi. Tal peking 25% li konsentratsiyali eritmasi tayyorlanadi. To'liq erigandan so'ng $40-80^{\circ}\text{C}$ haroratda qizdiriladi, sementlash aregati bilan 300 l tal (yumshoq metall) peki olinadi. Quvurning orqa fazosi orqali 3-4 dakikadan keyin bostiriladi va kalsiy xlorining 500 lif suvli eritmasi haydaladi. Quvurlarning oralig'iga har 15-20 daqiqa oraliqda qovushqoq elastik mahsulot paydo bo'lguncha bostiriladi. Quvurlar va tizmalar oralig'idagi zulfinlar yopiladi va tizmalar oralig'idagi bosimni o'zgarishi kuzatiladi. Agarda tizmaning yuqoriqismida tizma oralig'iga gaz to'plansa aniqlansa va gazning sarfi $30 \text{ m}^3\text{ko}'\text{p}$ va undan hamko'jni tashkilqilsa OTP (yuvilgan tal peki) tayyorlanadi va birinchi holat kabi OTP-ga 10% li bo'rli to'ldiruvchi qo'shiladi.

Qovushqoq plastik mahsulotni hosilqilish uchun tizmaning yuqoriqismidan agregatlar yordamida suyuqlik komponentlari haydaladi. Bir kun o'tgandan keyin elastik qovushqoq moddani hosil bo'lganligini aniqlash uchun havo bostiriladi.

Suyuqliklarni oqib chiqib ketishiga, chidamsizlik va germetiklikni yuqotilishiga sabab mustahkamlash tizmasiga cho'zuvchi, qisuvchi va egdiruvchi kuchlarning ta'sir qilishidir.

Bunday holatdagi shikastlanishga tayanchsiz rezbali birikmalarni uchburchak ko'rinishidagi profillari to'g'ri keladi. Rezbali birikmalar tizma elevatorlar yordamida tushirilganda orqali suyuqliklarni oqib chiqishiga qarshi qo'shimcha kuch hosilqilinali.

Muftaning tayanch yuzalarida elevatorda muftaning butun uzunligi bo'yicha ko'ndalang va bo'ylama qirqimlarida deformatsiya hosilbo'ladi, tizma elevatordan olingandan so'ng qaytma elastik deformatsiyani ta'sirida rezbali birikmalarda kuchsizlangan holat sodir bo'ladi.

Tadqiqotlar olib borilganda 146 mm limustahkamlash quvurlarida elevatordan bo'shatib olingandan keyin, tizma olingen va qaytadan quduqqa tushirish uchun burab mahkamlanganda, rezba birikmalarni burashda burovchi momentning kattaligi oldingi burab mahkamlanishga nisbatan 20-30 % kichik kuch bilan mahkamlangan. Quvurlar birikmasi spayder osib buralganda oldingisiga nisbatan 10-15 % va undan ham katta kuch bilan burab mahkamlangan.

Mustahkamlash quvurlar birikmasini po'lat plasterlar bilan ta'mirlash texnologiyasi

1. Mustahkamlash quvurlar birikmasini tiklashda yupqa devorli buylama gofirli po'latquvurlarni qo'llanishi ko'pgina holatlarda yaxshi samaraga ega ekanligi, soddaligi va tejamkorligi bilan ajralib turadi.

2. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, bo'ylama gofirli plasteryupqa devorli silindrik quvurlardan va germetik material bilan qoplangan bo'lib, maxsus qurilma yordamida quduqning tayyorlangan uchastkasiga tushiriladi va quduqning ichida dormirlovchi element yordamida mustahkamlash quvur birikmasining devori bilan kontakt hosil kilguncha kengaytiriladi.

3. Ishni amalga oshirishda quyidagi asosiy texnologik jarayonlar bajariladi:

4. Mustahkamlash tizmasini mahsuldorqatlamning ta'mirlash uchastkasini bekitishda.
5. Asboblarni-uskunalarni o'tishi uchun mustahkamlash tizmasini stvolini tekshirish.
6. Mustahkamlash quvurlar birikmasi pachoqlangan holda uni bartaraflash.
7. Germetiklikni buzilgan joyini aniqlash, + - 500 mm oraliq aniqligida.
8. Kamchiligi bor oraliqdagi mustahkamlash tizmasining ichki sirt yuzalarining tizmasini ta'mirlashni amalga oshirish.
9. Kamchiliklarni (nuqsonlarni) harakteri, shakllari va o'lchamlarini aniqlash.

10. Nuqsonli joyga plasterni o'rnatish.
11. Plasterning tashqi sirtiga germetiklovchi materialni yoyish (surtish).
12. Plaster mo'ljallangan joyga qurilmani o'rnatish va gidravlik dornirlovchi kallak bilan ta'minlash, uni plasterga bosimsiz kirishini ta'minlash, uning elementlarini yorilishga mustahkamligi quyidagi talablarga javob berishi kerak.

$$[N_{kyp}] \geq 1,6 [N_{uu}] \geq 400 \text{ kH}$$

бу ерда: $[N_{kyp}]$ -qurilmani o'zilishga ruxsat etilgan mustahkamligi, KH:
 $[N_{uu}]$ -cheгаравијишчи zo'riqishlar, plasterni kengayish hisobiga paydo bo'ladi, KH, =250 KH.

13. Mustahkamlash quvuriga gidravlik dornirlash kallakning kirish vaqtida plastersni kengayishida va uni mustahkamlash tizmasiga kontaktlashuvini hosil qilish uchun kallakda 1,3 -1,5 marta katta bosim hosil qilinadi.
14. Yakorli qurilmadan foydalanilganda, plastersni mustahkamlash tizmasi bilan birikishini hosil qilish uchun dornir kallakni tortish kuchiga nisbatan 1,5 - 1,7 marta katta bosim hosil qilinadi.

Plaster materiali va konstruktiv elementlari

Mustahkamlash tizmasini germetikligini tiklash uchun plaster yamoqlarini o'rnatishda xizmat qiladigan asosiy materiallarga yupqa qalinlikdagi bo'ylama

gofrirli po'latquvurlar kiradi.


Germetiklikni sifatini oshirish maqsadida plaster plastik germetikli material bilan qoplanadi.

Germetiklovchi material sifatida quyidagi koplamalar qo'llaniladi:

ED-5; ED-6 epoksidli mumli asosidagi polimer tarkibi;

NG komrit (TY-38-10518-77) asosidagi gummir tarkibi. Epoksiz mumli asosli polimerlar kovaklarni va bo'shliklarnito'ldirishda mustahkam va ishonchli bo'lib, plasterlarni yuzasiga surtishda va tayyorlashda juda qulay, tezda qotish xususiyatiga egadir.

Mustahkamlash tizmasini ta'mirlashda germetiklikni sifatli tiklanishini ta'minlash uchun ko'ndalang kesimi perimetri va plaster materialini optimal shaklini to'g'ri tanlash kerak. U mustahkamlash tizmalariga G-10 mm oralig'idagi masofa bilan erkin o'tishi, ta'mirlanadigan quvurning ichki yuzasiga hech qanday mexanik buzilmasdan qisilishi kerak. Bunday plasterning ko'ndalang kesim yuzasiga shunday shakl beriladiki, bu shakl qavariq va botiq shakllarga ega bo'ladi.



5.2-rasm. Plasterning ko'ndalang profili. 1- mustahkamlash tizmasi; 2- gofrirli plaster.

Plasterning perimetri yulduzsimon quvur shaklida hisoblanadi, n-gofrirli plasterning perimetringi uzunligi L_n quyidagicha aniqlanadi.

$$L_n = \frac{\pi n}{180^\circ} (R + kh)(2\rho + 2)4$$

Bu yerda: n -gofrirlar soni; R - qavarik va botiqlar radiusi; κ -egilishda neytral qatlaming holatini hisobga oluvchi koeffitsiyent; h -plaster devorining qalinligi; a -qo'shni burtma oralig'idagi burchak; B - botiq devorni tushish uzunligi yoyining burchagi. Diametri 146 mm bo'lgan mustahkamlash tizmasi uchun qo'llaniladigan plasterning ko'ndalang shaklini geometriyasini hisoblashda, gofrirning soni 6 taga teng qabulqilingan. Boshqao'lchamdagagi quvurlar uchun qavariq va botiq shakllarning o'lchami plasterlarga yaqin oltita gofrirga teng olinadi, ularning o'lchami esa mustahkamlash tizmasining diametriga muvofiqaniqlanadi.

bu yerda: η - plaster gofrlarining hisobiy soni;

D_{ut} - mustahkamlash tizmaning ichki diametri.

5.3-jadval

Har xil diametrlar uchun gofrlar soni quyidagicha

Tizmaning tashqi diametri. mm	140	146	168	178	194	219	245	273	299	325
Plasterdagi gofrlar soni (qavariq va boshqalar) kichik emas, n-ta	6	6	8	8	8	10	12	12	14	14

Oldinga quyilgan masalani hal qilish uchun po'lat quvurlaridan tayyorlangan bo'ylama-gofrliyuqa qalinlikdagi plasterlardan foydalaniladi. Bu plasterlar kerakli shaklga, ko'ndalang kesimini o'lchamlariga, mexanik va mustahkamlik xossalariiga ega bo'lishi kerak.

Bunday quvurlarni tayyorlashda tayyorlanma sifatida yuqa qalinlikdagi silindrik po'lat quvurlardan foydalaniladi.

Gofrli plasterlar rolikli qurilmalarda quvurlarni tortish orqali tayyorlanadi.

Xulosa

5-bobda mustahkamlovchi quvurlar birikmasi va sement halqasining nogermetikligini bartaraflash, quduq tubini farmaldegid smolasi bilan mustahkamlash, sement ko'priklar o'rnatish texnologiyasi, quduq tubini sementli va sement-qum qorishmasi yordamida mustahkamlash, mustahkamlash quvur birikmalarini ta'mirlash operatsiyalarning ketma-ketligi, mustahkamlash tizmasini germetikligini tiklashning usullari va vositalari, mustahkamlash quvurlar birikmasini po'lat plasterlar bilan ta'mirlash texnologiyasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Nazorat savollari

1. Mustahkamlovchi quvurlar birikmasi va sement halqasining nogermetikligini bartaraflash
2. Quduq tubini farmaldegid smolasi bilan mustahkamlash.
3. Quduq tubini sementli va sement-qum qorishmasi yordamida mustahkamlash.
4. Mustahkamlash quvur birikmalarini ta'mirlash operatsiyalarning ketma-ketligi.

VI-BOB. QUDUQLARDAGI AVARIYALARINI BARTARAF ETISH VA IKKINCHI STVOL OCHISHDA ISHLATILADIGAN ASBOB USKUNALAR

6.1.Tutish ishlarida ishlataladigan texnika va texnologiyalar

Ta'mirlash jaraenida, neft, gaz quduqlarning NKTda rezba sinib va uzilib ketishi, begona buyuumlar quduqqa tushishi, himoya tizmalarining butunligi buzilishi, texnologik jarayonlarining buzilishi sababli avariylar xosil bo'ladi. U yoki bu turdag'i avariyalarni bartaraf etish ishlarini olib borishdan avval, uni tahlil qilish kerak. Avvalam bor shuni unitmaslik kerakki, avariya mos bo'limgan, avariya asbobini qo'llanilishi avariyaning kuchayishiga chuqurlashishiga olib keladi.

Har qanday holatda ham quduqdagi burg'ilash uskunasi yoki NKQ larini sinaganiga shubha yoki gumon qilinganda burg'ilovchi darhol quvurlarni ko'tarib olishni boshlash lozim.

Quduqqa tutuvchi qurilma asboblarni tushirishdan oldin tutuvchi qismining belgilangan asosiy o'lchovlari va tutuvchi asbobning umumiy tuzilishining tarkibi tuziladi.

Tushirilayotgan burg'ilash tizmasi uzunligi tutuvchi asbob bilan shunday hisob-kitob bilan tanlash kerakki, ya'ni tutuvchi asbobni rotor yordamida mahkamlash lozim, shuningdek prventir plashkalariga burg'ilash quvuri kirigan holatda bulishi kerak, shunga mos ravishda plashkalar va rotorda etaklovchi. Tutuvchi asbobni chiqarilayotgan quvur bilan kutarilganda quvur qulflri birikmalarni echishda mashinali klyuch bilan amalga oshiriladi, so'ngra qo'l bilan amalga oshiriladi.

Har qanday tutuvchi asbob bilan ishslash vaqtida shu narsani unitmaslik kerakki, uni quduqqa tushirishdan oldin, agarda halokat bo'ladigan bo'lsa uni chiqarib olishni bilish lozim. Tutuvchi asboblar quduqdan halokat vaqtida, NKQlari, burg'ilash quvurlari, quduqlarning yuqori qismiga ishlov berish uchun muljallagan kabel va boshqa predmetlarni chiqarib olish uchun xizmat qiladi. Bu

asboblarga pechatlar, quvur tutqichlar, metchiklar, kolokol, tutqichlar, yasslar, rayberlar, frezerlar kabilar kiradi.

Pechat


Quduqda qolib ketgan buyumlarni joylashish holati va joylashgan joyini aniqlash uchun, shuningdek ishlatalish tizmasining holatiga baho berish uchun ham pechatdan foydlaniladi.

Pechatlarning tuzilishi turli. Hozirda bizga yassi, konusli, unversal, hajmiy pechatlar ma'lum.

Yassi pechat quduqda joylashgan buyumning pechatini olish uchun muljallangan. Silindrsimon qismidagi qurg'oshinli qoplamasining diametri tizma ichki diametridan 10-15 mm kichik bo'lishi kerak.

Konussimon pechat tizmaning yoriqlari va pachoqlangan qismlarini, tizmani devorini pechatini olish uchun muljallangan. Ushbu pechatning qurg'oshinli qismi shunday tayyorlanganki keng joyining diametri, quduq tizmasining ichki diametridan 10 mm kichik qilib tayyorlanadi, pastki qismi keng joyidan esa 50 mm kichik bo'ladi.


Universal pechat PU-2 qurg'oshinliga nisbatan uning qobig'i alyumindan iborat(6.1-rasm).



6.1-Rasm. Universal pechat PU-2

va silindriksimon shakldagi 3 tana-qobig'i, yuqori qismining oxirida konussimon reba mavjud bo'lib, 9 perevodnik ostida joylashagan. Chizlash qismining ostidan rezinadan qilingan stakan 1 va alyuminli qobiq 2 keydiriladi. Stakan to'rtta vintel bilan o'shlab turadi. Silindr shaklidagi qismiga shponka 4 payvandlangan, yuqoriroqdan trapetsial rezba yunib ochilgan, qaysiki unga 6 gayka mahkamlanadi. Iskanjaga olish qurilma – gayka va siquvchi qurilma (vtulka) 5, gayka 6 aylanishi tufayli siquv vtulkasini psatga itaradi va shu bilan uni ishchi holatga keltiradi. Uz o'zidan 6 gaykaning yechilib ketishidan saqlash uchun va alyumin qobiqni ozod etish uchun shayba 7 bilan kontrgayka 8 quyilgan. Pechatga beriladigan siquvchi kuchlanish 1,5-2 tonnani tashkil qiladi, ya'ni tuliq sifatli siqish uchun etarli hisoblanadi.

PG 146-1 Gidravlik pechat 146 mm li himoya tizmasini kurikdan o'tkazish uchun ishlatiladi(6.2-rasm).





6.2-rasm. PG-146-1 Gidravlik pechat; 1-gayka; 2-korpus; 3-porshen; 4-stopornaya gayka; 5-gayka; 6-konusli bog'lama; 7-vtulka; 8- rezinli element; 9-plastik qavatlar; 10-shtutser

Boshqa turdag'i konstruksiyalarga nisbatan farqi u tizmaning shikastlangan qismiga rezinli elementlari yuzasi o'rtaida shikastlanish tavsifi bo'yicha o'ta aniqroq tasaffurga ega bo'lish imkonini beradi.

Pechat tushiriladigan NKQ lar orqali yuvuvchi suyuqlik haydaladi. Quvurning ichki qismida teshilgan "A" teshik orqali utishda eritma rezinali elementga borib tegadi, qaysiki tizma ichki devoriga zich holatda siqadi. Bosimni 1,2 MPagacha kutariladi va 5 minut ushlab turiladi, so'ngra esa atmosfera bosimigacha kamaytiriladi va shundan so'ng pechatni yuqoriga ko'tarib olinadi (6.3-rasm).

80- yillarning boshlarida hajmiy pechat ishlab chiqarilgan bo'lib, qaysiki rasmda ko'rsatilgan.



6.3-rasm. Quduqdagi joylashgan predmetlarni konturini aniqlash uchun hajmiy pechat: 1 korpus, 2 o'tkazgich, 3 vintlar, 5 stopor plitalar, 6 elastik prokladkalar, 7 yunaltiruvchi plitalar va 8 sterjenlar.

Korpusi yarim silindrik shakldagi qismdan, boshqa bir uchida qulflı rezbalardan va boshqa uchida esa rezbali teshikdan iborat, yechib olinadigan o'tkazgich va plitalarni prokladkalar bilan biriktirish uchun xizmat qiladi. utkazkichning korpusini tayyorlanish qiyinligi sababli bitta korpusni bir necha marta har o'lchamidagi pechatlar uchun foydalanish taklif etilgan. Buning uchun korpus bilan yunaltiruvchi plita 7 orasida o'tkazgich 2 urnatilgan, shuning evaziga birtekis holatda korpusdan pechatga utish imkonini beradi.

Plitalar korpusga boltlar yordamida berkitiladi. Plitaga 10 mmdan so'ng teshiklar teshiladi. pilatalar orasiga rezinli prokladkalar urnatiladi, qaysiki mexanik ta'sir bo'limganda sterjenni harakatlanib ketishidan saqlaydi. Sterjenlarga 2 tonna yuk tushganda harakatlana boshlanadi va sterjenning harkatlanishi tufayli predmet hajmining chegarasi buyicha pechatni hosil bo'ladi.

QUVUR TUTKICH

Quvur tutkich NKQ larini tutish uchun muljallangan. Uni o'ng va chap buraladigan rezbada ishlab chiqariladi. O'ng yo'nalishdagi rezbali tutqichlar utilgan quvurni butunligicha olib chiqishi, chap yo'nalishdagi rezbali tutqichlar – burab echish orqali quvurlarni qismilarga ajratib chiqarib olishga muljallangan.

Ichki quvur tutkichlar quvurning ichki qismidan tutib olish uchun, tashqi tutkichlar esa quvurning tashqi qismidan va muftasidan ushslashga muljallangan. Ichki va tashqi quvur tutkichlar ikki turga bo'linadi – ozod qilinadigan va ozod qilinmadigan.

Ozod etilmaydigan quvur tutkichlar faqat plashkali turdag'i tutkich mexanizmidan iborat, ozod etiladigan quvur tutkich plashkani ozod etilgan holatda keltirish mexanizimi mavjud. Ozod etiluvchi quvur tutkichlar quvur tizmalariga tezda tushirish orqali qoziqsimon plashka bilan ushslash orqali amalga oshiriladi.

Ozod etiluvchi quvur tutkich foydalanilayotganda plashkali tutkichlarni ishlatishda judda ehtiyyotlik bilan chuzilish kuchlanishini tanlash lozim. Ushbu kattaliklarni optimal tanlash plashkalarning ishonchli ushslash imkonini beradi:

6.1-jadval

Tortuvchi kuchlanish (t)	20-30	50-60	70-80	100	100-120
Shartli diametri (mm)	60	73	89	102	114


